

**O. Begmatov, B. Abdullaev, A. Yusupov,
A. Meliboev, J. Xolmatov**

O'ZBEKISTON DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH YO'LIDA

TOSHKENT
“TAMADDUN”
2018

UDK 321
KBK 66.3(50‘)
O‘21

O. Begmatov va boshq.

O‘zbekiston demokratik jamiyat qurish yo‘lida[Matn]/ O. Begmatov [va boshq.]. – Toshkent: “TAMADDUN”, 2018.-192 b.

Ma’zkur “O‘zbekiston demokratik jamiyat qurish yo‘lida” qo‘llanmasi O. Begmatov umumiy raxbarligida katta o‘qituvchi B. Abdullaev, o‘qituvchilar A. Yusupov, A. Meliboev va Beshariq tibbiyot KHK o‘qituvchisi J. Xolmatovlar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining ilk kunlaridan to 2017 yilgacha bo‘lgan oraliqdagi voqeliklarni qamrab oladi. Qo‘llanmada istiqlol davrida O‘zbekiston bosib o‘tgan murakkab yo‘l hamda erishilgan yutuqlar batafsil yoritib berilgan. O‘zbekistonning mustaqilligiga erishishi jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalari to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

Mazkur qo‘llanmani o‘rganish orqali eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma’ruza va nutqlarida asoslab berilgan g‘oyalarni kengroq o‘rganish mumkin. Negaki, Birinchi Prezident Islom Karimovning asarlarida O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy yo‘llari real voqelikni umumlashtirgan holda batafsil ko‘rsatib berilgan.

Umuman, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining talablariga javob beradigan dunyoqarash, fikrlar xilma-xilligi, erkinlikni qadrlash, inson qadriyatini, sha’ni va or-nomusini hurmat qilish bilan bog‘liq qadriyatlarni shakllantirish asosiy vazifalardandir. Bu vazifalar fuqarolarimizni, talabalarimizni mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, demokratik qadriyatlarni xurmat qilish orqali ularning bunyodkorlik ishlariga safarbar etishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘quv qo‘llanmani nafaqat oliy o‘quv yurtlarida, balki rejadagi soatlardan kelib chiqqan holda litsey, kollej va o‘rta maktablarda ham keng qo‘llash mumkin. Shuningdek, ko‘rsatilgan o‘quv yurtlarida asosiy adabiyotlar bilan birgalikda qo‘shimcha qo‘llanma sifatida foydalanish ham mumkin.

Isbn 978-9943-5115-2-1

© “TAMADDUN”, 2018

KIRISH

Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab O'zbekiston demokratik jamiyatga o'tish yo'lini tutdi. Birinchi Prezident I. A. Karimov mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni asosiy strategik pirovard maqsad sifatida e'lon qilidi. Isloxotlar avvalo insonga, uning farovonligi va erkinligiga qaratila boshlandi.

Mamlakatda qisqa fursat ichida siyosiy tizim, davlat va jamiyat boshqaruvi o'zgara boshladi. Fuqarolar dunyoqarashida demokratik qadriyatlar, shu bilan birga, o'zaro uyg'un holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuksala boshladi.

Markur qo'llanmada mustaqillik davrida mamlakatda demokratik jamiyat qurish islohotlarining borishi, bu yo'ldagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari tahlil etiladi.

Qo'llanmadan "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "Huquqshunoslik", "O'zbekiston tarixi", "Iqtisodiyot", "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Madaniyatshunoslik" kabi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanma butunlay yangi nazariy ishlanmalardan iborat emas. Uni tayyorlashda Birinchi Prezident I. A. Karimov asarlari, soxa mutaxassislari tomonidan mustaqillik davrida nashr etilgan, ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid qo'llanmalar va darsliklardan unumli foydalanildi.

MAVZU: O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA

REJA:

1. Mustaqillikni qo‘lga kiritish arafasidagi chuqur inqiroz holati
2. Islom Karimov – O‘zbekistonning yangi rahbari: tinchlik va barqarorlik yo‘lidagi dastlabki qadamlar
3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va iqtisodiyotni tubdan isloh etish borasida yurt rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning sa’y-harakatlari
4. Huquqiy mustaqillikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar

1. Mustaqillikni qo‘lga kiritish arafasidagi chuqur inqirozli holat

80-yillarda sovet tuzumi tanglik xolatini boshdan kechirayotganligiga yaqqol namoyon bo‘ldi, Sobiq Ittifoqning kommunistik rahbariyati tang xolatdan chiqish yo‘llarini kidirishga, jon xolatda tipirchilayotgan tuzumni barqarorlashtirishga intilib, faqat boshqaruv tizimini yangilash, ilgari yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni bartaraf etish, “sotsializmga insoniy qiyofa” bag‘ishlash lozim, degan fikr bayon qilindi.

Xuddi shu xildagi tushunchalar hozirgi kunda ham bir qator MDH mamlakatlarining avvalgi kommunistik rejimning tiklanishiga umid qilayotgan kommunistparast guruhlari tomonidan targ‘ib qilinmokda. Mustaqil O‘zbekistonda davlat suvereniteti qo‘lga kiritilgandan keyin sovet tuzumi davrining mafkuraviy kishanlari qat’iyan uloqtirib tashlandi. Lekin jamiyatni jadal sog‘lomlashtirish jarayoni borayotgan bo‘lishiga qaramasdan, o‘tmishning mafkuraviy sarqitlari, eskicha fikrlash illatlari hamon ma’naviy soxaga ba’zan yashirin tarzda ta’sir qilib kelmoqda. Respublika Birinchi Prezidenti I. A. Karimov jamiyat o‘tish davrining ana shu ob’ektiv realligini ko‘rsatib o‘tar ekan, “bugungi kunda ba’zi mamlakatlarda eski sovet davrini qo‘msash, o‘sha zamonga qaytish uchun turli urinishlar bo‘lyapti. Ayrim xorijiy telekanallarda Lenin davrini, Stalin davrini, SSSRni ulug‘lash kayfiyatlari kuchayib boryapti. Bunday qarash, bunday yondashuv bizga aslo ma’qul emas. Bizning o‘z aqlimiz, bilim va tajribamiz, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan yo‘limiz bor. Biz qaramlik va tutqunlikka qaytishga hech qachon rozi bo‘lmaymiz. Ota-bobolarimiz aytganidek, ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi. ... biz eski tuzumni tiklashga qaratilgan hech qanday ittifoqqa hech qachon kirmaymiz, mustabid sovet davriga aslo qaytmaymiz. Shaxsan men butun hayotimni, butun umrimni xalqimizning ozodligiga, Vatanimiz mustaqilligiga bag‘ishladim va bu yo‘ldan hech qachon qaytmayman”, - deydi.

Darhaqiqat, o‘tmish sarqitlari, avvalgi tuzumning voqelikdan uzoq barcha soxta qadriyatlari qanchalik zararliligi Prezident tomonidan ko‘p marta ta’kidlandi. Sovet zamonga qaytish qanchalik jozibali bo‘lmasin, amalda real hayotdan uzoq xayoliy ertakdan boshqa narsa emas.

Bularni ayniqsa yoshlarimiz aniq anglab etishlari kerak chunki mafkuraviy kurashning ko'p tomonlama qiyofasi, xilma-xil dushman siyosiy kuchlarning, shu jumladan, kommunistparast kuchlarning yosh avlodning xali pishib etilmagan ongiga ta'sir etishga urinishlari jaxon maydonida etakchi o'rin egallab kelmoqda. Sotsialistik o'tmishga nazar tashlab shunga ishonch hosil qilish mumkinki, yangi iqtisodiy siyosat isloxotlari, Xrushchev davrining "iliq shabadalari", keyin esa "qayta qurish" davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, sovet kommunistik tuzumi ob'ektiv ravishda olganda, chuqur o'zgarishlarga qodir emasligi ma'lum bo'ldi. SSSRning inqirozga uchrashi, bu bilan esa jaxon sotsialistik tizimining barbod bo'lishi tarixiy qonuniyat edi.

Sotsialistik g'oya uzining butun mazmuni bilan o'lkaning tub aholisiga, uning milliy tafakkuri va turmush tarziga begona edi. Sovet hokimiyati bu yerga qizil armiya nayzalari ostida kirib keldi. Shu bilan birga sotsializmning zo'ravonlik tabiati darhol namoyon bo'ldi. Xalqning milliy ozodlikka, milliy davlatchilikni tiklashga bo'lgan orzu-intilishlari, uning o'z tarixii taqdirini o'zi xal qilish huquqi¹ inkor qilindi. O'zbekistonda sotsialistik davlatchilik andozasi chor mustamlakachilik rejimi o'rniga zo'ravonlik usullari bilan joriy etildi, proletariat diktaturasi davlatini o'rnatishning mustabidcha kommunistik loyihasi amalga oshirildi. Yangi hokimiyat o'ziga xos mustaqil milliy rivojlanish imkoniyatlariga barcha usullar bilan tusqinlik qildi, mahalliy aholini davlatni boshqarishga jalb etishga, siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishga qarshilik ko'rsatdi.

Davlatning xalq ustidan zo'ravonlik qilish amaliyoti saqlab qolindi, va bu 30-, 50- va 80-yillardagi stalincha-beriyacha qonli harakatlarga aylanib ketdi. Istibdod tizim proletariat diktaturasi to'g'risidagi markscha g'oyani amalda ruyobga chiqarishni mantiqan oxiriga etkazdi. Natijada sovet jamiyatiga davlatning mutlaq hukmronligi, aholining fuqaroviy himoyasizligi, siyosat bilan ahloqning xaddan tashqari uzilib qolganligi, ijtimoiy ijodkorlikning so'nishi, boshqacha fikrlovchilarning muqarrar jazoga giriftor qilinishi, qullarcha tobelik vaziyatining avj oldirilishi, Markaz bilan milliy respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning yalpi imperiyacha moxiyat kasb etishi xos bo'lib qoldi.

Markscha iqtisodiy andozaning joriy etilishi og'ir oqibatlarga sabab bo'ldi. Sotsialistik iqtisodiyotga xos bo'lgan umumiy illatlardan tashqari, u O'zbekistonda xalq xo'jaligining mustamlakachilik yo'nalishini saqlab qolish bilan to'ldirildi. Respublikamiz iqtisodiy jixatdan birmuncha taraqqiy etgan bo'lsa ham, lekin u hukmron Markaz tomonidan belgilangan doiradan chetga chiqmasligi, o'lkaning arzon xom ashyo manbalari va tabiiy boyliklaridan Markazning bemalol foydalanishini kafolatli ravishda ta'minlashi avvalgidek davom etishi lozim edi. Bu xol shunga olib keldiki, O'zbekiston iqtisodiyoti bir tomonlama-xom ashyo yo'nalishida bo'lib qoldi. Chunonchi, Ittifoq markazi tomonidan tikishtirilgan mexnat taksimotiga muvofiq bu yerda tabiiy xom ashyoni qazib olish va unga birlamchi ishlov berish, qishloq xo'jalik maxsulotlari etishtirish bilan bog'liq sanoat tarmoqlariga ustunlik berildi. Respublika darajasidagi va respublikaga

¹ Turkiston Muxtoriyatining qonga botirilishi buning isboti hisoblanadi.

bo'ysunadigan ilmiy va mehnat salohiyatini rivojlantirishga, tayyor buyumlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan tarmoqlar tashkil etilmadi. Bunday mustamlakachilik rejasi Markazga o'zbek xalqining tabiiy boyliklari xazinasidan vaxshiyona foydalanish imkonini berardi. Bizning o'lkamiz o'nlarча yillar mobaynida Markazni paxta, qorako'l teri, xom ipak, tabiiy gaz, rangli va nodir metallar bilan, shu jumladan, oltin, mis, uran, qo'rg'oshin, rux va hokazolar bilan ta'minlab keldi.

O'lkamizning Markazga tobora ko'proq paxta etkazib beradigan ota meros mulkka aylantirilganligi uning mustamlaka ahvolidan ekanligidan dalolat berardi. Kup yillar mobaynida xukm surib kelgan paxta yakkaxokimligi, milliy iqtisodiyotning asosan paxtaga yunaltirilganligi shunga olib keldiki, o'zbek xalqining boyligi hisoblangan paxta uning boshiga bitgan balo bo'ldi. "Oq oltin" nihoyatda shafqatsiz usullar bilan qo'lga kiritila boshladi. Bu yo'lga o'tmaganlarni vazifasidan chetlatishdi va yo'qotishdi, ularning o'rniga "Yetib olamiz va o'zib ketamiz", "Besh yillikni ikki yilda qoyillatamiz", deya itoatkorona qo'l qovushtirib turadiganlar tanlandi. Faqat deraza tokchalariyu tomlarga paxta ekilmadi, xolos.¹ Sun'iy ravishda singdirilgan paxta yakkaxokimligi O'zbekistonning kambag'al respublika bo'lib qolishiga olib keldi, unga jiddiy ekologik xavf tug'dirdi (Orol dengizi suvining xaddan tashqari kamayishi), oziq-ovqat soxasida uni Markazga bog'liqlikdan iborat taxqirlovchi ahvolga solib qo'ydi.

Ma'lumki, o'zbek xalqining tarixi azaldan yuksak ma'naviyati bilan ajralib turgan. Biroq insonparvarlik mehr-muruvvat, milliy mustaqillik milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga, diniy qarashlarga tayangan bu tarix kommunistik ta'limot andozalariga mos kelmay qoldi. Milliy ma'naviyat mustaxkamlanib borayotgan milliy birlik kuchini, dunyoqarash xaqidagi o'ziga xos tasavvurlar tizimini, xalqning ming yillar mobaynida qaror topib kelgan ma'naviy o'ziga xosligini, noyob va mukaddas an'analari, orzu-umidlarini aks ettiradi. U ko'p asrlik o'tmish bilan hozirgi kunni uzviy ravishda bog'lab xalq qudrati va g'ayrat-shijoatining manbai, yosh avlodni tarbiyalash asosi bo'lib xizmat qilib keldi. Shuning uchun ham, markscha aqidalarga muvofiq boshqacha fikrlashning barcha turlarini yo'q qilishga intilgan sovet hokimiyati uchun kommunistik mafkuraga muqobil bo'lgan tafakkur shakllari ayniqsa xavfli bo'lib tuyulgan. Ikkinchi tomondan, o'z tabiatiga ko'ra mustamlakachi tuzum bo'lgan sovet mustabid tizimi xukmron Markazning imperiyacha niyatlari yo'lida xalqni ma'naviy jixatdan bo'ysundirishga, uni uzining milliy o'ziga xosligini, ma'naviy-etnik ildizlarini, ozodlik tuyg'ularini va tarixiy Vataniga bo'lgan farzandlik mehr-muxabbatini unutgan, undan maxrum bo'lgan irodasiz, aql-xushsiz bir manqurtga aylantirishga intildi.

Sovet "madaniy siyosati"ning mafkuraviy asosini lenincha "madaniy inqilob" nazariyasi tashkil etardi. U ijtimoiy ongni tubdan qayta o'zgartirishni, kommunistik dunyoqarash monopoliyasini o'rnatish, kommunistik mafkuraning ma'naviy ishlab chiqarishning barcha soxalariga tarqalishini, proletariat tipidaga "sotsialistik madaniyat"ning vujudga kelishini, keng tarmoq yoygan madaniy-

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 286-bet.

mafkuraviy muassasalar tizimining mustaxkamlanishini belgilab berdiki, ular butunlay hukmron kommunistik partiya maqsadlariga xizmat qilishi lozim edi.

Kommunistik rahbariyat ma'naviy hayotni mustabidlashtirish, milliy g'oyani sotsialistik g'oya bilan almashtirish vazifalaridan kelib chiqib ish olib bordi. Shu maqsadda o'n yillar mobaynida O'zbekistonning hamma joylarida milliy tafakkur tarziga zid bo'lgan xayoliy markscha dunyoqarashni singdirishga urindi, milliy tafakkurni bo'g'ib keldi.

Avvalo, ko'p ming yillik ma'naviy-madaniy merosga halokatli zarbalar yog'ildi. Bolsheviklar hokimiyatni bosib olgan dastlabki davrlardan boshlab "madaniy inqilob"ni amalga oshirishga kirishdilar, ahloq adabiyot, san'atni samarali milliy zamindan ajratib kuyishga, "proletar madaniyati"ning yaramas namunalarini joriy etishga intildilar. Keyinchalik ham sovet davlatining mustabid tizimi o'z mafkuraviy apparatining butun qudratini ishga solib, ommaviy axborot vositalaridan, butun ta'lim tizimidan foydalanib, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatishga, haqiqiy milliy an'analar va urf-odatlarni zo'r berib barbod qilishga, xalq xotirasidan jaxon sivilizatsiyasiga bebaxo xissa qo'shgan buyuk ajdodlari nomlarini chiqarib tashlashga urindi. Ayni vaqtda jadal baynalmilallashtirish maqsadini ko'zlab, milliy tafovutlarni barham toptirish, milliy madaniyatlarni bir xillashtirish uchun qat'iy kurash olib borildi. Milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish zarurligini yoqlab chiqqan milliy ziyolilar vakillari millatchilikda ayblandi. Ular ta'qib qilinib, ko'plariga "xalq dushmani" yorliqlari tirkaldi.

Sovet xokimiyatining butun borishi mobaynida "din-xalq uchun afyundir" degan markscha shior niqobi ostida daxriylik eskremizmi-avj oldirildi, U "sovet turmush tarzi"ning muxim tarkibiy qismiga aylantirildi, odamlarning diniy his-tuyg'ulari qo'pollik bilan oyoqosti qilindi, muqaddas diniy qadriyatlar toptaldi, ruxoniylar ta'qib ostiga olindi.

Yana bir strategik yo'nalish zo'rlik bilan "ruslashtirish" siyosati bo'lib, u siyosiy yuqori tabaqaning milliy masaladagi imperiyacha bo'yini aks ettirdi. Uni davlat miqyosida amalga oshirish uchun milliy hayotning barcha soxalarida, xususan, til to'g'risidagi siyosatda jiddiy nuqsonlar sodir bo'lishiga olib keldi. Kup millatli davlatda millatlararo aloqa tili bo'lgan rus tili avval boshdanoq buyruq yo'li bilan joriy etila boshlandi, boshqa tillarni rivojlantirish extiyojlari inkor etildi. Natijada o'zbek tili O'zbekistonda ikkinchi darajali til darajasiga tushirib qo'yildi. Shu bilan birga ommaviy axborot vositalarida, adabiyot, fan va san'atda o'zbek tilining faol amal qilish soxalari sun'ii ravishda toraytirilishi ko'zga tashlandi. Masalan, o'sha yillarda ilmiy dissertatsiyalar asosan rus tilida yoqlanar va nashr etilardi.

Shunday qilib, yot kommunistik mafkuraning joriy etilishi natijasida o'zbek xalqining munosib tarzda hayot kechirishdan maxrum etilgan bo'lib, o'z yerida o'zini erkin his qilolmasdi, haqiqiy madaniyatidan, an'alaridan, tarixiy xotirasidan, chinakam ma'naviyatidan ko'p jixatdan maxrum bo'lgan edi. Ittifoq markazi O'zbekistonning tabiiy-xom ashyo va ma'naviy-madaniy resurslaridan voxshiyona foydalanishni davom ettirib xalqni kambag'allik va tarixiy bema'ni hayot kechirishga duchor qildi. Biroq kommunistik rahbariyat xalqni mankurtga

aylantira olmadi. Kommunistik mafkura xukmronligining og‘ir mashakdatlarini boshdan kechirgan o‘zbek xalqi ozodlik g‘oyalariga sodiq bo‘lib qoldi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlar bo‘lishiga umidning so‘nishi 80-yillarning boshlarida ayniqsa kuchaydi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma’muriy-siyosiy biqqlik kuchaygan bo‘lsa, boshqa tomondan, jamiyat a‘zolari mehnat intizomining pasayishi, ijtimoiy loqaydlik befarqlik kuchayib bordi. O‘zbekiston iqtisodiyoti katta xom ashyo, iqtisodiy zaxiralarga ega bo‘lishiga qaramasdan G‘arb mamlakatlaridan juda tez ortda qola boshladi. Ishlab chiqarish samaradorligi pasaydi, kishilarda jamiyatda sodir bulayotgan ijtimoiy voqea va xodisalarga qiziqish kamaydi, yangi texnik hamda texnologiyalarni o‘zlashtirish juda sust olib borildi.

Jaxonning rivojlangan va demokratiya tarkib topgan mamlakatlaridagi ijobiy o‘zgarishlar, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishdagi olg‘a siljishlar, xalq turmush sharoitidagi yangi imkoniyatlar sovet jamiyatidan nafratlanish, jiddiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga moyillik hissini paydo qildi.

Ana shunday sharoitda 80-yillarning o‘rtalarida sovet jamiyatida “qayta qurish” boshlandi. Qayta qurish KPSS MK Bosh kotibi Mixail Sergeevich Gorbachyov va KPSS Markaziy Komitetining aprel (1985 yil) plenumi bilan bevosita bog‘liqdir.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e‘tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Ammo bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo‘lib qoldi. Shuning uchun 1986 yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e‘tibor berildi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma’muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurash turar edi.

Natijada jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida ma‘lum o‘zgarishlar ruy bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari qadam tashlandi, milliy o‘zlikni anglash jarayoni yuz berdi. Ammo tub o‘zgarishlarni, barcha soxalarda haqiqiy isloxotlarni amalga oshirish yo‘lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. 1986 yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli battar yomonlasha boshladi, 1987 yil yanvaridan ishlab chiqarish sur‘atlari keskin pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli xolat yuzaga keldi.

80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy muammolarni xal etishdagi o‘quvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo‘lda qolib ketishi-bularning barisi jamiyat a‘zolarida qayta qurishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Qayta qurishning uchinchi yilida uning to‘liq mag‘lub bo‘lishi aniq ko‘zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o‘rniga siyosiy jabxadagi “musobaqalar”, siyosiy safsata, quruq va ‘dalar kishilarda loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o‘rnini sustkashlik davlat va firqa siyosatiga ishonmaslik, befarqlik egalladi.

Qayta qurish oshkoralik demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma‘lum ma’noda kuchayishiga imkon yaratdi. Shu bilan birga, bunday jarayonlarni madaniy shaklda, xalqaro andozalar asosida olib borish imkoni bo‘lmadi. Bunga ko‘proq kommunistik-bolshevistik mafkuraviy yakkahokimlik ma’muriy-

buyruqbozlik tizimi asoratlari ta'sir qilar edi. Natijada tom ma'nodagi oshkoralikka erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi "siyosiy o'yin"lar ko'rinishini oldi. Fikrlar xilma-xilligining ayrim ko'rinishlari esa "yuqori"ning siyosat va nazariy masalalarda hurfikrlilikni ta'qib etishi asnosida yuz berdi.

Tabiiyki, yuqoridagi kabi xolatlar jamiyatda tom ma'nodagi siyosiy-ijtimoiy isloxotlarni amalga oshirishga imkon bermadi, natijada ijtimoiy siyosiy inqiroz yuzaga keldi. Bunday xolat, ayniqsa, O'zbekistonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. O'zbekistonda tobora kuchayib borayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz, boshboshdoqliklarning zudlik bilan oldini olish, pirovard natijada ijtimoiy adolatga erishish lozim edi.

Ana shunday sharoitda O'zbekistonning o'sha paytdagi rahbariyati Markaz oldida o'zining nunoq va noshudligini ko'rsatdi. Respublika rahbariyati Markazdan qochish, uni inkor etish siyosati o'rniga, ko'proq unga yaqinlashish, mustaxkam birlashish yo'lini tanladi.

O'zbekistonning Inomjon Usmonxo'jaev, Rafiq Nishonov kabi rahbarlarida qat'iy jur'at, sobiq Ittifoq doirasida respublikaning real tutgan o'rnini ochiq-oydin aytish uchun mardlik etishmadi. Aksincha, uning o'rniga bunday rahbarlar Markaz vazifalarini tezrok "uddalash", respublikaning Ittifoqda boqimanda ekanligi to'g'risidagi soxta fikrlarni tasdiqlashdan nariga o'tmadilar. Ijtimoiy-ma'naviy soxada esa milliylikning har bir ko'rinishi "internatsionalizm" mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o'zbek tili, din, milliy urf-odat, an'ana, marosimlar, ayniqsa, Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol ko'rindi,

O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida O'zkompartsiyaning XVI Plenumi (1984 yil 23 iyun) juda mash'um rol uynadi. Respublikaning o'sha paytdagi rahbarlari orasidagi nunoqlik Markaz oldida tiz cho'kib sajda qilishlari oqibatida "O'zbek ishi", "Paxta ishi" deb nomlangan ishlar o'ylab topildi. 1985-1990 yillar ichida O'zbekistonda 30-50-yillarda sodir bo'lgan qatag'onlardan ko'lam jixatidan kam bo'lmagan bedodliklar yuz berdi. Eng avvalo qatag'on qilichi marxum Sharof Rashidov xotirasiga qarshi ko'tarildi. 80-yillar qatag'onida sobiq Ittifoqdagi biror-bir xalq o'zbek millati kabi talafot ko'rmadi.

Qayta qurish jamiyat ijtimoiy-siyosiy tuzilishida ham o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. KPSSning jamiyat hayotida tutgan o'rni bushashdi, uning rahbarlik va raxnamolik roliga putur etdi. Bunday xol boshqa jamoat tashkilotlari, ayniqsa, yoshlar tashkilotlari, kasaba uyushmalariga ham taalluqli edi.

Qayta qurish oxir-oqibatda siyosiy jixatdan puch, natijasiz, besamara safsatabozlikdan boshqa narsa bo'lmay qoldi, tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan isloxotlarni oxirigacha etkazish mumkin bo'lmadi. Buning sabablari quyidagilardan iborat. Birinchidan, qayta qurishning aniq izchil, ilmiy jixatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Og'izda demokratiya, oshkoralik kabi shiorlardan foydalanilganiga qaramasdan, amalda partiya, siyosiy rahbariyat eski tasavvurlar gardobida edi, rahbarlikning demokratiyaga qarama-qarshi turuvchi buyruqbozlik-ma'muriyatchilik usullaridan foydalanishi davom etardi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi partokratik rahbariyat "nomenklatura"ni saqlab qolishdan manfaatdor edi, chunki mamlakatni boshqarish ma'muriy-buyruqbozlik

usuli orqali oson kechardi. Har qanday demokratiya, oshkoralik totalitar tuzumning kushandasi ekailigini ular anglar edilar.

Uchinchidan, M. Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emasdi. Sotsializmga xos mulkiy munosabatlar, ijtimoiy soxadagi siyosat, yakkapartiyaviy rahbarlik mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmas edi.

Shunday sharoitda qayta qurish xalqni chalg'itishdan boshqa narsa emasligi ayon bo'ldi. Natijada qayta qurish xalqning tobora siyosiy faollashuvi tufayli mag'lubiyatga uchradi.

1985-1990 yillar o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi, milliy ongining o'sishida juda muxim ahamiyatga ega. Qayta qurish siyosati jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida jiddiy sifat o'zgarishlarini amalga oshirmagan, jamiyatning yangi mazmun jixatdan yangilanishini ta'minlamagan bo'lsada, biroq uning natijasida o'ziga xos milliy uygonish yuz berdi.

Qayta qurish O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqea-xodisalarga jon kiritdi, jamiyat uyg'ondi, milliy o'zlik ustiga tashlangan pardalar olib tashlandi. 1985 yildan boshlangan jarayonlar eng avvalo mustaqillik to'g'risidagi g'oyalarning yana tiklanishi, shakllanishi uchun zamin yaratdi.

80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqelik xalq milliy ongining keskin ravishda o'sishi jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligini oshirib yubordi.

Mazkur davr ayni paytda jamiyat a'zolarining ruxiy biqlikdan milliy-an'anaviy asoslarga qaytish davri sifatida ham izoxlanadi. Milliy o'zlik milliy ongning o'sishi dastavval milliy tarix ma'naviyatni o'rganishga bo'lgan qiziqishning kuchayishida ko'rindi. Qayta qurish tufayli sodir bo'lgan ayrim erkinliklar, "temir parda"ning ko'tarilishi xalqimizning o'z tarixi, madaniyatini biroz bo'lsada, erkin o'rganishiga imkon yaratdi.

Avvalo, milliy-tarixiy merosimizni o'rganishga bo'lgan qiziqish o'sdi, u ijtimoiy extiyojga aylandi. Buning sabablari mavjud edi. Birinchidan, sovetlar hukmronligi davrida o'zbek milliy madaniyatini o'rganish turli yo'llar, siyosiy nayranglar bilan mumkin bo'lmadi, bunday harakat esa millatchilik sifatida baholandi.

Ikkinchidan, xalq mafkuraviy yakkahokimlik va siyosiy qo'rqitishlar tufayli milliy o'zligini anglash, milliy ongini o'stirishdan xadiksirardi. Shu tufayli ham 80-yillarning o'rtalarigacha xalqning milliy-an'anaviy asoslariga qaytishi amalda mumkin bo'lmadi.

80-yillar o'rtalaridan esa vaziyat o'zgardi. Diniy, millatchilik yorliqlari yopishtirilgan va o'rganilishi taqiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy voqea, xodisalar, allomalar faoliyatini tadqiq etishga biroz erkinlik berildi. Natijada islom dini, uning ahamiyati, sufiylik, tasavvuf masalalariga oydinlik kiritila boshlandi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi, jadidchilik harakati, oktyabr to'ntarishi, "boshmachilik" (istiqlolchilik), "Hujum" harakati, sovet davrining boshqa masalalari yangicha tafakkur asosida talqin etila boshlandi.

Mazkur davrda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Shayxzoda va boshqalarning millatchilikda, panislomizm va panturkizmga ayblanib, qatag'on

qilinganliklarining tub sabablari ochib tashlandi. 30-40-yillar va 50-yillar boshlarida siyosiy qatag'on qilinish qatl etilgan va qamoqlarga tashlangan xalqimizning asl farzandlari oqlandi. "Chig'atoy gurungi", "Milliy ittixod", "Milliy istiqlol", "Botir gapchilar" singari "aksilinqilobiy guruh"lar vakillari aslida madaniyatimiz va tariximizning etuk ziyolilari, millat gullari ekanliklari, istiqlol uchun jon fido qilganliklari ma'lum bo'ldi. Birgina 1937-1939 yillar orasida ichki ishlar xodimlari tomonidan qamoqda olinib otib tashlangan 6920 ta ziyolining qatag'on qismati o'rganildi, keyinchalik mamlakatimiz siyosiy rahbariyatining sa'y-harakatlari bilan ular oqlandilar.

O'zbekistonda 80-yillar o'rtalaridan boshlangan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy uyg'onish sovetlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy, aksilinsoniy tomonlarini ochib tashladi.

Ayni paytda ta'kidlash lozimki, hech qanday real, ilmiy asosga zga bo'lmagan qayta qurish "g'oya"si asosida amalga oshirishga harakat qilingan demokratiya siyosiy jixatdan cheklangan edi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, kommunistik mafkuraning yakkaxokimligi sharoitida demokratik tartiblarni o'rnatish, qonun ustuvorligiga erishish mumkin emasdi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va demokratiya xech qachon bir-birini e'tirof etmaydigan tushunchalar edi.

O'zbekistonning 1985-1991 yillardagi iqtisodiy xolati sovetlar hukmronligi davrining bevosita va mantiqiy davomini o'zida ifodaladi. Qayta qurish sovet jamiyatining uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan iqtisodiy muammolarini xalq etishni ko'zda tutgan edi. Biroq u iqtisodiyotdagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, turg'unlik xolati nihoyatda keskinlashgan vaziyatda davom etdi.

80-yillarning o'rtalariga kelib jamiyat iqtisodiy hayotida sustlashtirish mexanizmi to'la shakllanib bo'ldi.

Uning mohiyati mavjud ijtimoiy-siyosiy xolatda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtirish orqali kam harajatlar bilan qisqa muddatda iqtisodiyotni ko'tarishdan iborat edi. Ayni paytda asosiy mablag'ni texnik qayta qurish, harakatdagi korxonalarni modernizatsiya qilish uchun sarflash yangi qurilayotgan ob'ektlar uchun mablag' hajmini qisqartirish ko'zda tutildi.

Iqtisodiyotda qayta qurish 80-yillarning ikkinchi yarmidagi eng asosiy vazifa sanalardi. Biroq mamlakat xo'jalik tizimida turg'unlik og'ir moliyaviy ahvol mavjud vaziyatni zudlik bilan barqarorlashtirishni talab qildi. Shu maqsadda ayrim tashkiliy tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 1985 yil aprelidan so'ng ko'p o'tmay markaziy iqtisodiy organlarni qaytadan tuzish, bank tizimini qayta qurish, moliyaviy mexanizmning o'zgargan sharoitda moslashgan siyosatini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Qayta qurishning dastlabki davrida bunday siyosat yurgizishdan ko'zlangan asosiy maqsad uzoq yillar hukmronlik qilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etib, xo'jalik sohasida demokratik tartiblarni joriy qilish, deb aytilgan bo'lsada, ammo aslida buni bajarish imkoni bo'lmadi. Ayniqsa, qayta qurishning boshlanishida agropromlarning tashkil etilishi ijobiy natijaga olib kelmadi. Agropromlar qishloq xo'jaligida va unga bog'liq sanoat ishlab chiqarishida ma'muriy-buyruqbozlikni yanada avj oldirdi. Natijada qishloq xo'jaligiga

rahbarlikning bir usuli sifat jixatidan o'zgarishsiz qolgan ikkinchi usul bilan almashdi, xolos.

Shu bilan Markaz asosiy e'tiborni xalqning shijoati, "mafkuraviy sofliigi"ga qaratdi. To'g'ri, 80-yillar o'rtalarida xalq orasida jiddii qo'zg'alish, ruxiy-siyosiy ko'tarilish sodir bo'ldi. Biroq kuchli moliyaviy asosga, ilmiy asoslangan konsepsiyaga muxtojlik oqibatida xalq qayta qurishdan beza boshladi. Bularning barchasi keyinchalik uning salbiy oqibatlarini namoyon qildi.

Ittifoqdosh respubliklar orasida iqtisodiy soxada O'zbekistonning o'rni va roli nixoyatda katta va salmoqli ekani e'tiborga olinadigan bo'lsa, haqiqatdan ham unda juda ko'p imkoniyatlar boy berilganini qurish mumkin. Jumladan, ittifoqdosh respublikalar orasida o'zining ulkan moddiy-iqtisodiy imkoniyatlari, tabiiy boyliklari, intellektual kuchlari, mehnatsevar xalqi bilan ajralib turuvchi O'zbekiston uchun ma'muriy-buyruqbozlik yillari, xususan, turg'unlik davri juda katta yo'qotishlar davri bo'ldi.

1971-1985 yillarda xalq xo'jaligi reja topshiriqlarini muntazam bajarmasligi, mahalliy daromadning yillar davomida o'sish o'rniga tuxtovsiz pasayib borgani, oziq-ovqat dasturining bajarilmasligi, xalq iste'moli maxsulotlarining etishmasligi, xalqning turmush darajasi pasayib borgani, ijtimoiy soxada juda katta uzilishlar va taqchilliklar bo'lib kelgani-bularning barchasi ko'p darajada O'zbekistonning xo'jalik hayotini izdan chiqarishga, ijtimoiy-siyosiy tizimining beqarorlashuviga olib kelgani hech kimga sir emas.

Ana shunday inqirozli vaziyatda Islom Karimov maydonga chiqib, xalqimizni zulmdan ozod etishga, uning sha'ni va g'ururi, insoniy huquqlarini qayta tiklashga kirishdi.

2. Islom Karimov – O'zbekistonning yangi rahbari: tinchlik va barqarorlik yo'lidagi dastlabki qadamlar

Dunyodagi xalqlar va millatlarning ozodlik yo'lidagi kurashlar tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyat hayotidagi tub burilishlar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zi buyuk yo'l boshchilarni maydonga chiqaradi. Hindiston tarixida Maxatma Gandi, Amerika Qo'shma Shtatlari tarixida Jorj Vashington, Fransiya tarixida Sharl de-Goll, Turkiya tarixida Mustafo Kamol Otaturk ana shunday tarixiy missiyani o'z zimmasiga olib, ona xalqining milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilganini yaxshi bilamiz.

XX asrning 90-yillariga kelib O'zbekistonda xalqimizning asl farzandi Islom Karimov ana shunday o'ta og'ir va mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi. Buni nafaqat tarixiy hujjatlar balki, Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi har bir nutq va ma'ruza tasdiqlaydi.

Islom Karimov mamlakat rahbari sifatida hamma tomonidan yaxshi qabul qilingan edi: xalqqa ham, partnomenklaturaga ham, oppozitsiyaga ham ma'qul edi. Xalqqa ma'qulligi shundaki, u ko'pdan beri halol, aqilli, kuchli davlat rahbarini

kutardi. Partnomenklaturaga yoqqani shundaki, u hech bir guruhning vakili emas. Muxolifat esa u paytda hali kuchli etakchiga ega emasdi.¹

Islom Karimov 1989 yil 24 iyunda respublika rahbari sifatida ish boshlaganining ikkinchi kuni O'zbekiston Ministrlar Sovetida bo'lib o'tgan Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan kengashda so'zlagan nutqidayoq Islom Karimovdagi haqiqiy yo'l boshchilarga xos fazilatlar yorqin namoyon bo'ladi. Uning "Ishga bo'lgan, o'zimizga topshirilgan vazifaga nisbatan munosabatni, dunyoqarashimizni va umuman, mas'uliyatimizni o'zgartira olsakgina ishlarimiz yo'lga tushib ketadi. Aks holda, vaziyatni izdan chiqarishga intiladigan kuchlar yo meni chetga surib qo'yadi yoki juda ko'p rahbarlarni o'zgartirishga to'g'ri keladi"², degan so'zlari shunchaki so'z emas, balki qat'iy talab bo'lib yangraydi.

Holbuki, Islom Karimovga qadar respublikamizni boshqargan rahbarlar faoliyatida o'z xalqining emas, balki faqat mustabid Markazning irodasi, uning manfaatlari bosh mezon bo'lib kelgan edi. "KPSS Markaziy Komitetining mensimasligi va buyruqbozligi shu darajaga borib etdiki, Markaziy Komitet kotibi yoki viloyat komitetining birinchi kotibi haqida gapirmay qo'yaqolaylik, hatto, obkom kotibini tavsiya qilish uchun kelishib olishga yaqin-yaqingacha majbur bo'lib keldik. Kim bilan kelishardik deng? Qandaydir sektor mudiri yoki yo'riqchi bilan, uning xonasi oldida qabul qilishini kutib navbatda turardik. Barcha darajadagi partiya xodimlarining taqdiri shu kishilarga, KPSS Markaziy Komiteti apparatining oddiy amaldorlariga bog'liq bo'lib qolgandi.

Mogilnichenko, Bessarabov hamda ularning eng faoli Ponamarevni bir eslang. Ularning bu yerga kelishi qanday ta'riflangan edi? Bu butun bir voqea bo'lgan edi. Lekin ular o'zlaridan yaxshi xotira qoldirishmadi. Ular birinchi kotib xonasi eshigini chap oyog'i bilan ochib kirishardi. O'shanda plenumlarda qilingan barcha ma'ruzalarni, men shuni ochiq aytishim kerakki, avvaliga Ponamarev, Anishchev, Ogarok va ularning to'dasi tahrir qilardi, so'ng Usmonxo'jaev minbarga chiqib, ana shu tayyor narsalarni o'qishga tushardi. U ko'pincha ma'ruzada gap nima haqda borayotganini bilmagan holda o'qirdi.

Ana shu kishilarning xohish-irodasi bilan qanchadan-qancha odamlarning, shu jumladan, kommunistlarning, qanchadan-qancha rahbarlar va ularning oilalari taqdiri buzildi. O'zbekistonni hech qachon bilmagan, uning tili, madaniyati, bugungi kuni va o'tmishini bilmagan, umrida O'zbekistonni ko'rmagan bu odamlar uning faqat qullarcha ta'zim qilishini xohlashardi. Shunday kishilar siyosat yurgizishardi. Yuqorida o'tirganlarning hammasi ularning amaldorlari tayyorlagan qarorlargagina imzo chekishardi"³.

"Bo'sh-bayov, siyosiy irodadan mahrum, o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan kishilarning O'zbekiston kompartiyasi va respublika rahbariyatiga kelib qolishi avvalo shunga yordam berdi. Ularning aksariyati o'zlarining omon qolishlarini o'ylab, huquq muhofazasi organlari,

¹ Levitin L. Islom Karimov – yangi O'zbekiston prezidenti. T.: "O'zbekiston", 1996 yil, 9-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 33-bet.

³ O'sha manba, 385-386-betlar.

jumladan, Gdlyan va Ivanov guruhi yo‘l qo‘ygan qonunsizlik va qonun buzilishlarini payqamaslikka obdon urindilar”¹.

Ana shunday rahbarlarning bo‘sh-bayovligidan foydalanib, sobiq Markaz, O‘zbekistonning o‘zida ko‘plab malakali va salohiyatli kadrlar bo‘lishiga qaramasdan, SSSRning turli mintaqalaridan yurtimizga ishni bilmaydigan, faqat bu yerdagi imkoniyatlardan foydalanib, davru davron surishni o‘ylaydigan odamlarni yubora boshladi. Ular xalqimiz o‘rtasida “desantchi”lar deb nom oldi. “Boshqa mintaqalardan yuborilgan kadrlarning ba‘zilari respublika ehtiyojlari va kulfatlariga hamdard bo‘lish u yoqda tursin, balki partiya, sovet va huquqni muhofaza etish organlari va boshqa organlarda o‘zlarining rahbar lavozimlariga tayinlanishlarini o‘zboshimchalik qilish uchun berilgan yorliq, deb bildilar.

Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o‘lkaning o‘ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni ham istamagan bu odamlar respublika hayotini bosib-yanchib, qing‘ir o‘zanga solishga kirishdilar.

Xalqning ko‘p asrlik an‘analari, madaniyati, urf-odatlar va ma‘naviy qadriyatlarini mensimaslik elni juda ranjitdi.

...Xalqning urf-odatlar, an‘analari, madaniyati obdon oyoq osti qilindi, ona tilining qo‘llanish sohasi sun‘iy tarzda cheklab qo‘yildi. Hatto, shundoq ham milliy an‘analardan ancha olisda bo‘lgan ayrim san‘at turlari ham kimlargadir ma‘qul bo‘lmay qoldi va ularni yangilashga urindilar. Hatto milliy libos ham qoralandi. Kezi kelganda odamlar milliy an‘analar bo‘yicha to‘y qilish, qarindosh-urug‘larni dafn etishga ham cho‘chib qolgan edilar”².

Respublika rahbari sifatida ishtirok etgan birinchi majlisdayoq Islom Karimov o‘zining rahbarlik pozitsiyasini ochiq bayon etadi. Bu albatta zalda avvalo, boshqa hududlaridan O‘zbekistonga yuborilgan kimsalarni, qolaversa, eskicha ishlashga ko‘nikib qolgan akasariyat katta-kichik rahbarlar uchun go‘yo bulutsiz osmonda chaqmoq chaqnagandek ta‘sir qiladi.

XX asrning 80-yillari oxirlarida sobiq SSSRda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz jarayonlari kuchayib, betayinlik avj olib ketdi. O‘z navbatida necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to‘ldirgan muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzalarga, milliy nizolarga olib keldi.

Bunday salbiy holatlar, afsuski, O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. 1989 yilning may oyi oxirlari, iyunning boshlari butun Farg‘ona viloyati janjal va to‘polonlar alangasi ichida qolib ketdi. Dastlab 23 may kuni boshlangan fojia ikki kundan keyin Toshloq tumaniga, undan so‘ng esa Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlariga o‘tdi.

Aytish mumkinki, bunday fojialar, yurtimiz tarixida ilgari hech qachon yuz bermagan. Qadimdan o‘zining bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, mehr-shafqatlilik fazilatlar bilan shuhrat qozongan xalqimiz hech qachon birovga nisbatan adovatda bo‘lmagan, qo‘l ko‘tarmagan. Biroq, sobiq Ittifoqdagi buzg‘unchi kuchlar ta‘sirida ana shunday favqulodda kutilmagan fojia sodir etildi. Fojea sabablarini o‘rganuvchi Komissiya xulosasiga ko‘ra 103 kishi halok bo‘ldi, 1011 kishi

¹ O‘sha manba, 175-bet.

² O‘sha manba, 177-178-betlar.

jaroxatlandi yoki mayib bo'ldi, 757 ta uy yondirildi, 27 ta davlat muassasasiga shikast etkazildi, 275 ta avtotransportga o't qo'yildi.¹ Ommaviy chiqishlar va to'polonlarda o'ttiz mingga yaqin odam ishtirok etdi. Etkazilgan ziyon bir necha million so'mdan iborat bo'ldi.

Islom Karimov o'z rahbarligining birinchi ish kunidayoq Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi ahvolni muhokama qilish masalasini hukumat oldiga qat'iy vazifa qilib qo'yadi. Har qaysi viloyatdagi mas'ul shaxslardan aholining ijtimoiy yashash sharoitlari haqida hisobot berishni talab qiladi. Mas'uliyatli majlisga puxta tayyorgarlik bilan kelmagan mas'ul shaxslarga qarata "Men bugun nimani kutgan edim? Men har bir oblast bo'yicha aniq dasturlar haqida, ichki rezervlar hisobidan ishni to'g'ri tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish, qancha miqdorda, kim va qachon qo'shimcha xom ashyo ajratishi evaziga ahvolni yaxshilash imkoniyatlari to'g'risida amaliy gaplar bo'ladi, deb o'ylagan edim..."², deydi.

Islom Karimov nafaqat ishga, ayni paytda ming-minglab odamlar takdiriga bunday mensimasdan munosabatda bo'lishga mutlaqo toqat qilolmaydi. SHuning uchun ham majlis ishtirokchilarini ogohlantiradi: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yul qo'ymaydi"³.

Respublikamizning sobiq rahbari R.Nishonov Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan qonli to'qnashuvlarni xaspo'shlab, SSSR Oliy Soveti sessiyasi minbaridan "Bu - bir tarelka qulupnay ustida bo'lib o'tgan oddiy mojaro", deb butun dunyoni chalg'itgan, eng yomoni, Markazga yaxshi ko'rinish uchun o'z xalqining boshiga tushgan fojiani ataylabdan yashirib, uning manfaatlariga xiyonat qilgan edi.

KPSS Markaziy komiteti plenumida so'zga chiqar ekan, Islom Karimov O'zbekistondagi, jumladan, Farg'ona viloyatidagi so'nggi voqealar to'g'risida ayrim OAV e'lon qilgan maqolalarni tushunish qiyinligi, ko'p asrlik tariximiz, madaniyatimiz, an'alarimiz, urf-odatlarimiz va marosimlarimizni bilmagan, shuningdek, o'sha voqealarning sababchisi bo'lmish murakkab muammolardan bexabar qiziqqon, ba'zi hollarda esa kimlarningdir byurtmasini bajargan mualliflar butun bir halqning nomini badnom etib, uning yuziga loy chaplamoqda va o'zini oliy hakam deb hisoblamoqda, deb OAVning soxta shov-shuvlari asossiz ekanini dadil ochib tashlaydi.

1989 yilning 25 iyunida – respublika rahbari etib saylanganining uchinchi kuni Islom Karimov janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga bir o'zi hech qanday qo'riqchilarsiz kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan ohu nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib-intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar

¹ Qarang: Bozorov O. 1989 yildagi Farg'ona fojiasi: uning sabab va oqibatlari. Toshkent: Fan, 2010. 61-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 34-bet.

³ Batafsil qarang: O'sha manba, 32-45 betlar.

ko'radi. Voqea sabablarini qidiradi. Masala mohiyatini ochiq-oydin ko'rsatadi. Jumladan, u "ana shu fojining aybdorlarini himoya qilishga urinishlar ham asossizdir. Kim bo'lishidan, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, vahshiylik va odam o'ldirishda, o't qo'yish va to's-to'polon chiqarishda aybdor bo'lgan shaxslar jazoga tortilishi zarur va jazoga tortiladilar, toki o'zbek xalqining pok nomiga dog' tushirilishiga yo'l qo'yilmasin", deydi¹.

Respublika rahbarining bunday qat'iyati asossiz ta'na va bo'htonlardan ezilgan, turli tahdidlar oqibatida tahlikaga tushgan xalqning ruhini ko'tarib yubordi. Islom Karimov qonli voqealar haqidagi haqqoniy fikrlari bilan xalqimiz sha'niga otilgan malomat toshlari butunlay bo'hton ekanligini isbotlaydi. Ayni paytda vahshiylik qilgan, odam o'ldirgan, tartibsizliklarni keltirib chiqargan, uylarga o't qo'ygan, transport vositalarni yoqib yuborgan kimsalar o'zbek millatiga mansub emasligini, ularning hammasi ataylab tashkil etilganini yuqori sovet minbaridan turib jasurlik bilan aytdi.

Respublikada mavjud ijtimoiy vaziyatni nazarda tutgan O'zbekiston rahbari sodir bo'lgan voqealar yuzasidan o'zining pozitsiyasini ochiq-oydin bayon etadi.

Albatta, Islom Karimov respublika rahbari sifatida Farg'ona voqealarining sabab va oqibatlari haqidagi ma'lumotlar bilan o'z kabinetida o'tirib ham tanishishi, kerakli qarorlarni qabul qilishi mumkin edi. Ammo kabinetdan chiqmay ish yuritish prinsipi Islom Karimov uchun mutlaqo begona edi. U hayotning qaynoq nafasini bevosita his qilish, yaxshi-yomon kunlarda xalq bilan birga bo'lish, el-yurtning dardu quvonchiga doimo sherik bo'lishni o'zining hayotiy maslagi, oliy insoniy burch deb bildi.

Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fojia hisobidan obro' topish, o'zining g'arazli manfaatlariga erishishga, xalqimizni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fojia oqibatlarini bartaraf etishning amaliy echimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi. Jumladan, I. Karimov Toshkentda va Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdagi chiqishlarida bu masalada qat'iy pozitsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi: "O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix, albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalminalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan"². Bunday haqqoniy va haroratli so'zlar el-yurtimizning dardiga darmon bo'ldi, uning tuhmat va malomatlardan egilgan ruhini ko'tardi.

Ana shunday tarixiy misollar asosida aytish mumkinki, Islom Karimovning barcha muammolar haqida – ular qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin – ochiq

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 53-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 52-53-betlar.

gapirishi, hamisha haqiqatning ko'ziga tik qarashi unga nisbatan xalqimizning e'tirofi va ehtiromini uyg'otdi.

O'z xalqini bunday og'ir kulfatlardan, ta'nayu malomatlardan xalos etish, uning ozod va mustaqil hayotini ta'minlashni o'zining bosh maqsadi, faoliyatining asosiy ma'no-mazmuni deb bilgan Islom Karimov bo'lib o'tgan janjal-to'polonlarning sababini quyidagi masalalar bilan bog'liq holda talqin etadi:

1. Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

2. Odamlarning ta'minoti, daromadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haddan tashqari pastligi tufayli bunday holat O'zbekistonning boshqa joylarida ham sodir bo'lishi mumkinligi.

3. Ishsizlik, ishchi o'rinlarining kamligi, ya'ni ortiqcha ishchi kuchining ko'payib borishi.

4. Yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasi jiddiy o'ylab ko'rilmagani kabi sabablar.

Keyinchalik aniq tarixiy dalillar asosida ma'lum bo'ldiki, ana shu tartibsizliklarga, xalqimiz yurtimiz manfaatlariga mutloqo zid bo'lgan harakatlarga milliy kiyimlarni kiyib olgan, aslida boshqa millatlarga mansub bo'lgan, maxsus tayyorgarlik bilan ko'chaga chiqarilgan kishilar tashkilotchilik qilishgan, ular tinch aholini qo'zg'ab, janjal chiqarishga da'vat etgan. Ular mesxeti turklari va boshqa millat vakillariga qarshi ig'vo va bo'hton gaplarni tarqatib, sodda olamonni g'alayonga keltirishga uringan va ba'zi holatlarda bunday yovuz niyatlarini amalga oshirishga erishgan ham.

Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish har qanday ko'p millatli jamiyatda o'tish davrining hal qiluvchi masalasi, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashning eng muhim omili sifatida kun tartibiga chiqadi. Bunday paytda davlat faqat adolat kuchiga tayanib, milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat'i nazar, mamlakat fuqarolarining huquq va manfaatlarini birdek himoya qila olgandagina bu masala ijobiy hal etiladi. Buni O'zbekiston misolida yaqqol qo'rish mumkin. O'zbekistonda milliy va millatlararo munosabatlarga ana shunday oqilona yondashildi. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarida og'ir siyosiy bo'hronlar, iqtisodiy tangliklar, ma'naviy-ruhiy parokandalikning, keskin ijtimoiy-siyosiy larzalarining oldi olindi.

O'tish davrida barcha ziddiyatlarni, qiyinchiliklarni ichki iroda va ichki madaniyat bilan eng olishga qodir bo'lgan fuqarolarni shakllantirish, ularning g'oyaviy-mafkuraviy birligini ta'minlashga erishish taqozo etiladi. Shuning uchun O'zbekistonda ana shu vaqtdan e'tiboran millatlararo munosabatlar davlat siyosatining muhim bo'g'iniga aylandi.

Turli siyosiy bo'hronlar va iqtisodiy tangliklar mavjud bo'lgan bir paytda har xil qarashdagi odamlarning, diniy munosabatlari va milliy xususiyatlaridan qat'i nazar, mamlakat fuqarosi sifatidagi yaxlitligini, kundalik turmush ehtiyojlarini ijtimoiy adolat yuzasidan teng ravishda qondirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning butun mohiyat-mazmunini, samarasi va miqyosini belgilaydi. Ayni ana shu jihatlar hisobga olingan taqdirdagina u o'z samarasini beradi. Millatlarni ularning milliy

xususiyatlaridan qat'i nazar, umumiy taqdir va umumiy istiqbol tushunchasi yaqinlashtiradi, birlashtiradi.

Millatlararo munosabatlar – bu ijtimoiy hodisa. Chunki har qaysi millat vakili ijtimoiy barqarorlikdan, ijtimoiy ta'minotdan haqli ravishda manfaatdor bo'lishga doimiy intiladi. Millatidan qat'i nazar, har qaysi inson fuqaro sifatida o'z mamlakatidagi barcha imkoniyatlardan, ne'matlardan foydalanishga haqli. Ijtimoiy munosabatlar jamiyat yangilanayotgan bir paytda eskicha qarashlar iskanjasidan xalos bo'lishi lozim. Olamni yangicha idrok qilish orqali uning mohiyatini anglash jarayonida dunyoqarashlar yaqinligiga, aniqrog'i dunyoqarashlar uyg'unligiga erishish ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir.

Millatlararo munosabatlar – bu ma'naviy-axloqiy hodisa. Chunki millat o'zini anglash, o'zini tiklash jarayonida milliy xudbinlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Millat uyg'onish jarayonini boshidan kechirayotgan bir paytda o'z milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilishi lozim. Ayni ana shu qadriyatlar millatning millat sifatida o'zini anglashidan oldin insonning inson sifatida o'zini anglashini ustun qo'yishiga olib keladi.

Birinchi Prezident Islom Karimovning rahbarlik faoliyatiga xos bo'lgan g'oyat e'tiborli va ibratli bir fazilat borki, u ham bo'lsa, millatlararo hamkorlik va hamjihatlik masalasiga doimo ustuvor ahamiyat berib kelayotganidir. Bu o'z navbatida yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni, jamiyatimiz hayotida o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

1991 yil 19 avgust kuni Moskvada bir guruh avantyuristlar amaldagi prezident M. Gorbachevni rahbarlikdan chetlashtirib, Favqulodda holat davlat komiteti (GKChP)ni tuzadi. GKChP rahbarlarining asosiy maqsadi mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta'qiblarni kuchaytirib, tobora zaiflashib borayotgan qizil imperiyani saqlab qolishdan iborat edi.

Islom Karimov bu paytda Hindistonda safarda edi. GKChP e'lon qilinganini Agrada eshitib, zudlik bilan Toshkentga qaytadi. 1991 yil 19 avgust kuni kechqurun safardan qaytib kelganimda, deb eslaydi Birinchi Prezident Islom Karimov, "Milliy armiyamiz — mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir" nomli asarida, meni Toshkent aeroportida birinchilar qatorida Turkiston harbiy okrugi qo'mondonlari va Moskva yo'llagan bir necha generallar kutib oldi.

Agarki, xayolan o'sha damlarga qaytib, o'sha vaziyatni bir so'z bilan ifoda qilib aytadigan bo'lsak, aeroportning o'zidayoq qandaydir bir keskinlik, tahlika va xavf-xatar nafasi havoda kezib yurgandek tuyulardi.¹

Aeroportdan to'g'ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a'zolari bilan uchrashadi hamda O'zbekiston SSR hududida GKChPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma beradi. 1991 yil 20 avgust kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosati, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis

¹ Karimov I.A. Milliy armiyamiz — mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. — T.: "O'zbekiston", 2003. 15-16-betlar.

o'tkazildi. Majlisda so'zga chiqqan Islom Karimov SSSRda yuzaga kelgan vaziyatga, Favqulodda holat davlat qo'mitasi va uning rahbarlari qabul qilgan qarorlarga O'zbekiston rahbariyatining munosabatini aniq-ravshan bayon qildi. O'sha kuniyoq O'zbekiston SSR Prezidentining respublika aholisiga murojaati e'lon qilindi. Unda, jumladan, bu sinovlar, noaniq davr va sharoitdan avvalambor aql va idrokimizni bir joyga yig'ib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz, markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan, maqsadlarimizdan qaytmasligimiz alohida ta'kidlanadi.¹

“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobidan bunday misollarni ko'plab uchratish mumkin.

Yana bir misol. 1991 yilning 9 dekabrda Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi (hozirgi viloyat hokimiyati) binosini egallab olib, O'zbekistonni islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishadi va respublika rahbari bilan uchrashuvni talab qilishadi.

Bu harakat a'zolari hukumat vakillariga quyidagi talablarni ilgari suradi:

1. Dunyoviy tuzumdan voz kechish va O'zbekistonni islomiy davlat deb e'lon qilish.

2. Dunyoviy qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish.

3. Dunyoviy maktablarni berkitish va o'g'il bolalar hamda qiz bolalar alohida o'qitiladigan maktablar ochish.

4. Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishlarini joriy etish.

5. Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassasalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hokazolar².

Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida ertasi kuni tongda Namanganga etib keladi va ongi aqidatparastlik g'oyalari bilan zaharlangan, jazavaga tushib, qora kuchga aylangan johil olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o'zi hech ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib bordi.

Islom Karimovning qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqir-chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo'yadi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, ular talab qilayotgan yo'l qonunga mutlaqo zid ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtiradi, o'zining salobati va irodasi bilan guvillab yotgan olomonning shashtini so'ndirishga, behuda qon to'kilishining oldini olishga muvaffaq bo'ladi.

Terroristik usullarni keng qo'llagan, mamlakat hayotini izdan chiqarish va shu orqali davlatni kuchsizlantirish yo'lini tanlagan radikallar 1992 yil bahorida o'zlarining yovuz basharasini yana bir bor namoyish qilib, rasmiy hokimiyatning bir necha vakillarini garovga olishadi. Keyinchalik Tojikiston va Afg'oniston hududidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan bu kuchlar mazkur mamlakatlardagi harbiy lagerlarda tayyorgarlikdan o'tib, O'zbekiston hududida ham bir qator terroristik jinoyatlarni sodir etdi.

¹ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil, 23-24-betlar.

² Azizxo'jaev A. Chin o'zbek ishi. – T.: “O'zbekiston”, 2011. – 190–191-betlar.

Yuqorida zikr etilganidek, dunyodagi bebaho boylik bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni ko'z qorachig'idek asrash masalasi mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning faoliyatida doimo eng muhim, eng ustuvor yo'nalish bo'lib kelmoqda. Buni har xil buzg'unchi kuchlar, diniy va dunyoviy niqobdagi radikal oqimlar bosh ko'targan o'sha notinch davrda, Islom Karimovning chuqur iztirob bilan o'rtanib, 1992 yil 4 yanvar kuni Oliy Kengashning 9-sessiyasi minbaridan turib xalqqa qilgan murojaatidagi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ushbu so'zlar yaqqol tasdiqlaydi:

...Nima kerak bo'lsa, ayting, hammasini qilib beramiz. Lekin, aziz onalar, opa-singillar, otaxonlar, do'stlar, ukajonlar, men Prezident bo'lsam ham sizdan tiz cho'kib so'rayman, iltimos qilaman: shu masalada yordam qiling!

Axir, Qur'oni karim ham do'stlikka, birodarlikka chaqiradi, nizo chiqarishni qoralaydi.

Janjal chiqqan yurtdan xudo ham yuz o'girar ekan. Shu sabab baraka ham, rizq-ro'z ham nasiya bo'lib qolarkan!"¹.

O'zbekistonning butun tarixi xalqning mustaqillik uchun doimiy va tinimsiz intilishidan guvohlik beradi. Milliy ozodlik harakatlari, XIX asr oxirlari va XX asrning 30-yillarigacha bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar buning yaqqol ko'rinishlari deyish mumkin. Ular xalqimizning ozodlik yo'lidagi kurashlari hech qachon to'xtab qolmaganini ko'rsatadi.

Hayratli jihati shundaki, mustabid tuzumning butun kirdikorlarini Islom Karimov aniq dalil va raqamlar bilan ochib tashlaydi. Islom Karimovga qadar hech kim O'zbekistondagi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz haqida, uning tub ildizlari to'g'risida shu qadar katta jasorat bilan gapirmagan edi.

Islom Karimov respublikamiz rahbari sifatida ish boshlagan paytda O'zbekistondagi vaziyat o'ta keskin tus olgan edi. Avvalo, Farg'ona vodiysidagi janjal-to'polonlar olovi hali so'nib ulgurmagan, qishloqlar, shaharlar o't ichida qolgan, qashshoqlik, quruq va'dalar joniga tekkan odamlar mahalliy hokimiyatga ham, markaziy hokimiyat idoralariga ham ishonmay qo'ygan edi. Katalakdek hovlilarda besh-oltitalab xonadonlar tiqilib yashashga majbur edi.

Paxta yakkahokimligi misli ko'rilmagan darajaga etgani bois odamlarga tomorqa yerlari berilmas, ularning qo'shimcha daromad manbai deyarli yo'q edi. Buning ustiga, "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" degan soxta kompaniyalar tufayli qanchadan-qancha begunoh odamlar qamaldi, tergov jarayonlarida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kulfatlarga duchor qilindi.

Respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha daraja dan ham ancha orqada bo'lib, O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 120-rinda, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past edi.²

Daromad darajasi jihatidan, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan birida edik.

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil. – 20–21-betlar.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 167-bet.

Masalan, 1989 yilgi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, birgina go'sht va go'sht maxsulotlari iste'moli O'zbekiston aholisi jon boshiga 31 kg dan, Ittifoqda esa ko'rsatgich 67 kg dan to'g'ri kelardi. Umuman o'sha paytda respublikamiz aholisining asosiy ozuqaviy birligi non va un maxsulotlari bo'lib qolayotgan edi.¹

“Paxta yakkahokimligi, ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzilganligi, yerning tinkamadori qurib ketganligi, suv manbalarining imkoniyatlari tobora kamayib borganligi qishloq xo'jaligiga halokatli ta'sir ko'rsatdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi”², degan edi I. Karimov.

90-yillarga yaqin ijtimoiy portlash darajasiga etgan bunday og'ir muammolar haqida birinchi marta Islom Karimov ochiq gapirib, ularni hal etish masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'ydi, 8-10 yil mobaynida o'zbeklar va O'zbekiston boshiga ag'darilib kelingan malomatni yuvib tashlashga qat'iy axd qildi, xalqimiz hamda davlatchilik siyosatimiz tarixini, hozirini qadrlash, hamda O'zbekistonni tom ma'noda mustaqil mamlakat sifatida tan oldirish vazifasini bajarishga kirishdi.

3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va iqtisodiyotni tubdan isloh etish borasida yurt rahbari sifatida ish boshlagan Islom Karimovning sa'y-harakatlari

80-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O'zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og'irlashtirib, uni ko'plab muammolar iskanjasiga solib qo'ydi.

Ma'lumotlarga ko'ra 1913-1970 yillarda respublikamizda aholining tabiiy ko'payishi sobiq Ittifoq aholisining ko'payishidan 2 barobar yuqori bo'lgan.³ 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi 4,5 mln.ga ko'paygan, yillik o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil etgan. O'sha davrda sobiq SSSRning aholi ko'payish sur'atlariga nisbatan 2,2 marta ortiq edi.⁴

Aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmaganligi tufayli odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishi kuzatildi.

Respublika iqtisodiyotining biryozlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Qishloq xo'jaligi xomashyosining talaygina hajmi (paxta tolasi, xom ipak va boshqa ko'pgina xomashyo mahsulotlari) respublikadan olib ketilgan bir

¹ Asanov G, Nabixonov M, Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1994. 56-bet.

² Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil, 172-bet.

³ Akromov Z, Musaev P. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi: Maktablarning 9-sinfi uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1993. 17-bet.

⁴ Asanov G, Nabixonov M, Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug'rofiyasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1994. 23-24-betlar.

vaqtda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot chetdan olib kelinar, O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beruvchi elektronika, asbobsozlik, radiotexnika, murakkab ro'zg'or texnikasi ishlab chiqarish kabi va boshqa ko'pgina ilg'or tarmoqlar qoniqarli rivojlantirilmagan edi.¹

Ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi shundaki, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi.² Vaholanki, 1990 yilda aholining 59,2 foizi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.³

Bu davrda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.⁴

Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi o'z navbatida aholining turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatib, yashash sharoitlarining og'irlashuviga sabab bo'ldi. O'sha davrda kun kechirish uchun oyiga o'rta hisobda kamida 85 so'm zarur bo'lgani holda, 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi Ittifoq bo'yicha 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, O'zbekistonda 45 foizga etgan, ya'ni 8 million 800 ming kishini tashkil etgan. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidani keladigan ishni topa olmagan, ya'ni ishsiz bo'lgan.⁵

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lib, maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmaganini ko'rsatadi.

Bunday og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarning tobora kuchayib borishi;

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 48-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 49-bet.

³ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. Tuzuvchi To'xliov N. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 1998. 19-bet.

⁴ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 167-bet.

⁵ O'sha joyda.

- respublikaga asosan xomashyo bazasi, Sobiq Markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarining mo‘may xomashyo manbai sifatida qarab kelinishi;

- o‘lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba‘zan etarlicha, ba‘zan mutlaqo baho berilmagani, ba‘zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

- iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O‘zbekistonning mavqei va o‘rnini o‘zgartirishning muqobil yo‘llari e‘tiborga olinmagani.

Mustaqillikka erishish ostonasida odamlarning ta‘minoti, daromadi, ularning yashashi uchun zarur bo‘lgan kundalik mahsulotlarning eng kam miqdori, ortiqcha ishchi kuchining bandligi kabi masalalardagi mavjud ahvol og‘ir bo‘lgan. Yildan-yilga tobora keskinlashib kelayotgan asosiy ijtimoiy muammo – bu aholi o‘rtasida ishsizlar sonining jadal ravishda o‘sib borishi edi. Sobiq Ittifoq rahbarlari respublikadagi bu muammoga e‘tibor qaratmas, ayniqsa, qishloq joylardagi ishsizlik odamlarning tinka-madorini quritib borardi.

Mustaqillikka erishish ostonasida mahalliy organlar rahbarlari jon boshiga qancha daromad to‘g‘ri kelishi va umuman, odamlarning qanday hayot kechirayotgani, bundan keyin shunday past daromadlar bilan yashash mumkin emasligini bilmagan. 1988 yilda jamoa xo‘jaligi a‘zosining bir oylik ish haqi Ittifoq bo‘yicha 181,8 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich RSFSRda – 200,4 so‘mga, Estoniyada – 304,9 so‘mga va O‘zbekistonda – 149,6 so‘mga teng bo‘lgan.¹

Mamlakatimiz rahbari o‘sha davrda vujudga kelgan ahvoldan chiqish yo‘li sifatida quyidagilarni belgilab berdi:

- ishlarning ahvoliga xolis baho berish, respublikadagi vaziyatni sog‘lomlashtirishning konkret va aniq-puxta dasturini ishlab chiqish;

- hayotning barcha sohalarida qat‘iy tartib va intizom o‘rnatish, rahbar kadrlarni joy-joyiga to‘g‘ri qo‘yish, ularga nisbatan talabchanlikni oshirish.

Respublikamizdagi vaziyatni chinakamiga o‘nglash, yurtdoshlarimizning hayotga qarashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun yana bir jiddiy muammoni xal qilish zarur edi. O‘sha davrda respublika qishloqlarida yeri yo‘q oilalar soni 240 ming nafarni, uy-joy qurilishi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun kengaytirishga muhtoj hovlilar soni 1,8 milliondan ko‘proqni, poytaxt Toshkent shahrida yer uchastkasi olish uchun navbatda turgan oilalar soni 92 ming nafarni tashkil etgan.²

Fuqaro hokimiyatdan kutayotgan eng asosiy narsa - har bir odamning ishga, uy-joyiga ega bo‘lishi, oziq-ovqat, kiyim-kechak, normal turmush va dam olish, farzandlarni tarbiyalash uchun mablag‘ ishlab topa olishi bilan bog‘liq edi.

Yurtimizda 1989 yil 17 avgustda “Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida” qaror qabul qilinib, qishloqda yashovchi har bir

¹ Shamsutdinov R. va boshqalar. Vatan tarixi (Uchinchi kitob); –T.: “Sharq”, 2010. 425-bet.

² Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil, 57-bet.

kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutildi.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989–1990 yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi.

Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda ilgari har bir oilaga 12 sotix yer to'g'ri kelgan bo'lsa, 1991 yilning boshida bu raqam 17 sotixni tashkil etdi.¹

Masalaga ana shunday oqilona yondashuv tufayli O'zbekiston bo'yicha ming-minglab odamlar uy-joyli, ishli bo'ldi, bozorlarda mahsulot ko'payib, narx-navo arzonlashdi, eng muhimi, ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotining 26 foizi, shu jumladan, go'shtning 49 foizi, sutning 65 foizi, junning 66 foizi va sabzavotning 43 foizi shaxsiy tomorqalarda etishtirildi.²

Bundan tashqari, paxta etishtirish rejasi 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu – paxta yakkaxokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi.

Birinchi Prezident I. Karimov qishloq joylarda aholi uchun tomorqa yerlar ajratish tadbiri orqali quyidashi muammolarni hal etgandi:

Birinchidan, oziq-ovqat dasturini bajarishda samaradorlik ortdi. SHaxsiy xo'jalikdagi yerning bir gektari jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt barobar ko'p samara berardi.

Ikkinchidan, bu qaror uy-joy dasturini hal etishga yordam berdi.

Uchinchidan, mazkur qaror ishsizlik muammosini hal etishda qo'l keladi.

To'rtinchidan, ayollarning ish bilan bandligi muammosini hal etish imkoni tug'ildi.

Beshinchidan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masalasi hal etildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shunga o'xshash tadbirlarning hammasi respublika aholisiga, eng avvalo, qishloq ahliga juda ma'qul bo'ldi. Darhaqiqat, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar uchun va yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun berilayotgan yerning ko'paytirilishi, shu maqsadda ssudalar hajmi va qurilish materiallarini sotishning ko'payishi shunday tadbirlar sirasiga kiradi.

Qishloq aholisini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash respublika dasturini amalga oshirish uchun birinchi navbatda mablag' va moddiy resurslarni sarflash haqida hukumat qarori qabul qilindi. Qaror natijasida 1990 yildayoq 2 ming 200 kilometrlik suv va 3 ming kilometrga yaqin gaz tarmoqlari ishga tushdi. Bu esa yana 270 ming aholini ichimlik suvi bilan, 120 ming oilani esa gaz bilan ta'minlash imkonini berdi.³

Shuningdek, aholining, eng avvalo nochorlar, nogironlar, o'quvchi va studentlar, ko'p bolali oilalar va boshqa daromadi kam odamlarni ijtimoiy himoyalash uchun respublika hukumati maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorda aholining narx-navo oshishi munosabati bilan ko'radigan zararini qoplash ko'zda

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 314-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 314-bet.

³ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 321-bet.

tutilgan edi. Bundan tashqari, milliy xususiyatlarimiz va mintaqamizning o'ziga xos shart-sharoitlari ham hisobga olindi.

Respublikada un, non va makaron mahsulotlarining narxini oshirmaslik, aholining ayrim tabaqalari uchun shahar transportidan bepul foydalanish kabi tadbirlar o'z kuchida qolishi belgilab qo'yildi.

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilayotgani Prezidentimizning mustaqillikka erishish ostonasida turgan kezlارimizdayoq bunday siyosatning tamal toshi qo'ygani natijasi ekanini qayd etish lozim.

1990 yili O'zbekistonda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlangani respublikadan tashqaridagi ko'plab mutaxassis va siyosatchilarda qiziqish uyg'otdi. Respublikamiz rahbari o'ziga xos murakkab sharoitlarda erishilayotgan muvaffaqiyatlarning sababini o'ylab qo'yilgan rejalarni qat'iyat va izchillik bilan ado etishda, deb ko'rsatib berdi. Respublikadagi rahbar kadrlarning amaliy harakat qilishi, ayniqsa, "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmag" degan qoidaga amal qilinishi hokimiyatda bo'shliq paydo bo'lishining oldini oldi.

Prezidentimiz "Komsomolskaya pravda" gazetasi muxbiri savollariga bergan javobida birinchi marotaba sovetlarning yuksak minbaridan O'zbekistonda 9 milliondan ziyod kishi bechorahol kun ko'rayotganini, aholining 47 foizga yaqinini alohida shart-sharoitga muhtoj bolalar tashkil etishini, respublikada o'lim ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha juda yuqori darajada bo'lib qolayotgani to'g'risidagi haqiqatni aytgani, bu esa odamlar o'rtasida yangi rahbarga nisbatan ishonch tuyg'usini mustahkamlaganini ta'kidladi.¹

Respublikamiz rahbari o'z vazifasini boshlagan davrdan paxta yakkahokimligi va respublikamizning deyarli butun aholisi manfaatlari va farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi muammo – paxta narxini qayta ko'rib chiqish masalasini o'z mas'uliyatiga oldi.

Biroq, o'sha davrda sobiq Ittifoq rahbariyati Prezidentimizning o'z xalqi manfaatini o'ylab qilayotgan bu kabi haqli talablarga quloq solishni istamas edi. Bu borada yurboshimizning "Men uzil-kesil qilib: paxta etishtirishni 700 ming tonna qisqartiramiz, dedim. Bu 250300 ming gektar yer, degan gap. Ittifoq mahkamalarida, Davlat plan komitetida masalani siz nimani istasangiz, yozib qo'yavering, men baribir bajarmayman, degan qabilda o'rtaga qo'ydim. Biz so'nggi nuqtaga o'tganimizni tushunishganidan keyin bu masalalarni echishga yordam berisha boshlashdi. 165 ming gektar maydon odamlarga bo'lib berildi, dehqonlarning tomorqalari qariyb ikki barobar ko'paydi. Odamlarda qiziqish paydo bo'ldi"² degan so'zlari bu boradagi har bir jarayonning o'ta ziddiyatli, qizg'in va tortishuvlar asosida o'tganidan darak beradi.

O'sha davrda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan kiyim-kechaklarning 25 foizi, trikotaj buyumlar va ip gazlamaning 30 foizdan ko'prog'i, poyafzalning deyarli 50 foizi chetdan keltirilardi³ edi. Prezidentimiz o'z faoliyati boshidanoq

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 288-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 288-289-betlar.

³ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 196-bet.

respublikamizning xalq iste'moli mollari jihatidan bunday qaramligini tugatish uchun sharoitlarni yaratishga katta e'tibor qaratdi.

O'zbekistonning suveren davlatchilik sari ana shunday bosqichma-bosqich intilib borishiga qaramay, Ittifoq idoralarining son-sanoqsiz nizomlari va yo'l-yo'riqlari respublikaning biron-bir iqtisodiy masalani mustaqil hal etish imkonini bermas edi. Bunday umrini o'tab bo'lgan huquqiy qoida va nizomlarga ko'r-ko'rona itoat qilinishi esa yangidan-yangi ijtimoiy mojarolarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

Shunga ko'ra, Prezident Farmoniga binoan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida xomashyo va engil sanoat mahsulotlari ta'minoti hamda ularni sotish bosh boshqarmasi hamda Tashqi savdo va xorijiy mamlakatlar bilan aloqa davlat komiteti tashkil etildi. Chunki, oltita Ittifoq va respublika tashkiloti mavjud bo'lishiga qaramay, engil sanoat xomashyosini taqsimlash va realizatsiya qilishni muvofiqlashtirishga erishilmadi, qimmatbaho xomashyolarning harakati nazorat qilinmadi. Buning oqibatida paxta tolasi va qorako'lning 90 foizi, tabiiy junning 71 foizi, sintetik tolaning 93 foizi, pilla va charmning anchagina qismi arziyas narxlarda respublikadan olib ketilaverdi.¹ O'zimizdagi aksariyat korxonalarga xomashyo etishmas, bizdan olib ketilgan resurslardan tayyorlangan mollarni esa respublika boshqa mintaqalardan va chet ellardan uch hissa ortiq narx bilan sotib olishga majbur edi. Bularning barchasi iqtisodiy sohadagi chidab bo'lmas adolatsizlik edi.

30-yillardan boshlab O'zbekiston oldiga qo'yilgan sobiq Ittifoqning paxta sohasidagi mustaqilligini ta'minlash vazifasi katta mashaqqat bilan hal qilingach, natijada vujudga kelgan paxta yakkahokimligi qishloq xo'jaligining tub maqsadlariga xilof ravishda yuqoridan zo'rlab o'tkazib kelindi.

Paxta yakkahokimligi respublika iqtisodiyotining biryoqlama rivojlanib, Ittifoqning xomashyo bazasiga aylanib qolishiga olib keldi. Natijada O'zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan o'z ehtiyojining yarmini ham qondirishga qodir bo'lmay qoldi. Etishtirilgan paxtaning atigi 7 foizi respublikada qayta ishlandi. Bir qancha viloyat va tumanlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75-80 foizni tashkil qildi. Oqibatda asrlar davomida chetga don, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chiqargan mintaqa bunday mahsulotlarning yirik iste'mol qiluvchisiga aylandi.

Islom Karimov rahbarligida boshlangan islohotlar tufayli bir-ikki yilda ahvol asta-sekin o'nglandi, paxta maydonlari qisqardi (1987 yilda 2 million 108 ming gektar yerga chigit ekilgan bo'lsa, 1990 yilda 1 million 826 ming gektar yerda paxta yetishtirildi). Sug'oriladigan yerlarni paxtadan bo'shatib olish jamoa va davlat xo'jaligi hududlarida tomorqa uchastkalarini kengaytirish va yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer ajratib berish kabi katta ijtimoiy masalani qisman hal etish imkonini berdi. Shunisi diqqatga sazovorki, paxta hosildorligining ortishi (hektar hisobiga 23,1 sentnerdan 27,7 sentnerga etishi) tufayli yalpi paxta etishtirish kamaymadi. Paxtachilik bundan buyon ham qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 240-bet.

bo‘lib qolaveradi, lekin paxta yakkahokimligiga qaytilmaydi¹ deb, bu soha istiqbolini belgilab olindi.

Prezidentimiz o‘z rahbarlik faoliyatini boshlagan paytda respublikadagi ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta‘siri yotishini, shunga ko‘ra ularni hal etishning yagona to‘g‘ri yo‘li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat‘iy belgilab berdi. Jumladan, ushbu jarayonning maqsadga muvofiq tarzda, samarali va eng muhimi, aholi turmush darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan holda amalga oshishga alohida e‘tibor qaratildi.

Ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi o‘z umrini o‘tab, bozor munosabatlariga o‘tish harakatlari endigina ro‘y berayotgan bir davrda, respublika Oliy Kengashining sessiyasida tasdiqlangan bozor munosabatlariga o‘tishning dasturi O‘zbekistonni konservatorlar respublikasi deb noo‘rin tanqid qilinishiga sabab bo‘ldi. Bunga javoban, respublikamiz rahbari jamiyat taraqqiyotidagi “sakrash”larning salbiy jihatlari, xususan, O‘zbekistondagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inqilobiy o‘zgarishlar turli xavf-xatarlar bilan bog‘liqligi, umuman “sakrab o‘tish” g‘oyasi esa respublika uchun og‘ir, halokatli oqibatlariga sabab bo‘lishini asoslab berdi. Shu bilan birga, boshqa respublikalarda xususiylashtirish to‘g‘risida gap sotilayotganda, aynan muholiflar tomonidan o‘rinsiz tanqid qilinayotgan “konservatorlar respublikasi”da birinchilardan bo‘lib xususiy korxonalar paydo bo‘ldi.

I. Karimovni O‘zbekistonning haqiqiy iqtisodiy mustaqilligi masalasi qattiq tashvishga solib, o‘ylantirar edi. Agar respublika iqtisodiy quvvatini tashkil etadigan barcha asosiy fondlar o‘sha davrda 100 milliard so‘m deb hisoblansa, amal qilayotgan tartibga ko‘ra, qariyb 30 milliard so‘m pul Ittifoq ixtiyorida edi. Ishlab chiqarishning asosiy fondlarida esa bu mutanosiblik yanada yomon bo‘lib, mablag‘larning beshdan ikki qismi Ittifoq tasarrufida, shu jumladan, sanoatda ana shu mablag‘larning deyarli 70 foizi, transportda hamda moddiy-texnik ta‘minotda, ilm-fanda 30 foizga yaqini Ittifoqqa tegishli edi.²

Bundan ko‘rinadiki, Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan barcha davlat mulki (bu hamma asosiy fondlarning deyarli 90 foizini tashkil etadi) “Butun sovet xalqiga tegishlidir” degan qoida hech qanday real asosga ega emas edi. Respublikamiz o‘z boyliklarini o‘zi tasarruf eta olmas ekan, undan xalq manfaati yo‘lida, samarali foydalanish haqida umuman gap bo‘lishi mumkin emasdi.

Shunga ko‘ra, respublika Oliy Sovetining doimiy komissiyalarida O‘zbekistonning butun tarixi davomida birinchi marta Mulkchilik to‘g‘risidagi qonunni tayyorlashga kirishildi. Bunda quyidagi masalalar eng muhim deb topildi:

Birinchi: respublika mulki mustaqil va u federatsiyadan ajratilgan.

Ikkinchi: o‘lkamiz zamini, yer osti boyliklari, korxona va tashkilotlari O‘zbekistonning mutlaqo o‘z mulki hisoblanadi. Ana shu boyliklar

¹ Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil, 303-bet.

² Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil, 236-237-betlar.

mustaqilligimizni, respublikamizning madaniy va tarixiy qadriyatlarini ta'minlaydi.

Uchinchi: O'zbekistonda mulkchilikning xilma-xil shakllari rivojlantirilib, ularning teng huquqligi ta'minlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Birinchi Prezident Islom Karimovning respublika rahbari sifatidagi faoliyati hayotning boshqa ko'plab jabhalari qatorida ijtimoiy va iqtisodiy ahvolni tubdan o'zgartirish, bunda eng avvalo barcha muammo va masalalar echimiga xalqimiz manfaati orqali yondashish, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilishi natijasida vujudga kelgan salbiy holatlarni tezlik bilan bartaraf etish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

4. Huquqiy mustaqillikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar

Huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarning asosiy maqsadi ekanligi bugun barchamizga ayon. Bu yuksak maqsadni ro'yobga chiqarishda borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, aslida, O'zbekiston hali davlat mustaqilligiga erishmasdan oldin I. A. Karimov rahbarligida boshlangan ishlarning davomidir.

Ma'lumki, o'tgan asrning 80-yillari o'rtalariga kelib SSSRda kuchaygan tanglik holati mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. KPSSning kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy-siyosiy tizimning inqiroziga sabab bo'ldi¹. 1985 yilning bahorida KPSS Markaziy Qo'mitasining aprel plenumi sovet jamiyatini qayta qurish, uning barcha sohalarida tub yangilanishlar va o'zgarishlar yasash yo'lini e'lon qildi. Qayta qurishning tarkibiy qismi jamiyat hayotini demokratlashtirish ekani belgilandi.

Lekin bularning barchasi quruq ritorika va deklaratsiya bo'lib, hech qanday amaliy natija bermadi. Aksincha, ular sovet jamiyatining tub asoslari adolatsizlik negiziga qurilganini rivojlanishga noqobil ekanini oshkor etib qo'ydi. Agarki sovet sud-huquq tizimini oladigan bo'lsak, u insonni himoya qiluvchi organ emas, aksincha mustabid tuzum qo'lidagi insonlar va xalqlarni ezish quroli, repressiv mashinaga aylanib qolgan edi. Uning bunday g'ayriinsoniy mohiyati ayniqsa 80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston va uning xalqiga nisbatan avj oldirilgan qatag'on kampaniyalari davrida yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashdagi sun'iy ravishda o'ylab topilgan "o'g'irlik", "qo'shib yozish" holatlarini tergov qilish bilan markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi. "Paxta ishi" eng shov-shuvli ish sifatida butun Ittifoqqa namoyish qilindi. Bir qator Rossiya gazetalarining zo'r berishi tufayli "paxta ishi" "o'zbeklar ishi"ga aylantirildi. O'zbekistonga va o'zbek xalqiga

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq./ - T.: "Sharq", 2000. - 624-bet.

nisbatan qilingan bu adolatsizlik xalq ommasining sovetlar rejimiga nisbatan nafratini oshirdi, munosabatini o'zgartirdi¹.

I. A. Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyat bu masalani amaliy hal qilishga jasorat bilan kirishdi.

“O'zini adolatli deb kelgan, lekin o'ta adolatsiz bo'lgan Markaz O'zbekistonga, o'zbek xalqiga qancha tamg'a bosmadi, qancha malomat toshlari otilmadi. Lekin mahkam turib adolatga erishdik. O'zbek nomini badnom qilish harakatlariga zarba berdik. Bugun mana shu minbardan sizlarga yorug' yuz bilan aytamanki, “paxta ishi” bilan qamalgan larning hammasi afv etildi!”²

“Bunga chuqurroq nazar tashlansa, ana shu raqamlar zahirida qanchadan-qancha shikastlangan qismatlar, qanchadan-qancha azob chekkan taqdir bor. Nohaqlik, adolatsizlik jabrdiydalarini hammamiz bir tasavvur qilib ko'raylik. Buni yana shuning uchun aytyapmanki, endi hech qachon bunday nohaqliklar, adolatsizliklar takrorlanmasin, buning uchun esa hammamiz kurashishimiz kerak.”³

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida 1989 yil 21 oktyabrda “O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi⁴. Qonunning 1-moddasining 1-qismida “O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir”,⁵ deb yozib qo'yildi. Shunday qilib, o'zbek tili davlat tili maqomini oldi.

“Qabul qilingan qonunda davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo'li bilan himoya qilish, tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir fuqaroning o'z ona tilida ta'lim, axborot, kerakli ma'lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo'yilgan edi. Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim”.⁶

Davlat hokimiyatining bo'linish prinsipining jamiyatda amalda ro'yobga chiqarilishi, ya'ni hokimiyatlar bo'linishining amalga oshirilishi har qanday davlatning demokratik xususiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Davlat hokimiyatining bo'linish prinsipi davlat hokimiyati organlarining muvozanati va tengligini ta'minlaydi.

“O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida”gi Qonunning 4-moddasining 1-qismini keltiramiz: “O'zbekiston SSRda ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini etarli darajada bilishlari shart”⁷. Qonunning 5-moddasi (1-qism)da quyidagi

¹ O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq./ - T.: “Sharq”, 2000. - 660-bet.

² Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil, 428-bet.

³ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil, 325-bet.

⁴ O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 1995 yilning 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuni asosida “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi.

⁵ Qonunning matni bo'yicha qarang: Ona tili – Davlat tili: (O'quv qo'llanma-majmua) O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga oid hujjatlar / Tuzuvchilar: N.Jumaxo'ja, R.Jomonov. - T.: “Adolat”, 2004. - 80 bet. - (Davlat va millat ramzlari).

⁶ Islom Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat”, 2009 yil, 85-bet.

⁷ Ona tili – Davlat tili: (O'quv qo'llanma-majmua) O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga oid hujjatlar / Tuzuvchilar: N.Jumaxo'ja, R.Jomonov. - T.: “Adolat”, 2004. - 6-bet.

huquqiy norma mustahkamlab qo'yildi: "O'zbekiston SSR davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida s'ezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasida ta'minlanadi"¹. Qonundan keltirilgan ana shu moddalar (ularning qismlari)da O'zbekistonda davlat hokimiyati organlari o'z faoliyatini davlat tilida yuritishlari lozimligi ko'rsatilgan.

"Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishini barcha birdek hursandchilik va mamnunlik bilan kutib oldi. Ma'lumki, bu qonun qabul qilingan vaqtda hali SSSR mavjud va mustabid tuzum o'z umrini o'tab bo'lmagan edi. Mustabid tuzum jon talvasasida so'nggi nafaslarini olardi. Xalqimizning o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish borasidagi jo'shqin harakatini mustaqillik yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida baholash mumkin.

Islom Karimov til haqidagi ba'zi mulohazalar bilan o'rtoqlashar ekan, "bu allaqachon yuz berishi lozim bo'lgan hodisa ediki, aholimiz ko'pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

Binobarin, o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi"², deydi.

"O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining o'zligini anglashining o'sishi va respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, "davlat mustaqilligi yo'lidagi birinchi muvaffaqiyatimiz, birinchi g'alabamiz bo'ldi"³. "Respublika Oliy Sovetining sessiyasida O'zbekiston SSRning Davlat tili to'g'risidagi qonunining qabul qilinishi respublika hayotida muhim tarixiy voqeadir"⁴.

"Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganidan so'ng milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam qo'yildi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi muhim siyosiy-huquqiy hujjatni – O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvini ta'sis etish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. SHunday qilib, O'zbekistonda Prezident lavozimi 1990 yil 24 martda Oliy Kengashning birinchi sessiyasida ta'sis etildi. O'sha kuni O'zbekiston SSR Oliy Sovetining deputatlari respublika Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining Birinchi kotibi Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston SSRning birinchi Prezidenti etib sayladilar. SSSR respublikalari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi joriy etildi. "Moskva buni juda salbiy qabul qildi. Gorbachev ochiqdan-ochiq g'azablendi... Bu vaqtda, men ishonamanki, Karimov haqoralangan va xo'rlangan O'zbekistonning obro'sini ko'tarish haqida o'ylardi."⁵ Shuni aytish kerakki, 1990 yilning 14 martida SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi s'ezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish

¹ O'sha o'quv qo'llanma-majmua, 7-bet.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 62-bet.

³ Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar / So'zboshi: I.G'afurov. – T.: "Sharq", 2001. – 213-bet.

⁴ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil. – 91-bet.

⁵ Levitin L. Islom Karimov – yangi O'zbekiston prezidenti. T.: "O'zbekiston", 1996 yil, 11-bet.

to'g'risidagi Qonun qabul qilinib, bu lavozimga Mixail Sergeevich Gorbachev saylangandi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o'z ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "eng muhimi shundan iboratki, Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi"¹. Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1990 yil 24 martda bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida ham Prezident boshqaruvining joriy etilishi hayot taqozosi ekanini uqtirib, bunday degan edi: "Prezident boshqaruvini hayotning o'zi, qayta qurishning mantiqi, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etyapti"².

O'zbekiston xalqining manfaatlarini ko'zlab I. A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlarning o'ziyoq prezidentlik boshqaruvining o'z vaqtida ta'sis etilganidan dalolat beradi. 1990 yil 20 iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi ana shunday tadbirlardan edi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan va jiddiy ahamiyatiga molik bo'lgan mazkur hujjat deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi. Mustaqillik deklaratsiyasining kirish qismida "o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi"³ ga ega ekani ta'kidlandi. Mustaqillik deklaratsiyasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishida qo'yilgan navbatdagi muhim odimlardan biri bo'ldi.

1990 yil 20 iyunda "O'zbekiston Respublikasida Konstitutsion nazorat to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos bo'lishini ta'minlash, shaxsning konstitutsion huquq va erkinliklarini, O'zbekiston Respublikasi xalqlarining huquqlarini muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida konstitutsion nazorat ta'sis etildi.

Ittifoq rahbarlarining barcha harakatlariga qaramasdan, SSSRning parchalanish jarayoni boshlandi: uning tarkibidan dastlab Boltiqbo'yi respublikalari (Litva, Latviya va Estoniya), so'ng Gruziya chiqdi.

1991 yil 15 fevralda O'zbekiston SSR Oliy Soveti "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

"Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1) O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O'zbekiston SSRning yangi Davlat bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga

¹ Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil. – 147-bet.

² O'sha manba, – 149-bet.

³ Qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq./ – T.: "Sharq", 2000. – 669-bet.

doir takliflar hamda ular to'g'risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko'rsin.

2) Bu boradagi takliflar matbuotda e'lon qilinib umumxalq muhokamasi uyushtirilsin".¹

O'zbekiston Oliy Sovetii qabul qilgan qonunlar, O'zbekiston Prezidentining Farmonlari, Hukumat qarorlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo'liga bevosita qaratila boshladi.

O'zbekistonda yangi rahbariyat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni davlat yo'li bilan boshqarish organlari mustahkamlandi. 1991 yil martda respublikalar vakillari tomonidan Ittifoq shartnomasining boshqa loyihasi tayyorlandi. Mazkur loyiha "Suveren Respublikalar Ittifoqi to'g'risida" deb nomlandi. Bu loyihaning asosiy g'oyasi – ko'p millatli Ittifoq davlatini federatsiya sifatida saqlab qolish va shu bilan birga, respublikalar suverenitetini ro'yobga chiqarish tufayli Markazning yangi vazifasini ham belgilash edi. Garchi loyiha respublikalarning suverenitet to'g'risidagi deklaratsiyasini hisobga olgan bo'lsa-da, bu suveren "davlatlar" emas, balki "respublikalar" Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma edi. SSSR Prezidenti va to'qqizta ittifoqdosh respublika rahbarlari ishtirokida Novo-Ogarevoda bo'lib o'tgan yig'ilishda prinsipial nizoli masalalar yuzasidan tomonlarni qanoatlantiradigan bitimga kelindi – "Suveren Davlatlar Ittifoqi to'g'risida"gi shartnomani tuzishga kelishib olindi. O'zbekiston delegatsiyasi muzokaralar jarayonida yangilangan Ittifoqqa kirishning o'zi uchun juda muhim bo'lgan shartini – barcha respublikalar aholisi uchun yagona bo'lgan pensiya bilan ta'minlash, daromadlarni indeksatsiya qilish va kun kechirish uchun zarur bo'lgan kafolatlangan eng kam miqdor tartibi amal qilishini qattiq turib himoya qildi².

Respublikada jamiyatni demokratlashtirish, O'zbekistonning haqiqiy suverenitetini o'rnatish, mamlakatda yashayotgan ko'p sonli millatlarning totuvligi va tengligini ta'minlashga erishish Islom Karimov boshliq siyosiy rahbariyatning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekiston xalqi respublika rahbariyatining yuzaga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatini qo'llab-quvvatladi. Chunki O'zbekiston rahbariyati xalqning xohish-irodasini hisobga olib, uning manfaatlarini ko'zlab ish yuritgan edi.

1991 yil 22 iyulida O'zbekiston SSR Oliy Soveti "O'zbekiston hududida joylashgan Ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, musassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi.³

¹ Qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi/ N. Jo'raev, T. Fayzullaev; tahrir hay'ati A. Sagdullaev, N. Komilov, N. Abduazizova va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi. – To'ldiridgan, qayta nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 25-bet.

² O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq./ – T.: "Sharq", 2000. 647-bet.

³ Mustaqil O'zbekiston tarixi/ N. Jo'raev, T. Fayzullaev; tahrir hay'ati A. Sagdullaev, N. Komilov, N. Abduazizova va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi. – To'ldiridgan, qayta nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 30-31-betlar.

SSSRning yuqori lavozimidagi rahbarlaridan SSSR vitse-prezidenti G. Yanaev, Ministrlar Sovetining raisi V. Pavlov, KGB raisi V. Kryuchkov, mudofaa vaziri D. Yazov, ichki ishlar vaziri B. Pugo va boshqa yuksak lavozimdagi mas'ul partiya va davlat arboblari 1991 yilning 18 avgustida o'zlarini GKChP deb atab, davlat to'ntarishi qilishga urinib ko'rdi. GKChPning asosiy maqsadi – totalitar sovet tuzumini qanday qilib bo'lsa-da, aslo o'zgartirmasdan saqlab qolishdan iborat edi. Lekin bu urinish barbod bo'ldi. Bu SSSR deb atalmish davlatning umri tugaganini va ayni vaqtda “qayta qurish” siyosati ham barbod bo'lganini bildirardi. Bir guruh siyosiy avantyuristlarning davlat to'ntarishini sodir etishga urinishi munosabati bilan I. A. Karimov rahbarligida O'zbekiston o'zining qat'iy pozitsiyasida turgani mamlakatimiz va xalqimizning mustaqillikka erishishida hal qiluvchi o'rin tutdi. I. A. Karimovning respublika aholisiga murojaatida, respublika va uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon birovning gapiga kirib ish tutmagani, markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadlarimizdan qaytmaganimiz ta'kidlandi.¹

1991 yil 21 avgustda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan GKChPning O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid keladigan qarorlari noqonuniy deb e'lon qilindi. 1991 yil 25 avgustda Prezident Farmoni bilan respublika IIV va DXQ qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi. Ushbu farmonning 4-bandida Oliy Kengashi Rayosatiga juda qisqa muddatda respublikaning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Qonun loyihasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga takdim etish taklif qilindi.² 1991 yil 28 avgustda O'zbekiston SSR KP MQ Markaziy nazorat qo'mitasi bilan birgalikda qo'shma plenum chaqirib, unda KPSS MK bilan har qanday aloqani to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning markaziy organlaridan o'z vakillarini chaqirib olishga O'zkompartiya qaror qildi.

Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qaramasdan, xalqimiz Islom Karimov boshchiligida o'zining asriy orzusi – O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari dadil va qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi. Nihoyat, 1991 yilning 31 avgustida, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining oltinchi sessiyasida Islom Karimov tantanali ravishda “1 sentyabrni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e'lon qilishni taklif”³ etdi va O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. U o'zining tom ma'nodagi tarixiy nutqida quyidagi fikrlarni alohida ta'kidladi:

“Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan-kunga yo'qotaypti. Odamlar o'zlarining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safsatabozlik va va'dabozlik ostida ko'milib ketyapti.

¹ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 365-bet.

² Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 370-bet.

³ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 404-bet.

Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og‘ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlarini talab qilyapti. Bu – haqqoniy talabdir.

[...] O‘zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday Ittifoq bo‘lmasin, kim bilan Ittifoq bo‘lmasin, qanday sharoit bo‘lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo‘lmaydi, bunga yo‘l ham qo‘ymaydi. Tenglar ichida teng bo‘lish — xalqimizning asriy orzusidir”¹.

Vatanimiz tarixiga zarhal harflar bilan yoziladigan o‘sha unutilmas kunlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayni o‘sha paytda yosh, mustaqil O‘zbekiston davlati rahbari tomonidan mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab o‘ta muhim hujjatlar qabul qilinganini ko‘ramiz. Misol uchun, 31 avgust kuni qabul qilingan O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Qarori va “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Bayonoti hamda “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari shular jumlasidandir.

Xalqimiz mamlakatimiz mustaqilligining ostonasidayoq huquqqa, qonunlarga asoslanadigan huquqiy demokratik davlat qurishni mo‘ljalladi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilgan barcha ishlarning asosida qonunlarga itoatkorlik yotganiga alohida e‘tiborni qaratishni istardik. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov haqli suratda ta’kidlaganidek, “huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko‘zi ham, so‘zi ham qonundir.

Ming afsuski, bizda qonunlarni mensimaslikka, ularni buzishga o‘rganib qolingan. Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo‘q. Chunki qonun – xalqning xohish-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qo‘ygan kishidir.

Biz qonunni hurmat qilish, unga bo‘ysunish, rioya qilish yo‘lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo‘ladi. Ana shunga erishish uchun Prezident qonunlarning eng asosiy posboni, himoyachisi bo‘lishi kerak, deb hisoblayman”².

1991 yil 31 avgustda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotiga asoslanib qabul qilindi. Qonunning 1-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi, o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir. Qonunda O‘zbekiston xalqi davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekani belgilab qo‘yildi. Xususan, unda “O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi”³ (2-modda) deyildi.

¹ Islom Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”, 2011 yil. 401–402-bet.

² O‘sha manba. 435-bet.

³ Qarang: Jo‘raev N. va boshq. O‘zbekiston tarixi: Milliy istiqlol davri: 11-sinf o‘quvchmlari uchun darslik/ N. Jo‘raev, T. Fayzullaev, Q. Usmonov: Mas’ul muharrir: A. A. Azizxo‘jaev. – T.: “Sharq”, 1998. 30-31-betlar.

Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi Qonunda o‘z ifodasini topdi: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O‘zbekiston Respublikasi davlat idoralarning tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi” (5-modda).¹ Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur Qonunga 1991 yil 30 sentyabrda konstitutsiyaviy maqom berilgan.

1 sentyabr – O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

“Muqaddas orzu ushaldi - O‘zbekiston tinch, parlament yo‘li bilan o‘zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. Bu - xalqimizning ko‘p asrlik tarixida buyuk voqeadir”.²

1991 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining referendumi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o‘tkazildi. O‘zbekistondagi prezidentlik hokimiyatini mustahkamlashda 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun³ va uning asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovi katta ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida prezidentlik instituti to‘la shakllandi.

1991 yil 29 dekabrda “Siz Oliy Kengash tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e’lon qilinishini ma’qullaysizmi?” – degan masalada o‘tkazilgan referendumda ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi respublika davlat mustaqilligini qo‘llab-quvvatlab ovoz berdi va Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma’qullangani haqida tegishli qaror qabul qildi⁴.

1991 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylandi. O‘rta Osiyo mintaqasidagi barcha respublikalar orasida faqat O‘zbekistondagina dastlabki Prezident saylovi muqobillik asosida o‘tdi. Yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, umumiy va muqobil asosdagi saylovda prezidentlikka nomzod Islom Abdug‘anievich Karimov uchun 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi Qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘anievich Karimovni 1991 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi.⁵

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil yanvarda bo‘lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida Birinchi Prezident Islom Karimov qasamyod qildi: “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar

¹ O‘sha joyda.

² Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. С 36.

³ Bu qonunga 1997 yil 26 dekabrda, 1999 yil 19 avgustda, 2003 yil 24 aprelda, 2007 yil 11 aprelda va 2011 yil dekabrda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi /Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida/. – Т.: “O‘zbekiston”, 1992. – 50-bet.

⁵ O‘sha asar, 52-bet.

ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman"¹.

Sessiyadagi nutqi davomida I. Karimov Prezidentning bosh vazifasi sifatida tinchlik, totuvlik, osoyishtalikni saqlash, deb hisoblaydi.

“Qayerdagi tinchlikka putur etsa, xalq osoyishtaligi xavf ostida qolsa, o'sha joyda Prezident posbon bo'lishi darkor...

...Bu yo'lda tinchlik, totuvlik yo'lida bizni Alloh taoloning o'zi qo'llasin, madadkor bo'lsin!”²

Mamlakatimiz siyosiy tizimida prezidentlik institutining uzil-kesil mustahkamlanishida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi “O'zbekiston Respublikasining Prezidenti” deb nomlangan. Mazkur bob o'z ichiga 9 ta modda (89–97-moddalar)ni qamrab olgan bo'lib, ularda prezidentlikka nomzod oldiga qo'yiladigan talablar, Prezidentni saylash tartibi, Prezident qasamyodining matni, Prezidentning vakolatlari, Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar, Prezidentning parlamentni tarqatib yuborish vakolati va shu kabilar borasida huquqiy normalar belgilangan.

Uzoqni ko'ra olish, donolik bilan ish yuritishga odatlangan kishi va yangi g'oyalarning muallifi sifatida I. Karimov mustaqillikning ilk yillaridanoq sadoqat bilan xalqimizga xizmat qilib, xalqimizni qiyinchilik va talo-to'plardan eson-omon yorug' kunlarga olib o'ta boshladi, desak xato bo'lmaydi.

Har bir suveren davlatning huquqiy asoslaridan biri uning asosiy Qonuni – Konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990 yil 20 iyunda Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi munosabati bilan bevosita ilgari surilgan edi.³ Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasining muxim tamoyillari asosida davlatning yangi Konstitutsiyasi ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya Birinchi Prezident I. A. Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qildi.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Konstitutsiyaviy komissiya va uning Raisi tomonidan ma'qullangan Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan konsepsiya asosida bulajak Konstitutsiya loyihasini yaratishga kirishildi.

1992 yil baxorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risidagi axborot tinglandi. Ta'kidlanishicha, ishchi guruh O'zbekiston xalq deputatlari, mehnat jamoalari rahbarlari, olimlar va mutaxassislar bilan hamkorlikda loyihaning uchinchi ko'rinishini tayyorladi. Unda o'zbek xalqining tarixiy, milliy va ma'naviy xususiyatlarini imkon qadar to'laroq aks ettirishga

¹ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 424-bet.

² Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 430-431-betlar.

³ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil. 233-bet.

harakat qilindi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan qabul qilingan qarorga binoan Konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun ishchi guruh (komissiya) tuzildi. Uning tarkibi 25 kishidan iborat bo'ldi. Guruh zimmasiga huquqiy demokratik davlat barpo etish jaxon tajribasini, O'zbekistonning demografik va ijtimoiy-siyosiy turmush tarzini, uning taraqqiyoti tajribasini har tomonlama umumlashtirish va uni Konstitutsiya loyihasida hisobga olish vazifasi yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muxokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Mustaqil davlatimizning har bir fuqarosi, butun xalq ommasi Konstitutsiya loyihasini katta qiziqish va ozod Vatan uchun cheksiz iftixor tuyg'ulari bilan kutib oldi.

Shu davrda O'zbekiston Respublikasi davlat-huquqiy tajribasida muhim bir yangilik bo'ldi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha takliflari asosida qayta tuzatilib 1992 yil 21 noyabrda muxokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. Shunday qilib, huquqiy pretsedent ruy berdi – umumxalq muxokamasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Bu xol muxokama ishtirokchilarini siyosiy jihatdan faollashtiruvchi qudratli turtki bo'ldi.

Umumxalq muxokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va muloxazalar bildirildi. Faqatgina Konstitutsiyaviy komissiyaga mingdan ziyod xatlar tushdi. Ularda loyihaning ixcham, lunda, chuqur ma'noli va barchaga tushunarligiga yordam beruvchi muloxazalar bildirildi.

Taklif va muloxazalarning aksariyati fuqarolarning huquqi va burchlari, shaxs daxlsizligi, dinning jamiyatdagi o'rni va roli, iqtisodiy huquqlar, jumladan, mulk huquqi, bozor munosabatlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, huquqiy tartibot va qonuniylikning Konstitutsiyaviy asoslarini mustaxkamlashga qaratilgan moddalar, boblar va bo'limlarga taalluqli bo'ldi.

Umumxalq muxokamasi davom etayotgan davrda ham Konstitutsiyaviy komissiya Raisi loyhani takomillashtirishga katta e'tibor qaratdi. Fuqarolardan tushayotgan taklif-muloxazalar jamlanib, uning e'tiboriga havola qilib turildi. Mamlakat Prezidenti Konstitutsiya loyihasi ustida ishlar ekan, uning ortida millionlab kishilarning takdiri turganligini qayta-qayta ta'kidlar edi. Buni quyidagilardan bilsa bo'ladi. Masalan, loyihaning 1-moddasida "O'zbekiston – demokratik respublika" deb yozilgan edi. Prezident bunga aniqlik kiritib, "suveren" so'zini qo'shib qo'ygan. Natijada bu modda "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" tarzida bo'ldi. Ma'lumki, suverenitet har qanday davlatning muxim belgisidir. Konstitutsiyada bu jihatga urg'u berilishi O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston endi ilgarigidek Ittifoq davlatining tarkibida emas. Ikkinchi tarafdin, uning Mustaqil Davlatlar Hamdustligiga qo'shilganligi mustaqillikni va davlat suverenitetini yo'qotdi, degan ma'noni anglatmaydi. Bu MDH shakllanayotgan va uning atrofida turli qarama-qarshi muloxazalar bildirilayotgan bir paytda katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

Dastlabki loyihaning 7-moddasi, 2-qismi mana bunday tahrirda edi: "O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati Konstitutsiya... vakolat bergan

idoralar tomonidagina amalga oshiriladi”. Prezident nihoyatda muhim tuzatish kiritib, respublikada davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab... amalga oshiriladi, deb belgilab qo‘ydi. Bu bilan Konstitutsiyaning “xalq davlat hokimiyatini birdan-bir manbaidir” (7-modda, 1-qism) degan qoidasi bilan yuqorida keltirilgan qoidasi o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liklik kuchaydi.

1992 yil 8 dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo‘ldi. Unda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida”gi masala ko‘rildi. Bu xususda Konstitutsiyaviy komissiya Raisi, Birinchi Prezident I. A. Karimov ma’ruza qildi. Ushbu ma’ruzada “Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko‘p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo‘lishiga bog‘liq.

Tabiiyki, har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsulidir. Birinchi Konstitutsiyamiz loyihasi ana shunday xalqchil qomus bo‘lishiga ishonaman. Sababi - uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o‘tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi”¹, - deb ta’kidlandi.

Shunday qilib, suveren demokratik O‘zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Asosiy Komusimiz davlat, mustaqilligimizning mevasi, maxsuli sifatida dunyoga keldi va hurligimiz, ozod-erkinligimiz qalkoni sifatida yashamoqda. Konstitutsiya kelajagi buyuk O‘zbekistonning qad rostlashi uchun, adolatli huquqiy davlat barpo etish uchun mustaxkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov Oliy Kengashning o‘n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi yuzasidan so‘zlagan nutqida bunday deb ta’kidladi: “Hur O‘zbekistonimizning tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish - jumhuriyatimizning yangidan tug‘ilishidir, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir”².

Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan Konstitutsiyani qabul qildilar. Konstitutsiya 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iboratdir.

Faqat milliy istiqlool, davlat mustaqilligiga erishish tufayli O‘zbekiston Respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, xaq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi XII chaqiriq Oliy Kengashining 1992 yil 8 dekabrda o‘n birinchi sessiyasi tomonidan O‘zbekiston birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea edi.

¹ Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. С 118.

² Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. С 122.

MAVZU: MUSTAQIL DAVLATCHILIK ASOSLARINI YARATISH VA MUSTAXKAMLASH YO'LIDA

Reja:

1. O'zbekistonda oliy davlat vakillik organi – qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi
2. Ijro etuvchi hokimiyatning shakllantirilishi va faoliyati
3. Sud-huquq tizimining isloh etilishi

1. O'zbekistonda oliy davlat vakillik organi – qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi

O'zbekiston tarixida birinchi marta butunlay yangi sharoitlarda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy isloxotlar, keng qamrovli yangilanishlarning amalga oshirilishi yirik tarixiy va ijtimoiy hodisa bo'ldi. Demokratik huquqiy davlatni shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar bu ishlarning eng muximi xisoblanadi. 90-yillar boshiga kelib yosh mustaqil davlatlardagi siyosiy vaziyat shunday ediki, ular oldida ijtimoiy rivojlanishning ikki yo'li turardi. Birinchisi - xalq xo'jaligini avvalgidek sotsialistik yo'nalishda rivojlantirish. Ikkinchisi - jaxon amaliyoti sinovidan o'tgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli, demokratik jamiyat qurish yo'lidan borish. O'zbekiston ikkinchisini tanladi, shu yo'lning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan isloxotlarni amalga oshirishga dadillik bilan kirishdi. Birinchi Prezident I. A. Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida: "Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlashi kerak"¹, - deb ko'rsatgan edi. Ayni choqda Prezident tomonidan "...qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish. Jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish"² lozimligi ta'kidlaydi.

1990 yil 18 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdagi yangi tarkibi saylandi va 1990-1994 yillarda faoliyat ko'rsatdi. U o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq shuro tuzumining qonunlari amalda edi. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. Ayni paytda Oliy Kengash O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo'lidan bordi va uni qadam-baqadam shakllantira boshladi. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida birinchi bor Prezident sayladi,

¹ Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. С 44.

² Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. С 44.

Mustaqillik Deklaratsiyasini, O'zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida konstitutsiyaviy qonunni va boshqa muhim xujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi. 1990-1994 yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", - deb mustaxkamlandi. Shunga muvofiq 1993 yil 28 dekabrda bo'lib o'tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994 yil 22 sentyabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyada "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Ularda qonun chiqaruvchi hokimiyat soxasida tub isloxlarni amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yildi. Birinchidan, shu vaqtga qadar O'zbekistonda sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan ayrim qonun va me'yoriy xujjatlar hamon amalda edi, ular mazmun va mohiyati yangilanayotgan davlat va jamiyat uchun mutlaqo mos kelmas va xatto, yangi jamiyat oldida turgan tub maqsadlarni amalga oshirishda tusqinlik qilardi. Ikkinchidan, O'zbekiston o'z oldiga adolatli huquqiy demokratik davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lidan borish va insonparvar fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifasini maqsad qilib qo'ygan edi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar qonunchilik tajribasidan foydalanish talab etilardi. Uchinchidan, mustaqil taraqqiyot yo'lida vujudga kelayotgan milliy davlatchilik tizimi har qanday mafkuraviy ta'sirdan xoli, xalqning o'ziga xos tarixiy axloqiy-ma'naviy va ruxiy qadriyatlariga mos bulmogi lozim edi. Bunday vazifani, Konstitutsiyada belgilanganidek qonun chiqaruvchi vakillik hokimiyati – Oliy Majlis uddalashi kerak edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XVI sessiyasi (1994 yil sentyabr) 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qildi.

1994 yil 25 dekabr kuni saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. Saylovlarda saylovchilar xalqning munosib farzandlari uchun yakdillik bilan ovoz berdilar. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi. Bu Oliy Majlis – yangi Parlamentni demokratik yo'l bilan shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi ilk tajribasi edi.

1995 yil 23-24 fevral kunlari yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada I. A. Karimov "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi. "Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jaxondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi"¹, -dedi Prezident. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi va turt kishidan iborat Rais o'rinbosarlari saylandi. E. X. Xalilov yakdillik bilan Oliy Majlis raisi, B. I. Bugrov, B. A. Shodieva, A. K. Qosimovlar ham bir ovozdan Rais o'rinbosarlari qilib saylandilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-

¹ I. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996. 5-bet.

moddasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakili – Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengashi Raisi U. Ashirbekov ham yakdillik bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Raisi o‘rinbosari qilib saylandi.

Oliy Majlis faoliyatini zamon talablari asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan tadbirlarning barchasi parlament ishini yanada rejali, tashkiliy jixatdan puxta uyushtirish imkonini berdi. SHuningdek sessiyalarning kun tartibini Oliy Majlis Rayosati majlislarida oldindan muxokama qilish, sessiyalarga tayyorgarlik qurish va ularni o‘tkazish bo‘yicha deputatlar ishchi guruhlarini tashkil etish, qo‘mitalar va komissiyalar faoliyatini yanada aniqroq uyg‘unlashtirish ham qonunlarni ishlab chiqish ishining sifatini oshirishga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qonunlarni ishlab chiqish jarayonida amalda qo‘mitalarning butun tarkibi ishtirok etadi. Qonun loyixalarini tayyorlash bo‘yicha maxsus ishchi guruhlarini tuzilib, ularga olimlar va mutaxassislarini kengroq jalb etish borasida xalqaro tajribadan foydalanildi. Oliy Majlis qabul qilayotgan qonunlar sifatini oshirishda ularning loyixalarini oldindan matbuotda chop etib, umumxalq mudokamasidan o‘tkazish ijobiy samara berdi. Qonunlar loyixalarini deputatlarga oldindan yuborish tartibi joriy qilindi hamda ularning takliflari va fikr-muloxazalari har bir qonunni uzil-kesil ishlab chiqish chog‘ida albatta e‘tiborga olinadigan bo‘ldi. Sessiya muxokamasiga kiritiladigan barcha qonun loyixalarini Oliy Majlis Raisi va uning o‘rinbosarlari huzurida tegishli qo‘mitalar, kotibiyat, bo‘limlar rahbarlari, ishchi guruhlarining a‘zolari va ekspertlar ishtirokida oldindan sinchkovlik bilan puxta va atroflicha muxokama etish qonunchilik ishidagi maqbul jixat ekanligini ko‘rsatdi. Ishning bu tarzda yo‘lga qo‘yilishi qabul qilinayotgan xujjatlarning sifatiga ijobiy ta‘sir eta boshladi. Ana shunday tadbirlar natijasida O‘zbekistonni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichga yuz berayotgan yangilanish va rivojlanish jarayonlari vokeligiga, mamlakatni yanada taraqqiy ettirishning barcha ichki va tashqi vazifalariga monand qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishda deputatlarning faolligi va mas‘uliyati kuchaydi. Sessiyalar ishida O‘zbekiston Prezidentining bevosita ishtiroki, uning qonunlarni ishlab chiqish jarayonini yanada takomillashtirishga muttasil e‘tibor berishi O‘zbekiston parlamenti faoliyatining izchil bo‘lishida muxim omil bo‘lib xizmat qildi. Ma‘lumki, birinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasida I. A. Karimov “O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari” mavzuida keng qamrovli ma‘ruza qilib, unda respublika bosib o‘tgan yo‘lini har tomonlama taxlil etdi va “O‘zbekiston yangi asr boshida” degan uzoq muddatga mo‘ljallangan, keng qamrovli rivojlanish dasturini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish”¹ vazifasini qo‘ydi.

Prezident keyingi sessiyalardagi nutqlarida jamiyat rivojiga doir muxim qoidalarni yanada chuqurlashtirdi va aniqlashtirdi, yangi mazmun bilan boyitib bordi. Jumladan, u Oliy Majlisning VI sessiyasida “Hozirgi bosqichda demokratik isloxlarni chuqurlashtirishning muxim vazifalari” mavzuida nutq so‘zladi. O‘z nutqida Prezident eng muhim yutuq sifatida “barcha fuqarolarning qonun oldida

¹ I. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O‘zbekiston, 1996. 5-bet.

huquqiy tengligini hamda qonunning hamma narsadan ustunligini kafolatlovchi huquqiy davlatni shakllantirishning mustahkam asosi”¹ yaratilganligini ma’lum qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o‘zining shakllanishi, faoliyat ko‘rsatishi, ish yuritish tartiblari bilan avvalgi yillardagi Kengashdan butunlay farq qiluvchi Oliy davlat vakillik organiga aylandi. Birinchi farq shundaki, Oliy Majlisga deputatlar saylovi ko‘ppartiyaviylik va muqobillik asosida o‘tkazila boshlandi. Ikkinchidan, Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat vakillik organlariga saylovlarni tashkil qilishda sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi. Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o‘rni va soni oldindan belgilab qo‘yilar edi. Buning ustiga, Parlamentda va Mahalliy Kengashlarda vazifasi bo‘yicha albatta deputat bo‘luvchi o‘rinlar ham mavjud edi. Bunday yondashuvdan voz kechildi. Oliy Majlis deputatlari turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobillik asosida saylana boshlandi. Respublika fuqarolari saylovlarda, eng avvalo, nomzodlarning ijtimoiy kelib chiqishiga emas, aksincha, ularning ishchanlik va ahloqiy sifatlariga, eng muximi, dasturlarning mazmun-moxiyatiga katta e’tibor berdilar. Uchinchidan, Oliy Majlis Konstitutsiyaga muvofiq, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organi doimiy amal qiluvchi parlament sifatida deputatlarning bir qismi parlament tarkibida doimiy faoliyat yurita boshladi. Shuningdek deputatlarning bir qismi oldingi xizmat vazifalarini deputatlik vakolati bilan qo‘shib olib bora boshladi. Turtinchidan, Oliy Majlis deputatlari tomonidan o‘z saylovchilari bilan yaqindan aloqada va muloqotda bo‘la boshladi. Avvallari bu masalaga uncha e’tibor berilmagan edi. Beshinchidan, Oliy Majlis qoshida maxsus parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi tashkil etildi va u etakchi davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik qila boshladi.

O‘zbekiston Milliy parlamentida Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo‘yicha guruh tuzildi, respublikaning Parlamentlararo ittifoq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament assambleyasi va Yevroparlament bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Oliy Majlis „O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 - 1999 - yillarga mo‘ljallangan faoliyat dasturi“ ni ishlab chiqdi va respublika parlamenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tashkil etildi. Bu chora - tadbirlar Oliy Majlis faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olishga, qonunchilikni yangi pog‘onaga ko‘tarishga ko‘maklashmoqda. O‘zbekiston parlamentining birinchi sessiyasida ta’sis etilgan Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) instituti xalqaro amaliyotni o‘rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib boradi. 1997 - yil 24 - aprelda qabul qilingan „Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida“ gi Qonun muhim hujjatlardan biri. U respublikada insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini huquqiy jihatdan ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83 - moddasida qonunchilik

¹ I. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T. 5. – T.: O‘zbekiston, 1997. 108-bet.

tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar aniq belgilab qo'yilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Oliy Majlis deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudi, Oliy Sudi va Bosh prokurori egadirlar.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 - 1999 - yillarda 15 ta sessiya o'tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi (tasdiqladi), xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yakunlovchi XV sessiyasida Birinchi Prezident Islom Karimov ma'ruza qilib, uning faoliyatiga yuksak baho bergan edi: "Eng muhimi, birinchi chaqiriq asosida tashkil topgan parlamentimiz faoliyatining asosiy mezonini shundan iboratki, o'tgan davr mobaynida ko'ppartiyaviylik shakllangan, turli harakatlar, jamoat birlashmalari siyosat maydoniga chiqqan, turli ijtimoiy toifa va tabaqalar vujudga kela boshlagan murakkab bir sharoitda, Oliy Majlis hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan hamkorlikda jamiyatimizda siyosiy muvozanatni, tinchlik va barqarorlikni saqlab turishda ishonchli omil bo'ldi".¹

Birinchi chaqiriq respublika Oliy Majlisining 1999 - yil 19 - 20 - avgust kunlari bo'lib o'tgan o'n beshinchi sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999 - yil 5 - dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. 1999 - yil 5 - dekabr kuni bo'lgan saylovlarda nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmagan 66 ta saylov okrugida 19 - dekabr kuni takroriy saylov tashkil etildi. Saylovlar aholining faol ishtiroki va yuqori siyosiy ko'tarinkiligi bilan o'tdi, jami 250 nafar vakil deputat etib saylandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 - yil 22 - yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi sessiyasining birinchi majlisida hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 111 kishidan iborat deputatlar bloki, Xalq - demokratik partiyasidan saylangan 48 kishidan, "Fidokorlar" milliy - demokratik partiyasidan saylangan 34 kishidan, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan saylangan 20 kishidan, "Adolat sotsial-demokratik" partiyasidan saylangan 11 kishidan va "Milliy tiklanish" partiyasidan saylangan 10 kishidan iborat deputatlar fraksiyalari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan, 16 kishidan iborat deputatlar bloki ro'yxatga olindi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'zining tarkibiy tuzilishi va unda faoliyat yuritayotgan partiya fraksiyalari va deputatlar uyushgan bloklar soni jihatidan birinchi chaqiriq Oliy Majlisga nisbatan anchagina yangilandi. Qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun - mohiyati ham yanada

¹ Каримов И. А. Наша высшая цель – независимость и процветание Родины, свобода и благополучие народа. Т. 8. – Т.: "Ўзбекистон", 2000. С 59.

mukammallashdi. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tobora chuqurlashib borayotganligidan kelib chiqadigan tabiiy holdir. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining tarkibiy tuzilishi, uning faoliyatida 5 ta partiya fraksiyalari va 2 ta deputatlar blokining faol ishtiroki milliy parlamentni rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi.

Birinchi Prezident Islom Karimov 2000 - yil 25 - may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma - bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir. 2001 - yil 6 - 7 - dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil - yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentning bir qator ijobiy tomonlari bor:

- populistik maqsadni, ayrim guruhlar manfaatini ko'zlovchi, mukammal bo'lmagan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi;
- mamlakat mintaqalari (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi)ning manfaatlari to'laroq inobatga olinadi;
- milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentning nufuzi ortadi, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabat mutanosiblashadi;
- parlament qabul qilayotgan qonunlarning sifatini yaxshilashga, xalqning xohish - irodasini to'laroq namoyon bo'lishiga imkon beradi;
- parlament ishida demokratik fikrlar xilma - xilligi ko'proq namoyon bo'ladi;
- jamiyatni liberallashtirishni tezlashtiradi;
- deputatlar faoliyatini professionallashtirishga, siyosatchilar tabaqasini shakllantirishga ko'proq imkoniyat yaratadi.

Oliy Majlis 2002 - yil 27 - yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Referendumda ovoz berish byulleteniga "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?" degan savol kiritildi. Referendum 2002 - yil 27 - yanvar kuni bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz ovoz berishda qatnashgan saylovchilar ikki palatali parlament tuzish masalasini qo'llab - quvvatladilar.

2002 - yil 4 - 5 - aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun va "2002 - yil 27 - yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida" Qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. 2002 - yil 12-13 - dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning o'ninchi sessiyasi xalqimizning xohish - irodasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to'g'risida qarorlarni qabul qildi. Shuningdek, 2003 - yil 24 - aprelda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlar bo'lg'usi parlamentning ikkala palatasi vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi. Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat vakillik organi - parlamentning nomi Oliy Majlis deb atalaveradi. Uning tarkibida ikkita palata tuziladi. Yuqori palata - Senat, quyi palata - Qonunchilik palatasi, deb ataladi. Ikkala palataning vakolat muddati - 5 yil etib belgilangan. 2004 - yil dekabr - 2005 - yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Quyi palataga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda - 6 nafardan, jami 84 kishi saylandi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

Shunday qilib, ikki palatali parlament tashkil etildi va o'z faoliyatini boshladi. Ikki palatali parlamentning tashkil etilishi natijasida Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasida vakolatlar yanada demokratik asosda qayta taqsimlandi. Parlamentning jamiyat hayotidagi mavqeyi o'sdi. Qonun loyihalari dastlab Qonunchilik palatasida ko'rib chiqiladi va qabul qilinadi. So'ngra Senat tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qonun Prezident tomonidan imzolanib, matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Prezident vakolatlarining bir qismi davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash Senat vakolatiga o'tkazildi va Senat tomonidan amalga oshirilmoqda. Ikki palatali Oliy Majlis 2005 - 2009 - yillarda ijtimoiy - siyosiy, sotsial - iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishida katta ahamiyatga ega bo'lgan 250 dan ziyod qonun qabul qildi. Milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentimizning nufuzi yanada o'sdi. Qabul qilinayotgan qonunlarning sifati yaxshilandi. Deputatlar faoliyati professionallashtirilib, siyosiy partiyalar fraksiyalarining faoliyati, fikrlar xilma - xilligi kuchaydi. Deputat va senatorlarning vakolat muddati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2009 - yil 27 - dekabr kuni saylovlar - 2010 - yil 10 - yanvar kuni takroriy saylovlar demokratiya, muqobillik

va oshkoralik ruhida bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasida 135 deputat, O'zbekiston Ekologik harakatining konferensiyasida 15 nafar deputat, jami 150 nafar deputat saylandi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda - 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Senatning 16 nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. 2010 - yil 22 - yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida Dilorom Toshmuhamedova Qonunchilik palatasi Spikeri etib saylandi. 2010 - yil 26 - yanvar kuni Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida Ilgizar Matyoqubovich Sobirov Senat Raisi etib saylandi. Davlatimiz rahbari taqdimiga binoan Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni tasdiqladi.

Oliy Majlisimizning bu tarkibi parlamentimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar demokratik islohotlarni hayotimizga joriy etishda, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida qo'ygan qadamlarimizda munosib hissa bo'ldi. O'tgan davr mobaynida hammasi bo'lib 140 dan ortiq qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Oliy Majlis tomonidan 2010 yilning noyabr oyida qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, hech shubhasiz, bizning ertangi kunimizni belgilab beradigan, ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarimizning Strategik dasturiga aylandi.

Konsepsiya doirasida bugungi kungacha qabul qilingan 27 ta qonun, ularni keng miqyosda muhokama etish va qabul qilish jarayonining o'zi davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini, so'z va axborot hamda saylov erkinligini ta'minlash, saylov tizimi va fuqarolik institutlarini rivojlantirishda muhim omil va katta amaliy hissa bo'ldi.

Mazkur Konsepsiyaga muvofiq, 2011 yilda va 2014 yilda Konstitutsiyamizga kiritilgan tuzatishlar, davlat qurilishi sohasida qabul qilingan boshqa qator qonunchilik hujjatlari davlat hokimiyatining asosiy sub'ektlari — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mamlakat hukumati vakolatlarini, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati mexanizmlarini yanada rivojlantirish va optimallashtirishni ta'minladi.

Konsepsiyani tatbiq etish doirasida saylov qonunchiligiga saylov erkinligi prinsipini to'liq amalga oshirish, saylovoldi tashviqotini olib borishda deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarga teng shart-sharoitlar yaratish samaradorligini oshirish, saylov davomida oshkoralikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Jahon amaliyotida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga boshqa hokimiyat organlarining hech qanday aralashuvizis saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishni ta'minlaydigan davlat hokimiyati organi tizimida alohida o'rin tutgan konstitutsiyaviy organ maqomi berildi.

Saylovoldi tashviqoti tushunchasi, uni olib borish turlari, shakllari va usullari belgilab qo'yildi. Saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida

saylovoldi tashviqotiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilandi. Bundan tashqari, hokimiyat vakillik organlariga saylov to‘g‘risidagi qonunlarga ovoz berish kuniga qadar uch kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so‘rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, o‘tkazilayotgan saylov bilan bog‘liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga (e‘lon qilish), jumladan, ularni umumiy foydalanuvdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga, xususan, internetga joylashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi norma kiritildi.

2014 yil 21 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga navbatdagi saylov bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan jami 135 nafar va O‘zbekiston Ekologik harakatidan 15 nafar deputat saylandi.

2015 yil 12 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, shuningdek, siyosiy partiyalar fraksiyalari va Ekologik harakatdan saylangan deputatlar guruhining taklifiga ko‘ra quyi palata a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodlar ko‘rsatish bo‘yicha Oqsoqollar kengashini tuzdi.

Oqsoqolar kengashining taklifiga binoan deputatlar yashirin ovoz berish yo‘li bilan Nuriddinjon Ismoilovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri etib sayladi.

2015 yil 22 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Birinchi Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi va uning o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etdi. Senat a‘zolari yashirin ovoz berish yo‘li bilan Senat Raisi lavozimiga Nig‘matilla Yo‘ldoshevni, Rais o‘rinbosarlari etib Svetlana Ortiqova va Musa Erniyazovni sayladi.

2014 o‘tkazilan saylovlarning yana bir ahamiyatli jixati shunda ediki, saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzodni taklif etish, ushbu nomzodni Prezident tomonidan ko‘rib chiqish, yangi parlamentning qo‘shma majlisida bu nomzodni muhokama qilish va tasdiqlash tartibi Konstitutsiyamizning 98-moddasida va shu asosda qabul qilingan tegishli qonunlarimizda aniq belgilab qo‘yilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov Bosh vaziri lavozimida faol mehnat qilayotgan Mirziyoev Shavkat Miromonovich nomzodini tavsiya etdi. Deputat va senatorlar ovoziga ko‘ra Mirziyoev Shavkat Miromonovich Bosh vazir etib tasdiqlandi.

2. Ijro etuvchi hokimiyatning shakllantirilishi va faoliyati

Mustaqillik yillarida davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O'zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi - Ministrlar Sovetining maqomi tubdan o'zgartirildi. 1990 - yil 24 - martda O'zbekistonda prezidentlik lavozimi ta'sis etilgandan keyin hayotning o'zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o'zgartirishni talab qildi. 1990 - yil 15 - noyabrda O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni chiqdi. Unga muvofiq O'zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo'ldi. Respublikada vitse - prezident lavozimi ta'sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi. 1992 - yil 4 - yanvarda vitse - prezident lavozimi tugatildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta'sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi. O'zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo'ldi. Konstitutsiyaning 98 - moddasiga muvofiq saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzodni taklif etish, ushbu nomzodni Prezident tomonidan ko'rib chiqish, yangi parlamentning qo'shma majlisida bu nomzodni muhokama qilish va tasdiqlash tartibi aniq belgilab qo'yilgan. Vazirlar Mahkamasi a'zolari tarkibiga Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi kiradi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati bo'lib, ijro etuvchi hokimiyatdir. Uning vazifalari:

- davlat budjetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini ta'minlaydi;
- Oliy Majlisga davlat budjetining bajarilishi haqida hisobot beradi;
- yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshiradi;
- qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshiradi;
- iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

- barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Islahotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar 1990 - yil 30 - martda Respublika ijroiya hokimiyati 41 kishidan iborat etib tuzilgan bo'lsa, 1995 - yil 5 - mayda Vazirlar Mahkamasi 35 kishidan iborat etib tuzildi. 2000 - yil 11 - fevralda bo'lgan Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini 34 kishidan - Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o'rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo'mitalari raislaridan iborat etib tasdiqladi. 2003 - yil 24 - 25 - aprel kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89 - moddasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi" deyilgan qismi olib tashlandi. Vazirlar mahkamasi tarkibida Rais lavozimi bo'lmaydi. Saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod taklif etiladi. Ushbu nomzodni Prezident tomonidan ko'rib chiqilib, yangi parlamentning qo'shma majlisida bu nomzodni muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu holat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi. Bosh vazirning, hukumat va butun hukumat tizimlarining vakolatlari oshdi, mas'uliyati kuchaydi. O'zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi boshqaruv tuzilmasi yaratildi. Markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlash mexanizmidan bozor mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy - buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini o'zi idora etishga o'tildi. Ma'muriy - buyruqbozlik, to'rachilik tizimining tayanchlari bo'lgan bir qator Davlat qo'mitalari, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan qisqa tarixiy davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy - siyosiy tizim yaratildi. Mahalliy davlat hokimiyati tubdan isloh qilindi. Islahotlar O'zbekiston Respublikasining Kons - titutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonun (1993 - yil 2 - sentabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida"gi Qonun (1994 - yil 5 - may) asosida amalga oshirildi. Konstitutsiyaning 99 - moddasida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar, deb belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organga - vakillik va ijro hokimiyat organlariga bo'linishi belgilandi. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunning 1 - moddasida "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir", deb aniq belgilab qo'yildi. Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda vakillik organlari tuzilmaydi. "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi. Mustaqillik yillarida 1994 - yildan e'tiboran har 5 yilda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida saylovlar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy ijroiya hokimiyati organi qayta tashkil etildi. Bu borada milliy davlatchilik tarixi tajribasidan ijodiy foydalanildi. Jumladan, Amir Temur davridagi davlatchilikka nazar tashlasak, o'sha zamonlarda viloyatlar, shaharlar hokimlar tomonidan yakkaboshchilik asosida boshqarilganiga guvoh bo'lamiz. 1992 - yil 4 - yanvarda "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublikaning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida hokim lavozimi ta'sis etildi. Hokimlar faqatgina ijro hokimiyati organlarigagina emas, shuningdek, mahalliy vakillik organlariga ham rahbarlik qiladigan organ sifatida mustahkamlandi. Hokimning vakolat muddati 5 yil bo'lib, u tegishli hududda vakillik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladigan mansabdor shaxs hisob lanadi. Ijro organlarida bog'liqlikni ta'minlash maqsadida, viloyat hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati - hokimiyat tashkil etildi

1992 - yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati - hokimiyatlar tuzildi. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga kiradigan masalalar va vazifalar Konstitutsiyaning 100 - va 101 - moddalarida aniq belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof - muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish;

- xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.

Mustaqillik yillarida mahalliy hokimiyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida ijro hokimiyati bilan vakillik hokimiyati bir - biridan rasman ajratildi. Hokimlar xalq deputatlari Kengashlariga bo'ysunmaydi, ammo Kengash oldida hisob berib turadi. Shu bilan birga hokimlarni joylarda ham vakillik, ham ijro hokimiyati organlariga boshchilik qilish holatini vakillik organlari hokimlarga bo'ysunadi, deb tushunmaslik kerak. Vakillik organlari hokimlarga bo'ysunmaydi, vakillik organlari ishini tashkil qilishga hokimlar boshchilik qiladilar. Hokim mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni fuqarolarning manfaatiga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanadi. Shu maqsadda barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Hokimlar o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardir. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot tarixi guvohlik beradiki, ayrim hokimlar o'z faoliyatida jiddiy xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. O'zlariga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni bajarishni uddalay olmagan, o'z lavozimini suiiste'mol qiluvchi hokimlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ular vakolat muddatidan oldin hokimlik lavozimidan chetlashtirilmogda. Shunday qilib, Mustaqillik yillarida markaziy, viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv tartiblari tubdan yangi shaklda barpo etildi. Mahalliy davlat hokimiyatini shakllantirishda o'zbek milliy davlatchiligining tarixiy an'analari, rivojlangan davlatlarning zamonaviy tajribalari inobatga olindi.

3. Sud-huquq tizimining isloh etilishi

Demokratik davlat qurilishida sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sud hokimi - yati demokratik davlatda mustaqil hokimiyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106 - moddasi.) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993 - yil 2 - sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida" gi Qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi.

Mamlakatimizda sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, uni fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qila oladigan mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirib kelinmogda.

Xususan, o'tgan yillarda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligi jiddiy isloh qilinib, sud tizimi ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarildi. Umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib,

fuqarolik, xo‘jalik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tashkil etildi. Natijada jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko‘rib chiqish hamda inson huquq hamda erkinliklarini kafolatlovchi mustahkam huquqiy zamin yaratildi.

Bugungi kunda fuqarolar birinchi instansiya sudi qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, huquq va manfaatlarini apellyasiya instansiyasida, o‘z advokati ishtirokida himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. SHu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudi qaroriga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko‘rib chiqish tartibi batamom tugatildi. Joriy etilgan ushbu yangilik birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida tuzatish hamda sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘yilmasligining kafolatiga aylandi.

Sud-huquq islohotlarini uchta bosqichda tahlil etish ayni muddaodir. Avvalo, 1991 — 2000 yillar davomida tizim islohotlarining tashkiliy-huquqiy asoslari va yangi odil sudlov tizimi yaratildi. Ya’ni Konstitutsiyamiz va u asosida Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va boshqa bir qator kodekslar, shuningdek, sohaga oid qator qonunlar qabul qilindi. Shu yo‘l bilan sud-huquq sohasini tartibga soluvchi huquqiy baza to‘liq shakllantirildi.

Keyingi bosqich 2001 — 2012 yillarni o‘z ichiga oladi. Bunda inson huquq va erkinliklari himoyasida sud hokimiyatining rolini yanada oshirish, jinoiy jazoni liberallashtirish, o‘lim jazosini bekor qilish, sudga qadar ish yuritish bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, ya’ni shaxsni qamoqqa olishga sanksiya berish, ayblanuvchini lavozimdan chetlashtirish, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish huquqlarini sudlarga o‘tkazish, amnistiya aktini qo‘llashda sud tartibini o‘rnatish, advokatura institutini, ijro ishini yuritishni va protsessual qonunchilikni takomillashtirish kabi bir qancha muhim vazifalar hal qilindi.

2012 yildan shu kungacha bo‘lgan davrni qamrab olgan uchinchi bosqichda sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirishni davom ettirish, tizim xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash, sudlar faoliyatini yanada takomillashtirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar, xususan, sudyalik lavozimiga tanlashning yangi mexanizmlari yaratildi. Hozirgi kunda ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Prezidentimizning 2012 yil 2 avgustdagi “Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida sudyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda sudyalikka birinchi marta tayinlangan (saylangan) shaxslar Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudida tayyorgarlik va stajirovka o‘tashi, qolaversa, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, o‘tgan davrda bu borada salmoqli ishlar ro‘yobga chiqarildi. Ya’ni sudyalarga imtiyozli shartlarda uy-joy sotib olishi uchun uzoq muddatli ipoteka kreditlari berilmoqda. Uy-joyi ijaraga olganlar uchun esa har oylik pul kompensatsiyasi to‘lanayapti.

Mazkur Farmonda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarni optimallashtirish vazifasi ham nazarda tutilgan edi. SHundan kelib chiqib, eng avvalo, umumiy yurisdiksiya sudlarining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan tumanlararo, tuman, shahar

sudlarining samaradorligini yanada oshirish masalalari, ular faoliyatidagi muammolar atroflicha o'rganib chiqildi.

Davlatimiz rahbarining 2013 yil 4 oktyabrdagi "Tuman va shahar umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan ushbu masala hal etildi. Ya'ni qo'shimcha ravishda fuqarolik ishlari bo'yicha 12 ta tumanlararo (tuman) sudlar tuzilib, ushbu sudlarni to'ldirish hamda ish hajmi eng ko'p bo'lgan amaldagi tumanlararo (tuman) sudlar xodimlarining sonini ko'paytirish uchun fuqarolik ishlari bo'yicha sudyalarning soni 71 taga oshirildi. Shuningdek, ish hajmi nisbatan kamroq bo'lgan sudlardan 23 ta sudyalik lavozimini ish hajmi ko'proq bo'lgan tuman sudlariga o'tkazish orqali jinoyat ishlari bo'yicha sudlar xodimlarining soni qayta taqsimlandi.

Mazkur Farmonga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tuzilmasida Sudlar tashkiliy faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etildi. Unga sudyalar mustaqilligi, sudlarning ijro intizomi, ishlarni o'z vaqtida ko'rib chiqishi ustidan nazorat qilish hamda sudlar tashkiliy faoliyatini, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqishga doir ishlarini takomillashtirish, sud devonlari kadrlarini tanlash, joy-joyiga qo'yish va ularning malakasini oshirish vazifalari yuklatildi.

Sud amaliyotini umumlashtirish bo'limi negizida Axborot-tahlil bo'limi faoliyati shakllantirildi. Hozirgi paytda bo'lim har chorakda sudlar faoliyatini tizimli tarzda o'rganib, umumiy yurisdiksiya sudlaridagi sudlov ishlarining ahvoli to'g'risidagi materiallarni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi hamda Rayosati muhokamasiga kiritib kelmoqda. Shularga mos ravishda fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudlari, ularga tenglashtirilgan sudlarda Sud amaliyoti va statistikasi tahlili bo'limlari tuzildi. Muhimi, ko'rilgan bunday chora-tadbirlar tufayli sudlar faoliyati samaradorligi yanada oshishi barobarida, sud ishlariga jalb qilingan fuqarolar uchun qulayliklar yaratildi.

Prezidentimizning 2012 yil 30 noyabrdagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni soha islohotlarini yangi bosqichga ko'tardi. Bu hujjat bugungi kunda sudyalarning tom ma'noda mustaqilligini ta'minlash, ular faoliyatini va odil sudlovni amalga oshirish jarayonini cheklashga qaratilgan har qanday urinishni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Ayni chog'da sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar birmuncha kuchaytirildi. Ya'ni fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari va xo'jalik sudining sudyasi lavozimiga o'ttiz yoshdan kichik bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha, avvalambor, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanishi mumkinligi belgilandi.

Keyingi yillarda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlari ham soha rivojida muhim rol o'ynamoqda. Xususan, 2014 yil 20 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun asosida Mehnat kodeksiga, "Sudlar to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Ma'lumki, sud-huquq islohotlari jarayonida sohani har jihatdan etuk, o'z vazifasiga mas'uliyatli, bilimli hamda qasamyodiga sodiq, pok vijdonli kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, shunday yuksak fazilatlariga ega mutaxassis islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadni ro'yobga chiqarishga qodir. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasining 2013 yil 28 fevraldagi qarori bilan "Sudyalarning odob-axloqi qoidalarini" tasdiqlandi.

Mazkur qoidalar umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlari sudyalariga nisbatan tatbiq etilib, unga sudyalarning kasbiy faoliyatini amalga oshirishdan tashqari, xizmatdan boshqa vaqtlarda ham amal qilishlari shart qilib qo'yildi. E'tiborlisi, ilk bor sudyalik lavozimiga saylangan yoki tayinlangan shaxs sudyalik qasamyodini qabul qilgach, ushbu qoidalarining tantanali topshirilishi ham amaliyotga joriy etildi.

Alohida qayd etish lozimki, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini kuchaytirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2016 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi Farmon bilan sud- huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanib, sudlarni yanada ixtisoslashtirish, shu jumladan ilgor xorijiy tajriba asosida fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan ma'muriy sudlarni tashkil etish bo'yicha zarur vazifalar belgilandi.

2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustivor yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustivor yo'nalishlaridan iborat. Bunda sud hokimiyatining chinakam samaradorligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish ustivor vazifa qilib qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi.

Davlat dasturining 58-bandida sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini stahkamlash bo'yicha xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyasiya sudlarini tashkil etish, fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan ma'muriy sudlarni tashkil etish, sudlar tizimida sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish bo'yicha takliflar bilan bog'liq zarur vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingani sud tizimi tuzilmasini tubdan isloh etishga, ular faoliyati samaradorligini oshirishga, sudlarni ixtisoslashtirishda muhim qadam bo'ldi. Mazkur farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudini birlashtirish, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil etish; ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'grisidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlarini, tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tashkil etish; O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlarning 159 ta shtat birligini qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining qo'riqlash vzvodini tugatish; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar shtat birliklarini sudyalari va harbiy sudlar xodimlaridagi harbiy xizmatchilar huquqiy maqomi, shu jumladan harbiy xizmatchilar uchun belgilangan huquq, imtiyoz va afzalliklar saqlanmagan holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga o'tkazish; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'atini tugatib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atini tashkil etish; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari etib o'zgartirish; ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlarini tashkil etish; amaldagi sud majlisi kotibi lavozimini tugatib, belgilangan umumiy shtat birligi doirasida sudlarning tuzilmalariga sudya katta yordamchisi, yordamchisi lavozimlarini kiritish ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturining I-bandida boshqa masalalar qatori sudyalarning mustaqilligi va beg'arazligi prinsining so'zsiz amal qilishini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Xususan, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat dasturida sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba 5 yillik, keyin 10 yillik muddatini va shundan so'ng muddatsiz davrini belgilash nazarda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimiga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi negizida sud hokimiyati organi sifatida Sudyalari oliy kengashini tashkil qilish bu kengash faoliyatida

sudyalarning faol ishtirok etishi, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'yicha choralar ko'rish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash manfaatlariga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortish borasidagi sud raislari vakolatlarining bekor qilinishiga olib kelib, natijada sudyaning sud raislari tazyiqsiz ishlarni hal qilishi va muayyan ishlarni mazmunan ko'rib chiqishda chinakam mustaqil bo'lishiga olib keladi.

Isloxotlar kelgusida fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining ixtisoslashtirilgan sudlar tomonidan himoya qilinishiga, ularni odil sudlovga bo'lgan huquqlaridan foydalanishda qulayliklar yaratilishiga, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini yanada oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOXOTLAR. BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA LIBERALLASHTIRILISHI

1. Sobiq ittifoq davri iqtisodiyoti va uning inqirozi.
2. O‘zbekistonning bozor munosabatlarini shakllantirish tomon yo‘l tutishi, uning tamoyillari.
3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri bosqichlari va olamshumul natijalar.
4. Bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish istiqbollari.

1. Sobiq Ittifoq davri iqtisodiyoti va uning inqirozi.

Ayni kunlarga kelib O‘zbekiston rivojlanishning qisqa lekin salmoqli yo‘lini bosib o‘tdi. Mamlakatimizning hozirgi iqtisodiy yutuq va muvaffaqiyatlarini tasavvur etish uchun bu yutuqlarni sobiq totalitar tuzum davriga qiyoslashga zarurat tug‘iladi. Sobiq ittifoq davrida partiyaga sig‘inish, shuningdek, shaxsga sig‘inishga zo‘r berildi. Hatto bu davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat hayotini bunday andozaga ko‘ra boshqarish natijasida butun jamiyat bitti mafkuraga bo‘ysundirildi, axborot manbalari to‘laligicha hokimiyat qo‘lida to‘plandi, fuqaro huquq va erkinliklari maksimal darajada kamsitildi, markazlashgan iqtisodiyot, mulkchilikda davlat mulkining ustunligi yuzaga keldi. Leninizm niqobiga puxta o‘ralgan stalinizm jamiyatning hamma sohalariga kuch, aldov, qo‘rqitish, proletariat diktaturasi kabi vositalar bilan singdirildi. Axloqiy nopoklik, chaqimchilik, yolg‘onchilik har tomonlama rag‘batlantirildi. Mamlakat tashqi dunyodan butunlay uzib qo‘yildi.

O‘sha mash‘um davrlarni Birinchi Prezident Islom Karimov quyidagicha ifodalagan edi: “...biz shunday og‘ir zamonlarda yashaganmiz, ko‘pgina nohaqliklarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rganmiz. Siyosat boshqa-yu, hayot boshqa edi. Turli qalin kitoblarni chiqarib, shiorlar, ashulalarni to‘qib, hammani soxta g‘oyalarga ishontirish oddiy hol edi. Komsomol bo‘lmasang partiyaga kirmaysan, partiyaga kirmasang hech qanday vazifada ishlay olmaysan, dungan qarash hukmron edi”¹.

Sobiq ittifoq iqtisodiyoti XX asrning 60-yillaridan o‘z inqirozini boshlagan edi. Bu davrga kelib iqtisodiyotda ziddiyatlar kuchayib, mavjud ma‘muriy-qo‘mondonlik boshqaruv usulini qo‘llash oqibatida inqirozning oldini olish imkoniyatlari boy berildi. Inqirozning aniq ko‘rinishlaridan biri sohaga ajratilayotgan sarf-xarajatlarning o‘sishiga qaramay rivojlanish sur‘atlarining pasayishida namoyon bo‘ldi. Inqirozdan chiqish uchun iqtisodiy omillar ishga solinmadi, iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari e‘tiborga olinmadi.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib iqtisodiy inqirozdan chiqishga qaratilgan barcha urinishlar ham zoe ketdi. “Qayta qurish” siyosati bozor munosabatlari qonuniyatlariga zid boshqaruv usullariga asoslanganligi, moddiy rag‘batlantirish vositalari hisobga olinmaganligi, barcha resurslar yakkahokim partiya tomonidan tasarruf etilganligi uchun ham kutilgan samarasini bermadi.

¹ Karimov I A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. B 121-122.

Bu paytga kelib O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ham ittifoqda oxirgi o'rinlardan birini egallagandi. Jumladan, yalpi milliy daromad hajmi ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki marta kam edi. Shuningdek, aholining oziq-ovqat mahsulotlari va ijtimoiy ta'minlanish darajasi ham eng past ko'rsatkichlardan birini tashkil etardi.

Respublika hududida joylashgan ko'plab korxonalar bevosita Markaz buysunuvida edi. Amalda Respublika tovarni O'zbekiston ichki bozori uchun emas, balki tashib ketish uchun takror ishlab chiqarar edi. Respublika neft va boshqa energetika manbaalari bilan o'zini-o'zi ta'minlash bo'yicha katta imkoniyatlarga ega bo'la turib, 1 million tonnadan ziyod neftni chetdan olardi. Respublika g'alla, qand, go'sht va boshqa hayotiy mahsulotlarni tashib keltirishga majbur edi.

O'zbekistonda 1700 ta maktab avariya holatida edi. Aholi jon boshiga hisoblaganda, daromadi 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin odam, respublika aholisining 45 foizi qashshoqlikda kun kechirardi. O'zimizda yetishtirilgan paxta xomashyosining aksariyati chetga tashib ketilib, xalq iste'molini qondirish uchun tashqaridan har yili 8-9 milliard so'mlikka yaqin tayyor mahsulot olib kelingan. Ya'ni, yurtimizda shunchalik boy xomashyo resurslari bo'lishiga qaramasdan, ulardan deyarli tayyor mahsulot ishlab chiqarilmagan.¹

O'zbekiston ulkan mamlakatning paxta xomashyosi etkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Yetishtirilgan paxta hosiliga markaz egalik qila boshladi. Bunday ahvol respublikamizning agrar mintaqaga bo'lishini taqozo etdi. Oqibatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida qo'shni davlatlar va ittifoqdosh respublikalardan bir necha marta orqada qolib ketildi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida 12-o'rinni, daromad darajasi, asosiy turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan eng oxirgi o'rinlardan birini egallab keldi. Aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan 2 barobar, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha 2,5 barobar, sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan 2,5 barobar, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa 2 barobar, aholining o'rta hisobda go'sht mahsulotlari, tuxum, sut va sut mahsulotlari iste'moli bo'yicha 2 barobar orqada qolgan.²

Markazning ko'zga ko'rinmas, niqoblangan mustamlakachilik siyosati partiyaning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan edi. Turg'unlik davrida ham ana shu siyosat madaniyroq va puxta niqoblangan ravishda davom etdi. Ittifoqning Yevropa qismida to'xtovsiz ravishda kuchayib borayotgan xomashyoga bo'lgan talabni qondirish maqsadida O'zbekistonda paxta etishtirishning eng oxirgi imkoniyatlari ham ishga solindi. Oqibatda ekologik holat yanada yomonlashdi, mehnat yanada og'irlashdi. Xalqning turmush kechirish darajasi qiyinlashib, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yanada keskinlashdi.

¹ Batafsil qarang: Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011.

² Batafsil qarang: Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011.

Kommunistik partiya rahbarlaridan bir guruhining 1991-yil 19—21-avgust kunlari davlat to‘ntarishi qilishga urinishlari va uning oqibatida O‘zbekistonning boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy aloqalari ham uzilib, yarim asrdan ko‘proq davr ichida shakllangan xo‘jalik aloqalari izdan chiqdi. Markaz chiqargan rublning qadri butunlay tushib ketib, iqtisodiy aloqalarni natural mol ayirboshlash, barter asosida amalga oshirish odatga aylandi. Barcha respublikalar umumiy moddiy va iqtisodiy resurslarni olishga intilar, o‘zlaridagi boyliklarni tashqariga chiqishiga tish- tirnog‘i bilan qarshilik qilar edilar. Natijada barcha respublikalar, jumladan, O‘zbekiston ham 1991-yildan boshlab markazga bo‘ysunmaslik, o‘z milliy manfaatlariga e‘tibor beigan holda siyosat yuritishga o‘tdi.

Birinchi Prezident Islom Karimov “Xalqimizning fikri — biz uchun oliy mezon” nomli asarida o‘sha suronli davrda davlat to‘ntarishi qilishga urinishlarga barham berilganidan keyin markaz bilan har qanday munosabatlarni to‘xtatish va respublikada davlat mustaqilligi uchun kurashlarni avj oldirish yo‘lini tutgani holda quyidagi fikrlarni bildirgan edi:

“Buning ajablanadigan joyi yo‘q. Markaz o‘tkazayotgan siyosat chor Rossiyasi o‘tkazgan siyosatdan kam farq qilardi, respublikamiz xomashyo bazasi bo‘lib qolgan edi va bunday holga barcha tashkilotlar, eng avvalo, KPSS Markaziy Komiteti bilan Ittifoq rahbar oiganlari asosiy masala, deb qarar edi. Ular faqat bir narsani bilishardi — mazkur mintqa paxta, xomashyo bilan ta‘minlashi kerak, qolgani esa suvga cho‘kayotganlarning o‘z ixtiyoridadir, deb o‘ylashardi. Bizga ko‘p narsalar va‘da qilindi. Respublikamiz mamlakat paxta mustaqilligi yo‘lida ancha qurbonlar berdi. Biz, eng avvalo, aholini go‘sht, sut, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan, xalq iste‘moli mollari bilan ta‘minlash masalalarida qaram bo‘lib qoldik. Ekologiya to‘la buzilgani to‘g‘risida gapirmay qo‘yaqolaylik. Bu o‘rinda kishilarning zaharlangani va ular umrining qisqarganini aytib o‘tish kifoya. Bularning barchasi KPSS Markaziy Komitetining partiya shiori ostida olib borgan siyosati oqibati edi. Bularni to‘g‘ridan to‘g‘ri va oshkora aytish kerak, bu siyosat O‘zbekistonni jar yoqasiga olib keldi, uni qashshoqlashtirib yubordi. Bizni, o‘zingizni o‘zingiz boqa olmaysiz va sizga berilayotgan har bir sadaqa uchun Markazga minnatdorlik bildirishingiz kerak, deb ishontirishardi”¹.

Bu davrda respublikada sobiq ittifoqdan meros bo‘lib qolgan mafkuraviy yakkahokimlik, iqtisodiy inqirozlar, kishilarda davlatga va tuzumga bo‘lgan ishonchsizlik, xalq o‘rtasida paydo bo‘lgan parokandalik siyosiy bo‘xronlar uchun etilib qolgan edi. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1) respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. O‘zbekistonda aholining o‘sish sur‘atlari Ittifoq sur‘atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo‘lgani holda, aholining bunday o‘sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko‘paytirish hamda aholining hayot ta‘minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko‘payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

¹ Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: “O‘zbekiston”, 2011. 384-bet.

2) respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda sanoatda ham asosan xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi. Respublikada suv ko'p sarflanadigan va zararli ishlab chiqarishlar asossiz ravishda rivojlantirildi;

3) ishlab chiqaruvchi kuchlar va avvalo sanoat ob'ektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i, har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko'pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro'li mutaxassislarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi. Bu esa respublika iqtisodiyoti hamda aholi punktlarining ekologiyasiga g'oyat katta ziyon yetkazib, aholining hayot ta'minotiga, odamlarning yashashi va uyg'un kamol topishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga salbiy ta'sir o'tkazdi;

4) respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suv bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat ob'ektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Ana shunday og'ir va tahlikali bir sharoitda mavjud muammolarni hal qilish, xalqni milliy mustaqillik sari safarbar etish kabi maqsadlar rivojlanish kun tartibini belgilab bermoqda edi. Ayniqsa, bir necha yuz yilliklar o'zbek xalqining orzu-armoni bo'lgan milliy davlatni shakllantirish tarixiy zaruriyatga aylangandi. Tarixning ana shunday qaltis davrida Islom Karimovning respublika rahbari etib saylanishi, uning dastlabki faoliyati, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni o'zgartirishga doir dastlabki islohotlari respublikamiz aholisida kelajakka bo'lgan umid his-tuyg'ularini uyg'otdi.

Darhaqiqat, mustaqillik bois erishilgan yutuqlar, o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz qiyofasi yangilanib, o'zgarib borayotgani ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida barcha sohalarda amalga oshirilgan islohotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganini sifat jihatdan baholash va tahlil etishga undamoqda. Sobiq tuzum davrida xalqimiz qanday og'ir sinovlarni boshidan o'tkazganini esdan chiqargani yo'q. Prezidentimiz o'z asarlarida o'sha mash'um davrning og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy manzarasiga, jumladan, shunday baho bergan:

“Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha martalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 5 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalqta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarining 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo shundan ko'rsa bo'ladiki, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yokda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham etishmayapti".¹

1990 yilda Toshkentda O'zbekistonning, o'sha paytdagi sho'ro respublikalarining eng obro'li olimlari va mutaxassisleri ishtirokida o'tkazilgan "davra suhbatida"da o'zbek xalqining turmush darajasi sobiq SSSRda eng past darajada ekanligi, bu yerdagi tirikchilik, hatto ko'pgina Afrika mamlakatlaridagiga nisbatan ham orqada turishi ta'kidlanadi.²

O'sha davrda respublika iqtisodiyoti bir yoqlama tarzda, faqat xom ashyo etishtiradigan holga tushib qolganini yana shu narsada ko'rinardiki, sanoatda tayyor mahsulotning ulushi bor-yo'g'i 50 foizni tashkil etar, qishloq xo'jaligi mahsulotining 80 foizdan ko'prog'i mutlaqo qayta ishlanmasdan respublika tashqarisiga olib chiqib ketilardi.³

Masalan, 1990-yillarda ekin maydonlarimizning qariyb 90 foiziga qadar paxta ekilgan. Etishtirilayotgan qariyb 6 million tonna paxtaning atigi 8-10 foizini o'zimizda qayta ishlardik, qolgan qismi esa boshqa davlatlarda qayta ishlanardi. Natijada asosiy foyda paxta xomashyosini qayta ishlagan mamlakatlarga kelib tushardi.⁴

O'shanda sobiq markazda "mehnat taqsimoti" degan prinsip hukmron edi. Ya'ni, sobiq respublikalardan qay biri go'sht, yana biri bug'doy, yana kimdir boshqa tovarlarni iqtisodiy og'ir sharoitda eng qimmatli, noyob molga aylanib qoladigan mahsulotlarni ishlab chiqarardi. O'zbekiston chekiga paxta etishtirish tushgan bo'lib, uning hajmi yildan-yilga ortib borardi. Lekin, afsuski, va'da qilingan oziq-ovqat mahsulotlari belgilangan miqdor va muddatda O'zbekistonga etib kelmasdi. "Oqibatda, mamlakatda oziq-ovqat iste'moli, umu man, turmush darajasi bo'yicha oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldik. Paxtamiz uchun munosib haq to'lash o'rniga, bizga, boqimanda bo'lib qoldingiz, deb ta'na qilishdi."⁵

Xo'sh, shu qadar katta tabiiy boyliklarga, mehnat resurslariga, ishlab chiqarish va fantexnika imkoniyatlariga, qulay tabiiy iqlim sharoitlariga ega

¹ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. 166-168-betlar.

² Levitin L. Islom Karimov – yangi O'zbekiston prezidenti. T.: "O'zbekiston", 1996 yil, 50-bet.

³ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. 169-bet.

⁴ Islom Karimov. "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim xazinalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. O'zbekiston ovozi, 2014-yil, 7-iyun.

⁵ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. 183-bet.

bo'lgan O'zbekiston asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha SSSRda oxirgi o'rinlardan biriga, inqiroz holatiga tushib qolganining sababi nimada?

Bunday og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari sifatida I. Karimov quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

- 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarning tobora kuchayib borishi;

- respublikaga asosan xomashyo bazasi, Sobiq Markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarining mo'may xomashyo manbai sifatida qarab kelinishi;

- o'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan etarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagani, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

- iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqei va o'rnini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani.¹

2. O'zbekistonning bozor munosabatlarini shakllantirish tomon yo'l tutishi, uning tamoyillari.

1991 yil O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi, xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z taqdirini, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratadigan bo'ldi. Mamlakatimiz tarixida yangi davr - mustaqil taraqqiyot yo'li boshlandi.

Eng asosiy erishgan yutug'imiz shu bo'ldiki, eski ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan yangi bozor munosabatlari taraqqiyot yo'liga o'tish ba'zi qardosh mustaqil davlatlarda bo'lganidek, inqilobiy qon to'kilishiga olib kelgan yo'llar bilan emas, balki asta-sekin va qadamba-qadam rivojlanish orqali sodir bo'lmoqda.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari qadim zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha, bundan ming yillar muqaddam Buxoro va Xiva savdogarlari tovarlarni Hindiston, Xitoy, Rossiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga etkazib berganlar.

Bozor munosabatlari qonunlarini nazar-pisand qilmaslik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Sobiq SSSR da bozor iqtisodiyotiga aloqasi bo'lmagan iqtisodiyotni yaratishga urinib ko'rildi. Bu urinish xalqlarga juda qimmatga tushdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida rivojlanishning zamonaviy modellari shakllana boshladi. "Model" tushunchasining talqinlari turlicha bo'lib, ular ba'zan umumiylik jihatlariga ega bo'lsa-da, ko'pincha bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Ba'zi olimlar modelni "davlat tuzumi" desa, boshqalari "ijtimoiy-iqtisodiy formasiya" deb talqin etadi. Yana ba'zilari esa uni "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li shaklining chizgilari (ko'rinishi)", deb talqin etadi. Ba'zi o'zbek olimlarining fikricha, model — "iqtisodiy bazisning asosi bo'lgan huquqiy, ma'muriy, xo'jalik (bank, kredit,

¹ Batafsil qarang: Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. 163-230-betlar.

soliq va boshqa) mexanizmlar yordamida muvofiqlashadigan o'zaro iqtisodiy munosabatlarning keng ko'lamli tizimidir". Shuningdek, model ko'pincha "rivojlanish modeli" yoki "iqtisodiy rivojlanish modeli" tushunchasi sifatida ilmiy muomalaga kira boshladi. Aksariyat olimlarning fikricha, model "jamiyatda amal qilayotgan mulkiy munosabatlar va tashkiliy shakllar asosida ro'y berayotgan barcha iqtisodiy jarayonlar yig'indisi mazkur jamiyatning iqtisodiy modelini tashkil etadi". Model mohiyatini tushunish asnosida jamiyatning xo'jalik hayotining ko'plab qonuniyatlarini anglab yetish mumkin.

Keyingi o'n yilliklarda bozor, buyruqbozlik va aralash modellarni bir-biridan ajratib ko'rsatish rusumga kirdi. Aksariyat mamlakatlar intilayotgan model — bu bozor iqtisodiyoti modelidir.

Xo'jalik yuritishning bozor tizimi iqtisodiy rivojlanishning turli modelining shakllanishini taqozo etdi. Ularning ichida rivojlanishning amerikacha, yapon, nemis, shved, fransuz va janubiy Koreya modeliari o'zining samaraliligi bilan ajralib turadi.

Masalan, amerikacha model aholining faol qismini boyishiga, tadbirkorlik faolligini har tomonlama rag'batlantirish tizimi asosiga qurilgan. Aholining kam ta'minlangan guruhlari uchun turli imtiyozlar va ko'mak berish hisobidan maqbul hayot darajasi yaratiladi. Bu modelda ijtimoiy tenglik masalasi qo'yilmaydi. Bu model yuqori mehnat unumdorligiga va shaxsiy mufaqqiyat qozonishga asoslanadi. Umuman amerikacha modelga iqtisodiy muvozanat va barqaror vaziyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat ta'sirini qo'llash xarakterli jihatdir.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishning, milliy an'analariga asoslangan o'z yo'lini tanlab oldi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'z modelini ishlab chiqdi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi. Gap biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'risida borayotgani yo'q. Mamlakatmiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq, "jaxon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi".¹

O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyot konsepsiyaning qoidalari Birinchi Prezident I. A. Karimovning kitoblarida, maqolalarida, nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda asoslab berilgan. "Bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv zarurat sifatida davr taqozosi bo'lib qoldi. Bozor iqtisodiyoti - umumbashariy hodisa bo'lib, jahon sivilizatsiyasi rivojlanishi yo'lidagi muqarrar bosqichdir. Tartibli asosga qurilgan bozorgina hozir xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, tekinox'rligni tugatishga, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga, manfaatdorlik va unutilib yuborilgan xo'jayinlik tuyg'usini qayta tiklashga qodirdir. Faqat bozorgina mahsulot ishlab

¹ Qarang: Mustaqil O'zbekiston tarixi/ N. Jo'raev, T. Fayzullaev; tahrir hay'ati A. Sagdullaev, N. Komilov, N. Abduazizova va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi. — To'ldiridgan, qayta nashr. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009. 51-bet.

chiqaruvchining zo‘ravonligiga barham berib, ishlab chiqarishni iste‘molchining manfaatlariga bo‘ysundira oladi, mahsulotlarga talabni to‘g‘ri hisobga olish, bozordagi o‘zgarishlarga qarab tez harakat qilish imkonini beradi”.¹

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li respublikamizning milliy o‘ziga xosligi va manfaatlariga, uning hayoti, sharoiti va imkoniyatlariga, O‘zbekiston an‘analariga, uning tarixiga va xalqning xususiyatiga muvofiq keladi.

Ushbu tanlangan yo‘lning mohiyati O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning besh tamoyilida ta’riflab berilgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, boshqa davlatlarda ham tan olindi.

“...Iqtisodiy islohotlarning “o‘zbekona yo‘li” – bu Islom Karimovning kashfiyoti, ko‘p ma’noda, agar ta’bir joiz bo‘lsa, uning “nou-xau” sidir. Bu uning alohida iqtisodiy salohiyatining, tiniq aql-idrokning, oddiy odamlarga nimalar zarurligini yaxshi tushunadigan siyosiy arboblik iste’dodining va albatta, jaxon tajribasini yaxshi bilishining natijasidir”.²

“Ilg‘or mamlakatlarning tajribasiga ko‘ra, faqat bozor munosabatlariga o‘tish xalq farovonligi, uning turmush darajasi va ravnaqini o‘stirish yo‘lida respublika ishlab chiqaruvchi kuchlaridagi juda katta imkoniyatlardan to‘la-to‘kis foydalanishni ta’minlashi mumkin”.³

Iqtisodiy mustaqillik deganda nimani tushunamiz? Eng avvalo, har qanday davlat yoki mamlakat iqtisodiy mustaqil bo‘lishi uchun uning iqtisodiyoti, xo‘jaligi boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga qaramlikdan holi bo‘lishi, eng muhim oziq-ovqat, iste‘mol mollari, strategik hom-ashyolar bilan o‘zini-o‘zi, asosan, ta’minlashi kerak. Iqtisodiy mustaqil davlat boshqa davlatlar bilan teng huquqli, o‘zaro manfaatli bitimlar tuzishning iqtisodiy jihatdan kafolatlanganligini ifodalaydi.

O‘tish davri qiyinchiliklarini bartaraf qilish konsepsiyasining poydevorini tashkil etuvchi beshta qoida quyidagilardan iborat:

Birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli etishni ta’minlash zarur;

Ikkinchidan, davlat asosiy islohotchi bo‘lishi kerak, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini engishi lozim;

Uchinchi qoida - qonunning ustunligi. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul etilgan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishga va ularga rioya etishga majburlirlar;

To‘rtinchidan, fuqarolarning nufuzini e’tiborga olib, kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilishi kerak;

Beshinchidan, bozor iqtisodiga o‘tish iqtisodiyotning ob’ektiv qonunlarini e’tiborga olib, o‘tmishdagi “inqilobiy sakrashlar”ga yo‘l qo‘ymay, yangi evolyusion yo‘l bilan, puxta o‘ylab va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

¹ Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. С 288.

² Levitin L. Islom Karimov – yangi O‘zbekiston prezidenti. T.: “O‘zbekiston”, 1996 yil, 48-bet.

³ Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996 yil, 63-bet.

Bu tamoyillarni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

1) Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligini qanday tushunmoq kerak?

Bir qancha mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatdiki, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo'ysundirilganda u barbod bo'ladi. "Iqtisodiyot, - deb ta'kidlaydi Birinchi Prezident I. A. Karimov, - hamisha siyosatdan yuqori turishi lozim"¹.

Butun insoniyat tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson - u dehqonmi, ishchimi, agronommi - kim bo'lmasin, o'z ish joyida o'zini xo'jayin deb his qilishi, o'z mehnatining natijalaridan moddiy jihatdan manfaatdor bo'lish kerak. Bu narsalar, inson mehnatining mahsuloti bozorning o'zi belgilab beradigan narxlar bo'yicha erkin sotilishi kerak. Bozorning qoidasi esa shunday: kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo'lsa, o'sha mahsulotga talab hammadan ko'ra ko'proq bo'ladi. Bu yerda hech qanday siyosat o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

2) Nima uchun davlatning o'zi asosiy islohotchi bo'lishi kerak?

Bozor munosabatlari rivoj topgan davlatlar iqtisodiyotga kamroq buyruq berishga harakat qiladi. Basharti vaziyat taqozo etsa, paydo bo'lgan muammolarni hal etishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bizda, bozor iqtisodiyotga o'tilar ekan, eski iqtisodiy mexanizmni yo'qotib, o'rniga yangi bozor mexanizmini bir laxzada yaratib bulmaydi. Ularni barpo etish, shakllantirish uchun muayyan vaqt kerak. Prezidentimizning "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay" degan gaplarida jon bor. Xo'jalikning tayanch tarmoqlari - umummilliy manfaatlarga dahldor bo'lgan eng muhim vazifalarni davlat amalga oshiradi.

Bozor munosabatlariga o'tish uchun ishlab chiqarish va taqsimotning butun tizimi, davlatimizning va ijtimoiy tuzumning binosini qaytadan bunyod etish kerak. Bu ishlarni davlatdan boshqa hech kim hal qila olmaydi. Mana shuning uchun ham bizning bozor munosabatlariga o'tishimizda davlatning o'zi bosh islohotchi vazifasini bajaradi.

3) Qonun ustuvorligini zaruriyati nimada?

Bozor munosabatlarini zo'ravonlik yo'li bilan shakllantirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti huquqiy me'yorlar va qoidalarga tayanishi bilan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi.

"Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi"², - deydi Birinchi Prezident I. Karimov.

Kurinib turibdiki, qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruratidan ham kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi.

Ma'rifiy dunyodagi bozor – bu eng avvalo qonunga hurmat demakdir.

4) Kuchli ijtimoiy siyosat yuritishning zaruriyati nimalar bilan bog'liq?

¹ Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 1996 yil, 155-bet.

² Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. С 119.

Bu O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli, xalqning turmushi, demografik vaziyat bilan bog'liq. Aholi tarkibida 18 yoshga etmaganlarning hissasi ko'p. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va himoyaga muhtoj bo'lgan qatlami kengayadi. Shuning uchun davlat himoyaga muhtoj qatlamlarni muhofaza qilish uchun baholi qudrat zarur tadbirlar ko'radi. "Adolat nuqtai nazaridan qaraganda ham ko'p bolali oilalar, nogironlar, bozor iqtisodi zarbasi ostida qolganlar, o'zini o'nglab ololmayotganlar, xullas — yordamga, madadga muhtojlarni Prezident o'z panohiga olishi shart"¹, - deb ta'kidlaydi Islom Karimov.

5) Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish nimani bildiradi?

Bozor iqtisodiyoti murakkab tizim bo'lib, uni birdaniga yaratib bo'lmaydi. Totalitar tuzum psixologiyasidan bozor psixologiyasiga o'tish uchun vaqt hamda yangi iqtisodiy, ma'naviy imkoniyatlar va sharoitlar kerak. Bu ishlarni hammasini bajarish uchun vaqt talab qilinadi.

O'zbekiston o'tish davrining avval boshidanoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'lini tutdi, shuningdek, uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda mujassamlashdi. Mamlakatni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurati qator obektiv shart-sharoitlar natijasida paydo bo'ldi:

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli"ning o'ziga xos jihatlari shundaki, o'tish davri bosqichma-bosqich, bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini va bozor infratuzilmalarini shakllantirish, yangicha sharoitlarda ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash kabi vazifalarni bajarishga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. O'tishning "sakrash" yoki "inqilobiy" yo'llari O'zbekiston mamlakati uchun mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bozor munosabatlariga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratish va islohotlarni ijtimoiy jihatdan nochor ijtimoiy qatlamlarni himoyalab borish bu jarayonni tadrijiy tarzda kechishini taqozo etadi. O'tish davri "shok terapiyasi" yo'liga nisbatan uzoqroq kechsa-da, u milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga, milliy manfaatlarga, ittifoq davrida paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etishni tugallash islohotlariga mos tushadi.

Zarur tayyorgarliksiz davrini bosib o'tmasdan, ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni hisobga olmasdan bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirish inqirozga olib kelishi, iqtisodiyotni xonavayron qilishi, bozor iqtisodiyoti g'oyalari obro'sini to'kishi aniq va ravshan edi. Jahonda amal qilayotgan erkin baholarga tezlik bilan o'tish aholining asosiy qismini qashshoqlashuviga, darmodlarining keskin kamayishiga olib kelib, kuchli ijtimoiy larzalarni keltirib chiqarishi turgan gap edi.

2. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning faol muvofiqlashtirish roli namoyon bo'lmasa, bir necha o'n yillar totalitar jamiyatni o'z boshidan kechiigan mamlakatda o'z-o'zidan islohotlarni amalga oshirish mutlaqo mumkin emas edi. Ayniqsa, o'tishning dastlabki davrida hali iqtisodiyotni o'zini o'zi muvofiqlashtirishining bozor mexanizmlari shakllanmagan, to'liq bozor iqtisodiyotiga o'tilmagan, bozor infratuzilmasi yaratilmagan, raqobatdoshlik

¹ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T.: "O'zbekiston", 2011. 429-bet.

uchun shart-sharoitlar shakllantirilmagan bir paytda davlatning islohotchilik rolini oshirmasdan hech narsaga erishib bo'lmay edi. Ayniqsa, iqtisodiyotdagi inqirozli vaziyatlarda turli buzg'unchilik g'oyalariga berilgan guruhlar jamiyatning yashashi uchun xavf tug'dirmoqda edi. Mamlakat hali tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning moddiy hamda moliyaviy resurslariga ega emas edi.

3. O'tish davrining boshida aholi keskin o'zgarishlarga tayyor emas edi. O'tish davri bozor iqtisodiyotiga doir yangicha fikrlashlarning shakllanishiga, kishilarni bozor iqtisodiyoti jarayonida o'z o'rnini va rolini anglashiga, o'z mulkiga va o'z mehnatining natijalariga yangicha munosabatlarni shakllantirishiga, o'z majburiyatlari uchun o'z burchini anglab etishiga bog'liq edi. Bu jarayonlarning kechishi uchun qandaydir fursat ichida ulkan tayyorgarlik ishlarini olib borishga zarurat bor edi. Buning uchun islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi taqozo etilmoqda edi.

4. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish boshqaruv kadrlarining yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash uchun ham zarur edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi boshqaruv kadrlari bozor qonunlarini chuqur o'zlashtirganligi, raqobatli bozorning murakkab vaziyatlarida tezlik bilan to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega ekanligi, tashabbuskorligi, etakchilik sifatleri bilan ajralib turishi lozim edi. Ayniqsa, bozor sharoitida yangicha fikrlaydigan kadrlardan davlat organlari va bozordagi hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarda o'z majburiyatlarini bajarish burchini sezish mas'ulligini egallagan bo'lishi talab etilay edi. Bu kabi sifatlarni shakllantirish uchun vaqt kerak edi. Buning uchun davlat dasturlari miqyosida ta'lim tizimini chuqur isloh qilish zarurati mavjud edi. Ilg'or texnika va texnologiyani, zamonaviy axborot tizimini, bir necha xorijiy tillarni biladigan, o'z Vataniga sadoqatli kadrlarga o'tish davrining muhim strategik vazifalarini chuqur anglashlari mumkin edi.

O'zbekiston davlati mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlarini amalga oshirish maqsadida quyidagi strategik maqsadlarni belgiladi:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko'p ukldli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

Albatta, bu islohotlarning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida xalq farovonligini oshirish, mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdan iborat edi. Islohotlar mazmun- mohiyatini "Islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun", "Yangi uyni qurmasdan turib eskisini buzmay" kabi xalq ichida mashhur bo'lib ketgan shiorlar ifodalab bergan edi. Bu jarayon islohotlar inson manfaatlariga mos kelgan, uning talab va ehtiyojlarini qondirishga yordam bergan, turmush darajasini oshirishga qaratilganligi, o'zida milliy manfaatlarini aks ettirgani uchun ham misli ko'rilmagan darajada rivojlandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi va dasturi eng muhim va dolzarb vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilishga qaratilganligi uchun ham o'zining yuksak natijalarini berdi. O'tish davrining birinchi bosqichi — totalitar o'tmishdan hozirgi, zamonaviy bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan chora-tadbirlar zanjiridagi boshlang'ich bo'g'in vazifasini bajardi. Bu bosqichda ikkita o'ta muhim vazifa birdaniga hal qilindi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat edi:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini engish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirishdan iborat.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish vazifalarini amalga oshirishning birinchi bosqichida iqtisodiyotni dastlabki isloh qilishning ustuvor yo'nalishlariga muhim ahamiyat berish, ularni bajarishga barcha iqtisodiy va insoniy resurslarni safarbar etish natijasida mamlakat o'zida rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan sifat belgilarini mujassamlashtira boshladi.

3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bosqichlari va olamshumul natijalar.

Mamlakat Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o'tish davri bosqichlarini tavsiflar ekan, quyidagi fikrlarni bildiradi: "O'tgan davrda amalga oshirgan barcha ishlarimizni baholar ekanmiz, bugungi O'zbekistonning shakllanishidagi ikki bosqichni alohida ajratib ko'rsatish uchun barcha asoslarimiz bor. 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich — o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlar davri.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta'minlashda 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich — mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallashtirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi ana

shu yillarning barchasini o‘zaro bog‘laydigan hal qiluvchi asos, o‘zak bo‘g‘in bo‘lib xizmat qildi”.

O‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan birinchi bosqich — 1991—2000-yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqich mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirdi, tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan davr bo‘ldi.

Bu bosqichni bozor munosabatlariga o‘tish dasturini amalga oshira borib milliy iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini 1991-yildan buyon xo‘jalik yuritish tizimini isloh etishning rivojlanish ko‘lami, bu jarayon natijalarining inson taraqqiyoti uchun ahamiyatidan kelib chiqib quyidagi o‘zgarishlar davrlariga ajratish mumkin:

Birinchi davrda (1991 — 1993 yy.) bir tomondan, pul- kredit siyosati qattiqqo‘llik bilan qo‘llangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan — tomorqa xo‘jaligi, davlatga qarashli turar joy, kichik savdo va ovqatlanish, maishiy xizmat va boshqa ishlab chiqarishga oid korxonalar imtiyozli tarzda cheklangan xususiylashtirish jarayoni amalga oshirildi. Bu uyg‘unlikda amalga oshirilgan islohotlar o‘zini oqladi. Qattiqqo‘llik bilan amalga oshirilgan pul-kredit siyosati ijtimoiy ehtiyojlar, xususan, aholi hayot darajasini keskin pasayib ketmasligi uchun etarli darajada bo‘lgan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, aholining nochor qismini ijtimoiy jihatdan ta’minlash, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakat xavfsizligi va jamoatchilik tartibini saqlash uchun zarur bo‘lgan soliqlarni yig‘ishga qaratilgan edi. Amalga oshirilgan xususiylashtirish esa kichik biznes, xususiylashtirish barobarida fuqarolarga o‘z xohishlaridan kelib chiqib tasarruf etishlari uchun xususiylashtirish mulk ulashish masalasini yo‘lga qo‘ydi. Mazkur islohotlar ishlab chiqarish hajmini pasaytirmasdan ushlab turish, tashqaridan moliyaviy tushumlarni kamayishidan keladigan noxush hodisalarning oldini olish, aholi turmush darajasi tushib ketmasligi kabi muammolar paydo bo‘lmasligining oldini oldi. Odamlarda barqarorlikka, o‘zlarini himoyalanganligiga, ertangi kunga ishonch shakllandi.

Ikkinchi davrda (1994—1996 yy.) hukumat xususiylashtirish ko‘lamini kengaytirish, xususiylashtirish tadbirkorlikni rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga nisbatan davlat byurtmasi tizimini va tashqi savdo rejimini erkinlashtirish, shuningdek bank tizimini isloh etish siyosatini kuchaytirdi. Bu chora-tadbirlarning samarasi mazkur davr oxiriga kelib yaqqol sezildi. 1996-yilda O‘zbekiston MDH davlatlari ichida birinchi bo‘lib o‘z iqtisodiyotining o‘sganligini, tanlagan yo‘li to‘g‘riligini, islohotlarning bosqichma-bosqichligi o‘zini oqlaganligini namoyish etdi.

Uchinchi davrda (1997—1999 yy.) iqtisodiy o‘rnatilishning mo‘tadilligiga erishildi. Bu o‘rnatilishga kichik biznes va xususiylashtirish tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, import o‘rnini bosuvchi sanoat tuzilmalarining tarmoqlarini, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish va hukumat tomonidan amalga oshirilgan boshqa chora-tadbirlar kuchli ta’sir etdi.

2001-yildan boshlangan muddatni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich — faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri sifatida tarixga kirdi. Bu bosqich mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, siyosiy

hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tishga doir dasturiy vazifalarni bajarishda asosan milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarni saqlashga, xalqning asriar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, davlat bosh islohotchi sifatida muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va uni qo'llashda ham o'z sobitqadamligini ko'rsatdi.

1991—2000-yillar davomidagi islohotlarning chuqurlashtirishi natijasida milliy davlatchilik shakllantirildi va respublika barqaror rivojlanadigan mamlakatga aylandi. Tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy qonunchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi. Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi.

Bu bosqichning muhim natijalari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jiimiya asoslarini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Bu bosqichda hukumat tomonidan ichki va tashqi iqtisodiyotni keng miqyosli erkinlashtirish islohotlari boshlandi. Makroiqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish, kichik va xususiy biznesni har tomonlama rag'batlantirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotni yuksaltirish uchun ko'rilgan boshqa choralar uning barqaror ravishda o'sishini ta'minladi.

Ikkinchi bosqichdagi iqtisodiy yuksalishlarning asosiy sababi xo'jalik yuritishning barcha sohalari va boshqaruvni chuqur isloh etish, iqtisodiyot tarmoqlari tuzilmalarini, ayniqsa, sanoatni rivojlantirishni oqilona tarzda tashkil etish, hukumatning biznes uchun eng qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhitni shakllantirishga doir siyosatini amalga oshirishdan iborat ichki omillarni ishga solishda bo'ldi. Shuningdek, iqtisodiy yuksalishga tashqi omillar ham ijobiy ta'sir etdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tarixiy rivojlanishning eng og'ir va mashaqqatli pallasida o'z davlat mustaqilligini e'lon qildi. Turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy bo'xronlar muhitida mamlakatning hududiy birligini saqlab qoldi, jamiyatni turli siyosiy kuchlar tomonidan bo'lib yuborilishining oldini oldi. Hukumat tomonidan olib borilgan yaratuvchilik siyosati natijasi o'laroq bosqichma-bosqich, qadamba-qadam ijtimoiy ziddiyatlar bartaraf etib borildi, iqtisodiy o'sishlar uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Tarixning ana shunday qaltis davrida bozor iqtisodiyoti va demokratik fuqarolik jamiyatiga o'tishning "O'zbek modeli" ishlab chiqildi. Mustaqillikning o'tgan 26 yili ichida bu model nafaqat o'zini oqladi, balki ko'plab o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun namuna sifatida ham keng tanila boshladi. O'zbekiston davlati bozor iqtisodiyotiga o'tishida boshqa mamlakatlarda ro'y bergani kabi turli siyosiy kurashlar, o'zaro ichki urushlar va nizolar, millatlararo to'qnashuvlar, diniy ekstremizm xurujlari kabi oqibati salbiy tahdidlardan saqlab qoldi. Mamlakat iqtisodiy larzalarsiz, aholini nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalagan holda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tdi. Bu, albatta, davlatning bosh islohotchilik roli va uning ozod va farovon Vatan, erkin hayot qurish islohotlarini astoydil va fidoyilarcha olib borganligining natijasi bo'ldi.

4. Bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish istiqbollari.

O'zbekiston iqtisodiyoti "O'zbek modeli"ni tatbiq etish natijasida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining noxush oqibatlariga bardoshli ekanligi bilan ham xalqaro hamjamiyatga tanildi. Inqirozga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf qilishga doir strategiyani qabul qilinishi jahonda juda ham ozchilikni tashkil etgan mamlakatlar qatorida iqtisodiy rivojlanish sur'atini ta'minlab berdi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti ning yillik o'sishi 2008-2015 yillarda 8 foizdan kam bo'lmadi. Jahon moliyaviy institutlarining baholashicha dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etildi. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari rivojlangan mamlakatlarga xos tarzda namoyon bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida Birinchi Prezident I. A. Karimovning "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi ma'ruzasida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirishga doir ilgari surilgan dastur va uni amalga oshirish jarayoni bu sohada yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi Prezident I. A. Karimov o'z ma'ruzasida iqtisodiyotni liberallashtirishni mamlakatni modernizatsiyalashning omili sifatidagi ahamiyatiga yuksak baho berib, istiqboldagi vazifalar to'g'risida quyidagi fikrni bildiradi: "...mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor".

Mustaqillik davrida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, islohotlarning keyingi bosqichida esa "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Xususiy korxona to'g'risida", "Valyutani tartibga solish

to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiy hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularning barchasi mamlakat iqtisodiyotini yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Konsepsiyada mustaqillikning o'tgan davri ichida bozor islohotlarini liberallashtirish natijalari chuqur tahlil etilib, keyingi islohotlarni chuqurlashtirish davri uchun strategik dasturiy maqsadlar ilgari surildi. Unda har bir tadbirkor davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisi ekanligini o'zida chuqur hisqilgan holda o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishiga shart-sharoitlar yaratish maqsadida xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish taklifi ilgari surildi.

Shu bilan birga, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to'g'risida"gi Qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etishi, unda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qat'iy cheklangan ro'yxati va turlarini aniq belgilab qo'yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlashga doir huquqiy asoslarni shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Konsepsiyada mamlakatda o'tgan davrda bozor iqtisodiyoti sohasidagi o'zgarishlarning ishonchli qonunchilik bazasini istiqbolda qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarurligi, jumladan, aksiyadorlik kompaniyalari o'zlarining bozor munosabatlariga mos maqomiga muvofiq faoliyat yuritishi uchun "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozimligi ko'rsatib o'tildi. Mazkur qonundagi aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yig'ilishlari, taftish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar, ya'ni qo'lida aksiyasi kam bo'lgan aksiyadorlarning kafolatlarni ko'proq ta'minlash, barcha aksiyadorlarni va bo'lajak investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqligiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010- yilning 12-noyabrida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" konsepsiyasini qabul qilgandan keyin unda taklif etilgan yangi huquqiy asoslarni shakllantirish davri boshlandi. Unda taklif etilgan qonunlarning loyihalari ishlab chiqildi, ularning bir qismi parlament tomonidan qabul qilindi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-

aprelda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni Konsepsiyada ilgari surilgan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonga muvofiq, 2014—2015-yillarda investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish samaradorligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Unda ko‘rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyotni liberallashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish islohotlari o‘zining ulkan natijalarini bera boshladi. 2015 yil yakunlari bo‘yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foizga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.¹ Holbuki, bu ko‘rsatkich 2006 yilda yalpi ichki mahsulot 7,3 foiz, sanoatda ishlab chiqarish hajmi 10,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 6,2 foiz, qurilish-pudrat ishlarida 12,8 foizdan iborat edi, xolos.² Darhaqiqat, mustaqil rivojlanish yillarida mamlakatimiz iqtisodiyoti qariyb 6 barobar o‘sganligi, oxirgi 11 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining oshishi barqaror ravishda 8 foizdan yuqori bo‘lib kelayotgani diqqatga sazovor. Shu bilan birga, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mutanosibligi, davlat byudjeti va to‘lov balansining barqaror ravishda profitsit bilan bajarilishi, eksport hamda oltin-valyuta zaxiralarining o‘sishi ta‘minlanmoqda. Dunyoda taraqqiyotning “o‘zbek modeli” deb tan olingan dastur ushbu muvaffaqiyatlarning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilayapti, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Faqat so‘nggi yillarning o‘zida bunyod etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, “Jeneral motors” kompaniyasi bilan hamkorlikda ishga tushirilgan avtomobil dvigatellari zavodi, “MAN” kompaniyasi ishtirokida Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va avtobuslar, Yaponiyaning “Isuzu” kompaniyasi bilan birgalikda avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi quvvatlarning foydalanishga topshirilishi, “Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida “Damas” va “Orlando” yengil avtomobillari ishlab chiqarishning o‘zlashtirilganligi respublikamiz sanoat salohiyati naqadar yuksakligini yaqqol tasdiqlab turibdi.

Qayd etish kerakki, bu kabi yirik loyihalar ko‘lami yil sayin kengayib, yurtimizning eng olis hududlarini ham qamrab olmoqda. Uzoqqa bormaylik, 2014 yilda iqtisodiyotimizning etakchi tarmoqlarida umumiy qiymati 4,2 milliard AQSH dollarilik 154 ta yirik ob‘ekt foydalanishga topshirilgan.³

¹ Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Farg‘ona haqiqati, 2016 yil 20 yanvar.

² I. Karimov. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. –T. 15. –T.: “Ўзбекистон”, 2007. 155-bet.

³ 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiyl mulk va xususiyl tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-

Nufuzli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan yuqori baholanayotgan yutuqlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari butun jahonda “o‘zbek modeli” sifatida e’tirof etilib, bu tanlangan rivojlanish strategiyasining yuqori samaradorligi va muvaffaqiyatini yana bir bor tasdiqlagani alohida qayd etish lozim. Jahon iqtisodiy forumi reytingiga muvofiq O‘zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o‘sinh prognozlari bo‘yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy oldi.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy o‘zaklaridan biri bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirishdagi roli va o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda va bu jarayon iqtisodiyotning tarkibida bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarga kuchli ta’sir eta boshladi. O‘tgan davr mobaynida xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning kafolatlarini kuchaytirish va ularning qonuniy huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatadigan Yagona markazlar orqali tashkil etish va amalga oshirishni soddalashtirish va yengillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning turkumi qabul qilindi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2015 yilga kelib kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,7 foizga etdi.¹ Vaholanki, 1999 yilda kichik biznesning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 29,1 foizga, 2003 yilda esa 35 foizga teng edi.²

Tarkibiy o‘zgartirishlar, tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo‘yicha chora-tadbirlar va investitsiya loyihalarining faol amalga oshirilishi, shuningdek, zamonaviy infratuzilmaning shakllantirilishi 2015-yilda 15,8 milliard AQSH dollari miqdorida yoki 2014 yildagiga qaraganda 9,5 foiz ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirilishini ta’minladi.³

Ko‘rinib turibdiki, mustaqillikning o‘tgan davri ichida “O‘zbek modeli” asosida bozor iqtisodiyotiga o‘tish, bu sohani liberallashtirish o‘zini oqladi. Mamlakatda rivojlangan mamlakatlarga xos iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish sur’atlari ro‘y bera boshladi. Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitida ham mamlakat yalpi ichki mahsulotining bir necha yillar davomida yiliga 8 foizdan o‘sib borganligi fikrimizga dalildir. Shu bilan birga, iqtisodiy salohiyatni o‘sishi nafaqat ijtimoiy sohani rivojlanishiga ta’sir qildi, balki jamiyatda yangi ijtimoiy

iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/-tub-tarkibiy-zgarishlarni-amalg-17-01-2015>

¹ Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Farg‘ona haqiqati, 2016 yil 20 yanvar.

² I. Karimov. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjixatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – T.: “Ўзбекистон”, 2004. 227-bet.

³ Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Farg‘ona haqiqati, 2016 yil 20 yanvar.

qatlamlarni shakllanishiga shart-sharoitlar yaratdi. Mamlakatda mulkdorlar sinfi shakllandi. Xalqimizda xususiy mulkchilikka nisbatan yangi qarashlar shakllandi. Iqtisodiy rivojlanish natijalari aholi farovonligining manbayi sifatida namoyon bo'la boshladi.

O'tgan 26 yillik mustaqil taraqqiyot davrida iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyasiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Barchamiz uchun aziz va qadrli bo'lgan Islom Abdug'anievich Karimov bugun oramizda yo'q. Biroq Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "o'zbek modeli"ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o'z ishimizda doimo suyanamiz", deb ta'kidlab o'tildi¹.

Shularni e'tiborga olib, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobidan yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

¹Shavkat Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // "Xalq so'zi", 15 yanvar 2017 yil.

- xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda, davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ig‘lor xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta‘minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Ushbu masalalarni amalga oshirish asnosida Harakatlar strategiyasida tahliliy ma‘lumotnomalarni tayyorlash, unda iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur‘atlarini, shuningdek, milliy valyuta va narxlar darajasining barqarorligini ta‘minlash nazarda tutilgan.

Hech kimga sir emaski, ichki va xalqaro savdoni amalga oshirishda valyuta kursi asosiy ta‘sir ko‘rsatadigan omil sifatida qaraladi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimida valyuta munosabatlarini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish borasida qator muammolarning mavjudligi namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham valyutani tartibga solishning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Valyuta siyosatini erkinlashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Farmonda milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursini o‘rnatishda bozor mexanizmlariga asoslanishi belgilandi.

Harakatlar strategiyasida ko‘tarilgan yana bir muhim masala - bu soliq ma‘muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilashdan iboratdir. Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi belgilab olindi:

1) soliq qonunchiligini tanqidiy o‘rganish va tahlil qilish, huquqni qo‘llashda ortiqcha va murakkab normalarni bartaraf etish, soliqqa tortish bazasini hisoblash jarayonini soddalashtirish, yagona bazadan undiriladigan soliq va boshqa

majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, shuningdek, soliq qonunchiligi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan takliflar tayyorlash;

2) soliq yukini, xususan: yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan qat'iy belgilangan soliq miqdorini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatish (masalan, uzoq va borish qiyin bo'lgan) joylarini hisobga olgan holda, qayta ko'rib chiqish; yirik korxonalar uchun soliq yukini maqbullashtirish hisobidan uni izchil pasaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan amalda qo'llanilayotgan soliqqa tortish tartiblari ular faoliyatiga bevosita ta'sir etib, kelgusi moliya yiliga nisbatan tegishli qarorlarni qabul qilishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Aynan davlat soliq siyosati instrumentlari orqali ularning iqtisodiy faollik darajasini oshirishga erishilmoqda. Chunki kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faolligini belgilovchi omillarga korxona to'laydigan soliqlar va yig'implarning ta'sir doirasi yuqoridir.

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashayotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan sohalardan yana biri - bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi.

Yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari, shu jumladan, 2016-2020 yillar davomida 27 ta loyihani amalga oshirish uchun Jahon banki, 2017-2019 yillar davomida 20 ta loyihani amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot bankining 1 milliard dollardan kam bo'lmagan miqdordagi kreditlarini jalb qilishni ko'zda tutilmoqda.

Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, Fransiya taraqqiyot agentligi, Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish imkonining yaratilishi Harakatlar strategiyasida keltirib o'tilgan.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizga, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Shu bilan birga, Harakatlar strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatdosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Turizm tarmog'i jahon savdosining eng yirik tarmog'iga aylanib bormoqsa va hozirgi kunda yer yuzidagi jami tovar va xizmatlar eksportida daromad keltirish

bo'yicha ikkita yirik tarmoq - neft qazib olish va avtomobil sanoatidan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Turizm sohasi jahonda bo'ladigan jami eksportning 10 foizini beradi, xizmatlar savdosining esa 35 foizi turizmga to'g'ri keladi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan, asrlar davomida qadimiy shaharlari bilan mashhur, tarixiy va madaniy o'tmishga ega O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun real imkoniyatlarga ega.

Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirishga olib keladigan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, shuningdek, 2017-2021 yillarda Konsepsiyani amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar Dasturini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida davlatimiz rahbari eksport-import holatiga tanqidiy baho berib, mashinasozlik kompleksida import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo'lib, mahalliyashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan kam ekanligi hamda ayni vaqtda mashinasozlik kompleksi, "O'zfarm sanoat" konserni (2017 yil noyabr oyida tugatilgan) va "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda import hajmi eksport hajmidan o'nlab marta ko'p ekanini aytib o'tdi. Shu bilan birga, "O'zqurilish materiallari" aksiyadorlik jamiyati va "O'zbekneftgaz" kompaniyasi tizimida mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi import miqdoriga nisbatan 25-30 foizdan oshmasligi ta'kidlab o'tildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Harakatlar strategiyasidagi mamlakatimizning 2017 yil uchun dasturida eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni yuqori darajada mahalliyashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning istiqbolli sohalarini rivojlantirish dasturini tasdiqlash ko'zda tutilgan.

Sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'grisida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturining asosiy maqsadi - ushbu vazifalarni amalga oshirishdir. Unga muvofiq milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish uchun yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha aniq vazifalar rejalashtirilgan.

Keyingi yillarda qishloq joylarda aholi uchun namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2009-2016 yillarda qishloq joylarda 1308 turarjoy massivida umumiy maydoni 9

573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

Shu bilan birga, ushbu sohani o'rganish aholining real ehtiyojlari va xarid qobiliyatini, shuningdek, milliy mentalitetni va qishloq joylarda yashash sharoitlarining xususiyatlarini to'liq hisobga olib, qurilish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Shu bois Harakatlar strategiyasida kapital qurilishdagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilgan. Dasturda 2017 yil davomida bozor sharoitida erkin faoliyat yurita oladigan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday turdagi loyiha ishlarida qatnashishga imkon beruvchi ustav va aylanma kapitaliga ega bo'lgan qurilish va loyiha korxonalarini tashkil etish va mavjudlarini rivojlantirishga, sohada zamonaviy bozor munosabatlarini yaratishga qaratilgan "Kapital qurilishni yanada takomillashtirish va qurilish materiallari sohasida qulay muhitni yaratish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining qabul qilish belgilangan.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi.

Respublikamiz agrar tarmogida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida o'tgan 2000-2015 yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari oshib borish dinamikasiga ega bo'ldi. Xususan, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan hisoblaganda 2000-2016 yillarda o'rtacha 6 foizdan yuqori bo'ldi. Keyingi yillarda mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining kamayib borish tendensiyasi kuzatilmoqsa. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2000 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligining salmog'i 30,1 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 16,8 foizga pasaygan. Bu holat mamlakatimizda sanoatning industrial tarmoqlari hamda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar natijalari bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha vazifalarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Birinchi navbatda, 2016-2020 yillarda paxta xom ashyosi yetishtiriladigan maydonlarni 170,5 ming va sug'oriladigan g'alla maydonlarini 50 ming gektarga qisqartirish hisobidan kartoshka maydonini 36 ming, sabzavotlar maydonini 91 ming, intensiv bog'lar maydonini 18 ming, ozuqa ekinlarini 50,3 ming, moyli ekinlarni 14 ming va uzumzorlarni 11,2 ming gektarga kengaytirish bilan bog'liq ekin maydonlarini yanada optimallashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki bozorda ularga bo'lgan narxlar keskin oshishining oldini olish maqsadida 2017 yilda sabzavotlar ishlab chiqarish hajmini 105,7, kartoshkani 106,3, polizni, 106,1, mevani 106,0, uzumni 105,7, gushtni 105,6, sutni 108,1, tuxumni 111,3, baliqni 120,0 va asalni 118,2 foizga oshirish chora-tadbirlari ko'zda tutildi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbolda qishloq xo'jaligini barqaror va samarali rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ular nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, balki ularni chuqur qayta ishlash, aholiga turli ishlar va xizmatlar ko'rsatish bilan ham shug'ullanishi maqsadga muvofiq. Bu ularning moliyaviy barqarorligi hamda to'lovga qobilligini mustahkamlab, raqobatdoshligini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 martdagi "2016-2020 yillarda meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarining xom ashyo bazasini yanada rivojlantirish, ularni qayta ishlashni chuqurlashtirish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalar qurish, amaldagilarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha umumiy qiymati 595 886,3 ming dollar ekvivalentiga teng jami 180 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Mazkur qarorga muvofiq, 2016-2020 yillarda meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha quvvati 99 100 tonnaga teng 138 ta, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 16 500 tonnaga teng 46 ta, sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 34 850 tonnaga teng 79 ta va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 26 840 tonnaga teng 153 ta yangi korxonani ishga tushirish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha tizimli tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2020 yilga kelib 2016 yilga nisbatan meva-sabzavot konservalari hajmini 79,4 foiz, meva sharbatlarini 80,5 foiz, quruq mevalarni 73,1 foiz, go'sht va go'sht mahsulotlarini 59,5 foiz, kolbasa mahsulotlarini 68,8 foiz, sut va sut mahsulotlarini 56,6 foiz, sariyogni 51,4 foiz, qandolat mahsulotlarini 59,9 foiz, o'simlik yog'ini 57,2 foiz, shakarni 24,0 foizga, pishloqni 2,5, go'shtli konservalarni 2,4, baliq mahsulotlarini 3,4 va muzlatilgan baliqni 2,8 marta oshirish imkonini beradi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ragbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq va demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat ekan, bu boradagi asosiy shartlardan biri iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish hisoblanadi. Milliy taraqqiyot modelimizning asosiy tamoyillaridan biri - davlatning bosh islohotchilik roli hisoblanib, mavjud iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalangan

holda, barcha kuchlarni yagona maqsad sari yo‘naltirishda davlatning tartibga soluvchi vazifasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy bozor tizimini davlatning aralashuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Biroq, aralashuvning o‘z chegarasi bo‘lib, uning mazkur chegaradan oshib ketishi bozor jarayonlarining izdan chiqishiga ta‘sir etib, ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Natijada iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, xo‘jalik yuritishni tashkil etish va boshqaruv jarayonlarida davlatning me‘yoridan ortiq ishtirokini pasaytirish masalasi maydonga tushadi.

Iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qisqartirish, eng avvalo, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini ragbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, Harkatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan tamoyilni amalga oshirish borasidagi tadbirlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub‘ektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili (biznes ombudsman)ni tashkil etish belgilandi. Shu yilning avgust oyida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi. Hujjatga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil mansabdorshaxs bo‘lib, u tadbirkorlik sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini, mazkur huquklar va qonuniy manfaatlarga davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishini ta‘minlaydi.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha belgilangan tadbirlardan yana biri - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat‘iy oldini olish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri va jami viloyatlar tarkibida 157 tuman va shaharcha mavjud. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha dunyoda 55-o‘rinni, aholisining soni bo‘yicha 39-o‘rinni egallab turibdi.

Mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil,

qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasida aynan, "... iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani, shuningdek, mamlakatimiz hududlarini rivojlantirish bo'yicha qaysi eng muhim ko'rsatkichlarni joriy yil birinchi choragi va birinchi yarim yilligida bajarish uchun nima qilish kerak?" degan masala ta'kidlab o'tilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham aynan viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan masalalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Hozirgi kunda viloyatlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy ko'rsatkichlarda jiddiy farqlar mavjud. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish mamlakat bo'yicha o'rtacha 6258,6 ming so'mni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich Navoiy viloyatida 11 271 ming so'mni, Toshkent shahrida 13 068,8 ming so'mni tashkil etgan. Andijon, Jizzax, Samarkand, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida 4000 so'mdan past bo'lgan. Ko'rsatkichlardagi farqlar mavjud holatni chuqur tahlil qilish asosida viloyatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarning sabablarini aniqlash, imkon darajasida ularni minimallashtiradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu masalalarni optimal yechishning eng muhim omillaridan biri sifatida shaxsiy javobgarlikni oshirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Mamlakatimizning barcha viloyat va tumanlaridagi mavjud imkoniyatlarni chuqur o'rganish, iqtisodiyotini ilmiy-amaliy tahlil etish asosida viloyat va tumanlarda, chekka kishloqlarda ham sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarini keng rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadlaridan biri yurtimizning barcha hududlarida istiqomat qilayotgan insonlar uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

2012 yil 13 dekabrda "Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi, 2013 yil 18 martda "Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi, 2016 yil 26 oktyabrda "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2017 yil 12 yanvar "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hududlarda ishlab chiqarishning yangi bosqichga o'tishiga muhim poydevor qo'ydi.

2016 yil 26 oktyabrda "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bevosita hududlarda xorijiy investorlarga mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorlariga investitsiya kiritishi uchun yanada

¹ Shavkat Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // "Xalq so'zi", 15 yanvar 2017 yil.

qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar uchun yagona huquqiy rejimni belgilash, soliq va bojxona imtiyozlari, preferensiyalarni birxillashtirishga to'rtki bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilangan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish, hududlarda aholining o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondirishga erishish, hududiy korxonalar faoliyatiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, hududiy raqobatdosh va xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, hududlarda ishlab chiqarish ixtisoslashuvni to'g'ri tashkil etish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, hududlarning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga, hududlardagi mavjud mineral-xom ashyo resurslari imkoniyatlarini to'g'ri baholash va qazib olish hamda qayta ishlash borasida tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish mexanizmini yanada takomillashtirish va ishlab chiqarishning to'liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini shakllantirish, hududlarda kichik sanoat zonalarini hududida yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish, hududlarning turistik imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish va xorijiy tajribalarga tayangan holda, yangi hamda zamonaviy yoshlarbon turistik zonalarini bunyod etish, ichki turizmni rivojlantirish borasida davlat dasturlarini keng joriy qilish, hududlarda qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish asosida sanoatni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishga va aholini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilashga, hududlardagi mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlashga erishishga xizmat qiladi.

MAVZU: YUKSAK MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

Reja:

1. Milliy istiqlol davrida moddiy va ma'naviy merosimizga bo'lgan e'tibor.
2. Dunyoviy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi.
3. Mustaqillik yillarida ta'lim isloxlari.
4. Adabiyot, me'morchilik, amaliy san'at va kino ravnaqi.
5. Mustaqillik yillarida teatr, sirk, musiqa va qo'shiqchilik san'ati, muzey va sport taraqqiyotidagi o'zgarishlar.

1. Milliy istiqlol davrida moddiy va ma'naviy merosimizga bo'lgan e'tibor.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liq. Mustaqillik davrigacha va undan keyingi o'tgan tarixan qisqa muddat ichida jamiyatda ro'y bergan holatlar, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy va mafkuraviy sohalaridagi o'zgarishlar bizga sho'rolar mustabid tuzumi hamda istiqlol yillarida O'zbekistonning real hayoti xususida holisona xulosa chiqarishga imkon beradi.

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liq kechgan. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o'zgardi. Agarda, sho'rolar mustabid tuzimi davrida madaniyatning asosiy vazifasi jamiyat a'zolarining kommunistik mafkura va soxta g'oyaga e'tiqodini mustahkamlashga safarbar etishdan iborat bo'lgan bo'lsa, istiqlol davrida uning maqsadi tamomila o'zgardi.

Xo'sh, bular nimalarda ko'rindi? Xususan, eng avvalo, mamlakat hukumati, Oliy rahbariyatning ma'naviy-ma'rifiy omillarga nisbatan munosabati shakllandi. Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi, deb hisoblandi. Joylarda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar mas'uliyati hokimlar, vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning birinchi rahbarlari zimmasiga yuklatilishi juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, ma'naviyati yuksak millat va davlatnigina kelajagi buyuk bo'lishi mumkin ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr shakllana boshladi. Darhaqiqat iqtisodiy-siyosiy omillarning har qanday davlat, millat hayotidagi o'rni va roli katta. Biroq, ma'naviy omilgina jamiyatda sodir bo'lgan ko'plab muammolarni hal etishga qodir omil ekanligi endi o'z isbotini topmoqda.

Uchinchidan, ma'naviyat va ma'rifat jamiyatni poklantiruvchi kuch ekanligi e'tirof etilmoqda, zero sho'rolar mustabid tizimi davridan qolgan yaramas "ma'naviy meros"dan poklanmasdan turib istiqlolga xizmat qiladigan, fuqarolar qalbi va ongini yangilashga qodir ma'naviyatni shakllantirish mumkin emas.

To'rtinchidan, istiqlol davri O'zbekiston jamiyati ma'naviyatining eng muqaddas maqsadlaridan biri – o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlariga sho'ro davrida tarkib topgan munosabat kabi "illat" sifatida emas, aksincha, jamiyatni poklantiruvchi va kelajakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil sifatida qarashdan iborat jamoatchilik fikri shakllandi.

Beshinchidan, istiqlol davrida ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralardan xoliligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlandi. Mamlakat Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek, mustaqillik davrida bajarilishi lozim bo'lgan eng ustuvor vazifa "xalqimiz orasida katta ma'rifiy-amaliy ishlarni olib borib, milliy mafkuramizga kuch-quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga, xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni to'g'ri belgilab olishdir".

Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy maqsadi aniqlab olindi, uning bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari belgilandi. Ana shunday sharoitda jamiyat fuqarolari tomonidan bildirilgan ijtimoiy ehtiyoj – ma'naviy-ma'rifiy sohalarida yangi asr va umuman, uchinchi ming yillikdagi bosh g'oya qanday bo'lishi aniqlandi.

Xo'sh, hozirgi yangi asrda ma'naviyat sohasidagi bosh g'oyamiz nimalardan iborat? Mazkur savolga javob bera turib, I. Karimov quyidagilarni yozadi: "Modomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi yigirma birinchi asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog'i darkor. Ya'ni erkin fuqaro – ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur".

Darhaqiqat, mustaqil O'zbekistonda istiqlol ma'naviyati masalalariga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik sharoitida muttasil ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Chunonchi, istiqlolning dastlabki yillarida jamiyat ma'naviy hayoti oldida turgan bosh vazifa bu fuqarolar ongida sho'rolar davriga xos tafakkurni, eskicha fikrlash sarqitlarini bartaraf etishdan iborat edi. Mazkur masalada qator yutuqlarga erishildi. Biroq bu borada hali talay ishlarni bajarish lozim.

Ikkinchi, eng muhim vazifalardan yana biri erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirishdir, zero "ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iboratdir".

2. Dunyoviy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston madaniyati xususida alohida qayd etilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri – ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining tobora yaqqollashib borishi, vazifalarni hal etish yo'llarining oydinlashuvidir.

Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruhan poklantiruvchi, qalban ulg'aytiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, milliy vijdonini

uygʻotuvchi va doimiy harakatdagi yaqqol kuchdir. SHunday ekan, maʼnaviyatga umumiy tarzda munosabatda boʻlish xatodir, zero har bir fuqaroning maʼnaviy-mafkuraviy komillik darajasi bir xil boʻlmagani kabi, ularning bunday sifatlarini uygʻunlashtirib turuvchi koʻrinishlari ham yaqqoldir.

Xususan, yangi asr boʻsagʻasida eng asosiy vazifamiz nimadan iborat? Mamlakat Prezidentining taʼkidlashicha, maʼnaviyat sohasidagi strategik maqsadimiz – “milliy qadriyatlarimizni tiklash, oʻzligimizni anglash, milliy gʻoya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning maʼnaviy hayotimizdagi oʻrnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga koʻtarish va taʼsirchanligini kuchaytirishdir”.

Yuqorida bildirilgan fikrdan tabiiy ravishda kelib chiqayotgan xulosa shundan iboratki, istiqlolning hozirgi bosqichida maʼnaviy-maʼrifiy sohadagi ishlarning tashkil etilishidan tashqari, endi, bunday ishlarning samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xoʻsh, maʼnaviyat sohasidagi ishlarning samaradorligini oshirish deganda nimani tushunish mumkin? Umuman, madaniy-mafkuraviy sohasidagi ishlarimiz jamiyatni maʼnaviy yuksaltirishga qodirmi?

Shu oʻrinda qurilayotgan demokratik, huquqiy insonparvar jamiyat yuksak maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarga tayanishini bu jarayon esa milliy gʻoya va milliy mafkuraga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanishini alohida qayd etish juda muhimdir.

Agar, istiqlolning dastlabki yillarida maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlardan koʻzlangan maqsad shoʻro mustabid tuzimi asoratlaridan qutulish, jamiyatda maʼnaviy yakdillik yaratishdan iborat boʻlgan boʻlsa, endi esa, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash ustuvor ahamiyatga ega boʻlmoqda. Maʼnaviyatning mamlakatda demokratik, huquqiy, qudratli davlat qurish yoʻlidagi muhim omil ekanligi endi hech kimga sir emas.

Oʻzbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida maʼnaviy omillar hamda millatlararo munosabatlar masalasiga qarash ham tubdan oʻzgardi. Chunonchi, istiqlolning dastlabki davrlarida “soxta baynalmilallik” oldida yurak oldirib qoʻygan hamda hadiksirash kasalidan holi boʻlmagan holda har qanday milliylikni ulugʻlash va har qanday “bayanalmilallik”dan qochish hissiyoti yuzaga kelgan edi. Bunday jiddiy va qatʼiy qutblilik, tabiiyki, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga, ayniqsa, millatlararo munosabatlar masalasiga jiddiy salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin edi.

Shuning uchun ham Oʻzbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda boʻla boshladi. Ayni paytda 136 ta millat va elatlar yashayotgan Oʻzbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining boshqa millat, xalq vakillariga zoʻravonlik va zugʻum oʻtkazishga qaratilgan xudbinlik kayfiyatlarini muqarrar tarzda chegaralab va cheklab qoʻyadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshirdi.

Oʻzbekistonda istiqomat qilayotgan koʻp millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning oʻzliklarini anglash jarayonlariga boʻlgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukmati oldidagi eng

muhim vazifalardan biri bo'ldi. Shu o'rinda 1989 yili madaniyat vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozim.

Xalq ma'naviyati va turmush tarzining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Sovetlar hokimiyati yillarida amalga oshirilgan qatag'on siyosati natijasida ma'naviyatda salbiy hodisalar ro'y bera boshladi. Ayniqsa 1980 yillar o'rtalari va ikkinchi yarmiga kelganda o'zbek xalqi o'zining ma'naviy-madaniy o'zagidan uzilib qola boshladi.

Ana shunday bir paytda Respublika rahbarligiga kelgan Islom Karimov milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor qaratdi. O'zbekistonda Prezident tashabbusi bilan "Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish borasida bir qator tadbirlar ko'rildi. Xususan, hali mustaqillik e'lon qilinmagan 1990 yildayoq Birinchi Prezident I. Karimov tashabbusi bilan 21 mart Navro'z – umumxalq bayrami, dam olish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

"Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari, yerga va tabiatga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qo'shnichilikka, mehr-muruvatga va boshqalarning dardiga malham bo'lishga intilishlari tiklanishning qudratli omili bo'lmoqda. Navro'z xalq bayramining insoniy va baynalmilal mohiyati ham ana shundadir", – deyiladi O'zbekiston Prezidentining "Navro'z xalq bayramini o'tkazish yakunlari to'g'risida"gi Farmonida.

Birinchi Prezident Islom Karimov Navro'z bayramining ahamiyatiga baho berar ekan, "Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi"¹ bo'lib kelayotganini ta'kidlaydi.

Barcha sobiq sho'ro respublikalarida 1990 yilgacha RSFSR hukumatining 1929 yil qabul qilingan "Diniy uyushmalar to'g'risida"gi qarori amalda edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, O'zbekistonda ob'ektiv ravishda diniy omil kuchaydi.

Masjid va madrasalar, Makka va Madinaga haj va umra qiluvchilar, erkin tarqalayotgan diniy adabiyotlar soni keskin ortdi. 1991 yilda O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" qonun qabul qilindi. Qonunda diniy tashkilotlar faoliyatining yangi sharoitdagi huquqiy asoslari, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 19 maydagi qarori bilan Toshkent shahrida islom ta'limoti va falsafasini, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur o'rganish maqsadida Xalqaro islom tadqiqot markazi tashkil etildi. Mazkur markazning asosiy vazifasi diyorimiz musulmonlariga milliy qadriyatlarimizni va haqiqiy islom ta'limotini etkazish, mavjud islomiy osori-atiqalar tarixini o'rganish, nodir ko'lyozma asarlarni tadqiq

¹ Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat", 2009 yil. 35-bet.

etish, ular bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, darslik va qo'llanmalar, lug'atlar tayyorlash va nashr qilishdan iboratdir.

Mustaqil O'zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o'rtasida o'zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. 1992 yildan Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) bayramining birinchi kunlari dam olish kuni deb elon qilindi. Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti (1999) ochildi. Universitet qoshida tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz respublikada islom tarixi va islomshunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi va zarur ilmiy uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

2015 yilda respublikada 2238 ta diniy tashkilot mavjud edi. Mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy madrasa, Toshkent shahrida esa Toshkent Islom Universiteti, Xalqaro Islom tadqiqotlar markazi, Imom Buxoriy nomidagi Islom ma'hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari hamda pravoslav va protestant seminariyalari ishlab turibdi. Alouddin Mansur tomonidan Qur'onning o'zbek tilidagi dastlabki izohli tarjimasi "Sharq yulduzi" jurnalining 1990-1992 yilgi sonlarida e'lon qilindi, so'ng "Cho'lpon" nashriyotida jamlanib kitob holida nashr etildi. 2001 va 2004 yillarda Toshkent islom universiteti nashriyoti Abdulaziz Mansurning "Qur'oni Karim ma'nolarning tarjimasi va tafsiri"ni chop etdi.

Bu borada islom olamining zabardast allomalari – vatandoshlarimiz imom Abu Iso at-Termiziyni 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyni 920 yilligi, Najmiddin Kubroni 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi va Xoja Ahror Valiyni 600 yilligi, Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligi keng ko'lamda nishonlanishi yurtimizda iymon, din-u diyonat qaytadan yuksalayotganiga yorqin dalil bo'ldi. Bu aziz va mukarram zotlarning bebaho asarlari qayta chop etildi, nomlari abadiylashtirildi. Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkentda ko'plab masjidlar qurilishi, o'quv yurtlari tashkil etilishi, islom me'moriy obidalarini ta'mirlashga bo'lgan hukumatimizning sa'y-harakatlari xorijiy mamlakatlar va xalqaro islom tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

2007 yil yanvarda Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (AYSEKO) tomonidan Toshkent shahriga "Islom madaniyati poytaxti", degan nom berildi. Toshkentda bunga javoban ulkan Hazrati Imom majmuasi bunyod etildi.

O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, baptistlar, yaxudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, buddistlar singari bir kancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, tartib-qoidalari, muayyan diniy qavmning hayot tarzi va dunyoqarashi, talab va ehtiyojlari mavjud. Ana shunday xilma-xillikdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega", degan qoida kiritilgan (31-modda).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1996 yil noyabr oyida Eparxiyaning 125 yilligini nishonlash to'g'risidagi murojaatini qo'llab-kuvatladi va bu haqda alohida qaror qabul qildi.

3. Mustaqillik yillarida ta'lim isloxlari.

Ta'lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-madaniy hayotining muhim tarmog'idir. Ta'lim asoslari O'zbekistonda uning Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan kafolatlangan.

Birinchi Prezident I. Karimovning 1992 yil 28 fevral Farmoni bilan 8 viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu respublika hukumatining izchil madaniy-ma'rifiy siyosatining yana bir dalili bo'ldi. Bunday yangilanishdan ko'zda tutilgan maqsad, birinchidan, viloyatlarda oliy universitet ta'limini tashkil etish, bu joylarda ilmiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga, eng olis va cheka shaharlarni madaniy-ma'rifiy markazga aylantirishga asos bo'ldi.

Albatta, birgina oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari sonini oshirish, ularda yangi mutaxassisliklar ochish bilan malakali mutaxassislar tayyorlab bo'lmaydi. Buning uchun oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga talabalar qabuli yangi tartibini joriy qilish talab qilinadi. Shu maqsadda jahonning ilg'or universitetlari tajribalarini qo'llashga kirishildi. Natijada oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilishning butunlay yangi tizimi vujudga keldi.

Oliy Majlisning 1997 yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unga binoan ta'limning quyidagi yangi tizimi joriy etildi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Xuddi shu sessiyada Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ham qabul qilindi.

Birinchi Prezident I. Karimov shu sessiyada so'zlagan nutqida bu hujjatlarning mohiyatini har tomonlama ochib berdi: "Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz... Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir". Prezidentimiz yuqoridagi fikrlarni davom ettirib, o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" kitobida shunday yozadi: "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar

shu muammoni echolmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo‘lmaydi!”.

Bugun yurtimizda zamonaviy ta‘lim standartlari asosida jihozlangan 1,5 mingdan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejida yoshlarga o‘zi tanlagan yo‘nalish va soha sirlari o‘rgatilmoqda.

Birinchi Prezident I. Karimov tashabbusi bilan 2008 yil 8 iyulda Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009-2014 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida o‘tgan yillar davomida bolalar musiqa va san‘at maktablarini barpo etish, mavjudlarini kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ta‘lim sohasini tubdan isloh etish, bu borada samarali milliy modelni shakllantirish, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar, erishilgan yutuqlarni xalqaro jamoatchilik vakillari ishtirokida atroflicha o‘rganish va tahlil etish hamda shu asosda kelgusidagi aniq amaliy chora-tadbirlarni belgilab olish maqsadida Birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan 2012 yilning 16-17 fevral kunlari Toshkent shaxrida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Unda qariyb 1000 nafar ishtirokchi, jumladan, dunyodagi 8 ta xalqaro tashkilot va ta‘lim jamg‘armalaridan, 48 ta davlatdan 270 nafar vakil qatnashdi.

Konferensiyada qilgan ma‘ruzasida Prezident “bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur – bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko‘chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribani o‘zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan” ligini alohida ta‘kidlab o‘tdi.

Prezidentning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta‘lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi ta‘lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlash nazarda tutilgan.

2017 iyun oyida Prezident Sh. Mirziyoyev Toshkent shahrining Uchtepa tumani 78-umumta‘lim maktabiga qilgan tashrifida tajriba sifatida 11 yillik ta‘limni qayta tiklash, uning qoshida o‘quv-kasb korxonasi tashkil etishni taklif qildi. Xalq ta‘limi vazirligi keng jamoatchilikning bu boradagi fikrini o‘rganib chiqib butun respublika miqyosida 11 yillik ta‘limni qayta tiklashni yoqlab chiqdi.

Belgilangan vazifaga muvofiq, umumta‘lim maktablari 9-sinf bitiruvchilarini o‘z xohishiga ko‘ra 10-sinfda o‘qishini davom ettirishi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalariga qamrab olish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

O'quv rejasiga ko'ra, 10-sinf o'quvchilari haftada 5 kun umumta'lim fanlarini va 1 kun kasbga doir fanlarni o'rganishi belgilandi. Endilikda umumta'lim maktablarida bitiruvchilarni 50 ga yaqin kasbga o'rgatish yo'lga qo'yiladi. Kasb-hunar kollejlaridan uzoq masofada joylashgan 2703 ta maktab uchun 1103 ta maktabda, 6956 maktab uchun esa 615 ta kollejda o'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim omil bo'lmoqda. Bu kadrlar tayyorlashda mazkur muassasalarning ulushini oshirish va kafolatlangan ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Bugungi global integratsiyalashuv sharoitida, kundalik hayotimizga kompyuter texnologiyalari va Internet tizimi jadal kirib kelayotgan bir paytda xorijiy tillarni har tomonlama puxta egallamasdan turib, jahon hamjamiyati bilan hamqadam bo'lib yashashni tasavvur etib bo'lmaydi.

Ayni shu maqsadda mamlakatimizda Birinchi Prezident Islom Karimovning 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, xorijiy tillarni puxta biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. 2013-2014 o'quv yildan e'tiboran umumta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab chet tillarni o'qitishning uzluksiz tizimi joriy qilingani yangi amaliy qadam bo'ldi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kadrlarni yoshligidanoq tayyorlab borish, ularning etuk va zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratish maqsadida 2017 yilda Muhammad Xorazmiy nomidagi chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda oliy ta'limni rivojlantirishga ham katta e'tibor berildi. Shu maqsadda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Vestminster universiteti, Janubiy Koreyaning Inxa universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi.

Tibbiy xizmat sohasida zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 2005 yili Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, 2014 yil Toshkent Stomatologiya instituti tashkil etildi.

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqib 2017 — 2021 yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Mustaqillik olimlarga ham, fanga ham yangi imtiyozlar yaratib berdi. Jumladan, akademik fan o'z tizimi va shaklini o'zi belgilay boshladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining 50 yillik tarixida birinchi bor akademiyaning haqiqiy

a'zosi, Birinchi Prezident I. Karimov tashabbusi bilan fundamental ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash akademiya jamg'armasi tuzildi.

O'zbekistonda Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) ning tashkil qilinishi ham shubhasiz respublika fanning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlardan biri edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning 2012 yil 24 iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" ga farmoni soha rivojida navbatdagi katta qadam bo'ldi. Jahon standartlariga javob beruvchi tizim joriy qilindi.

4. Adabiyot, me'morchilik, amaliy san'at va kino ravnaqi.

Mustaqillikka erishilgach, o'zbek adabiyoti tarixining yangi davri boshlandi. Uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri avvalo sotsialistik realizm metodi o'z kuchini yo'qotganligida bo'ldi. Ikkinchidan, o'zbek tilining sofliги va adabiy til sifatidagi mavqeiini tiklash uchun harakat boshlandi. Uchinchidan, sovet davrida qoralanib kelingan tarixiy siymolar (Amir Temur va boshqalar) haqida tarixiy mavzuda asar yozish imkoniyati yaratildi. To'rtinchidan, islom dini g'oyalari va arboblarning obrazlari badiiy ijodda o'z ifodasini topa boshladi. Beshinchidan, yozuvchilar umuman erkin ijod etish huquqiga ega bo'ldilar. Oltinchidan, badiiy ijod biror ijtimoiy guruh, partiya yoki davlatning mafkuraviy quroli emas, balki xalqning adabiyoti, shu xalq hayoti, orzu va umidlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqdi. Ettinchidan, o'zbek adabiyoti milliy adabiyot sifatida kamol topa boshladi. Birinchi Prezident I. Karimov Sovet davri o'zbek adabiyotining o'rnini va roliga baho berar ekan tarixiy mavzularda yozish, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'lini tasvirlash "tarixni ideallashtirish" deb tanqid qilinib, tazyiq o'tkazib kelganini takidlaydi.

Mustaqillik davri she'riyatida shoirlar sekin-asta yangi voqelikni yuzaki tasvirlashdan uning ichki mohiyatini ochishga, yangi tarixiy-ijtimoiy davrning ma'naviy masalalarini yoritishga o'ta boshladilar (Erkin Vohidov, Ablulla Oripov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xalima Xudoyberdieva, Muhammad Yusuf va boshqalar).

Birinchi Prezident Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz lozimliga urg'u berdi.

Mustaqillik davri dramaturgiyasida Amir Temur, Bobur, Ulug'bek va Jaloliddin Manguberdi singari davlat arboblari obrazini yaratishga alohida e'tibor berildi. Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi yaratilishi adabiy hayotda alohida voqea bo'ldi va bu asar qo'shni mamlakatlar teatrlarida ham sahnalashtirildi. Dramaturg Izzat Sulton 90-yillar boshlarida "Qaqnus", "Oydin kecha asirligida" va "Yangi odamlar" kabi pesalarini yozib, ularda yangi davr qahramoni va shu davrning ijtimoiy-ma'naviy muammolarini sahnaga olib chiqishga urindi.

O'zbek xalqiga xos hazil mutoyiba va kulgiga bo'lgan mayl ko'plab komediyalarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. X.Muhammadning "Xotinlar gapidan chiqqan hangoma" komediyasi bilan boshlangan ijodiy jarayon E. Xushvaqto'vning "Chimildiq", "Qalliq o'yin", "Andishali kelin" singari o'nlab komediyalari bilan davom ettirildi.

Birinchi Prezident Islom Karimov so'z san'ati, badiiy adabiyotni inson ma'naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflaydi.

Me'morlik. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq tarixiy obidalarni tiklash va ta'mirlash ishlariga katta e'tibor berildi. Xususan, Buxorodagi tarixiy obidalarda tiklanish ishlari amalga oshirildi (Toqi Zargaron, Toqi Telpakfurushon, Toqi Sarrofon savdo rastalari, Sarrofon hammomi, Bozori Kord va boshqalar). Bundan tashqari, Somoniylar maqbarasi, Abdullaxon, Nodir Devonbegi madrasalari, Ark majmuasi O'zbekiston ustalari, tajribali mutaxassislar me'morlar, pardo ustalari jalb etilgan holda tiklandi.

Xivaning 2500 yilligiga bag'ishlab shahardagi bir qator majmualarning to'liq yoki qisman qayta tiklanishi amalga oshirildi (Muhammad Aminxon, Matniyoz Devonbegi madrasalari, Kalta Minor minorasi, Toshhovli saroyi, Pahlavon Mahmud memoriy majmuasi, Musa to'ra madrasasi, Nurullaboy saroyi, Juma masjid, Islomxo'ja minorasi, Ark masjidi, Olloqulixon savdo rastasi va boshqalar). Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligiga bag'ishlab Farg'ona va Quva shaharlarida yodgorliklar o'rnatildi.

Mustaqillik yillarida me'morchilik ustidan o'rnatilgan davlat monopoliyasi o'z kuchini qisman yo'qotdi, xususiy uy-joy qurilishida yangi sifat va sur'at darajasi tez ko'tarildi. O'zbekiston shaharlari, ayniqsa Toshkent qisqa muddat ichida me'moriy jihatdan juda o'zgarib ketdi (Oliy Majlis, Oqsaroy qarorgohi, Toshkent shahar hokimiyati, Turkiston saroyi, Milliy bank, Interkontinental, Forumlar saroyi, Markaziy mehmonxona, Akvapark va boshqalar). Kasb-hunar kollejlari binolari, sport inshootlari qurilishga katta e'tibor qaratildi (Toshkentdagi YUnusobod tennis korti, "Jar" sport majmuasi, "Bunyodkor" stadioni va boshqalar).

O'zbek xalqi tarixiy xotirasini tiklash yo'lida muhim me'moriy tadbirlar amalga oshirildi (Imom Buxoriy majmuasi, Ahmad al-Farg'oniygaga atab Quva va Farg'onada haykal va sayilgoh bog'lar barpo etildi, Samarqandda Imom Maturidiy me'moriy yodgorligi tiklandi, Marg'ilonda Burhoniddin Marg'inoniy majmuasi, Toshkentda Qaffol Shoshiy nomi bilan bog'liq Hazrati Imom me'moriy majmuasi, Minor masjidi va boshqalar).

Qadimgi yodgorliklarni ta'mirlashga xalq ustalari jalb etilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yodgorliklarga boy shaharlarimiz me'moriy ko'rik tarzida YUNESKOning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani soha mutaxassislari oldida nihoyatda ma'suliyatli vazifalarni ko'ndalang qo'ygan.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalarida qaytadan tiklandi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995 yil 24-25 oktabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda xalq

ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi. 1997 yilda Respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining "Usto" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Respublika Prezidentining 1997 yil 31 martidagi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va boshqa tadbirlar O'zbekistonda hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unutilgan ba'zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hunarmandlar maxsus tashkilot – "Hunarmand" Respublika uyushmasiga birlashtirildi. Hunarmandchilik sub'ektlari O'zbekistonda tadbirkorlar va fermer xo'jaliklarining har yili o'tkaziladigan "Tashabbus" respublika ko'rik-tanlovida ishtirok eta boshladilar.

Mustaqillik yillarida an'anaviy madaniyatga e'tibor kuchaydi. 1997 yil "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda amaliy bezak san'atining ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlash, asriy an'analarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash, shuningdek, xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1997 yil "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish markazi qoshida "Hunarmand" asosatsiyasi tashkil qilinib, respublikada ijod qilib kelayotgan ustalar birlashtirildi. Bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikning yo'q bo'lib ketgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni ketayapti.

Tasviriy san'atning turli sohalari rivojlanishida 1997 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (BA)ning tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy Rassomlik va dizayn instituti, Respublika badiiy kolleji va litsey-internati, barcha viloyatlar va Qoraqalpog'istonda tasviriy va amaliy san'at o'quv yurtlaridan iborat tarmoq vujudga keldi. Badiiy Akademiya tashkil bo'lgandan so'ng ko'rgazmalar faoliyati jadallashdi, o'zbek rassomlari turli respublika va xalqaro ko'rgazma, tanlov, festivallarda ishtirok etishmoqda.

O'zbekistonning mustaqilligi natijasida badiiy ijod, tasviriy san'atga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod tavalludining 540 va 550 yilligi keng nishonlandi. Behzod nomidagi muzeyga asos solindi. Yubileylari xalqaro miqyosda nishonlangan Alpomish, Ahmad al-Farg'oni, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarga haykallar o'rnatildi, ularga bag'ishlangan rasmlar ijod qilindi. Ushbu davrning mahobatli rangtasvir sohasida B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Aliqulov va boshqa rassomlar yorqin asarlar yaratishdi. Haykaltaroshlik sohasida Ilhom Jabborov (Toshkent (1993), Samarqand (1996) va Shahrizabz (1996)dagi Amir Temurning bronza haykallari, Farg'onadagi Al-Farg'oniyning bronza (1998), Toshkentdagi "Motamsaro ona" (bronza, 1999), Urganchdagi Jaloliddin Manguberdi (2000) haykallari muallifi), R.Mirtojiev ("Bobur", 1993, Andijonda), "Abdulla Qodiriy" (1994, Toshkentda), "Abdurauf Fitrat" (1996-1997, Buxoroda), "Abdulhamid Cho'lpon" (1997, Andijon), "Alisher Navoiy" (2001, Moskva), "Kamoliddin Behzod" (2003, Chanchun shahri, Xitoy), "Temur Malik", "Mirzo Ulug'bek", "Amir Temur", "Chovgon o'yinida Bobur" va boshqa asarlar muallifi A.Rahmatullaev va boshqalar ulug' ajdodlarimiz

qiyofalarini aks ettirdilar. Manzara janrida R.Ahmedov, N.Qo‘ziboev, R.Choriev, M.Saidov va boshqalar ijod qildilar. Grafika sohasida M.Kagarov, V.Apuxtin, P.Annenkov, G.Boymatov, A.Mamajonov va boshqalarning ijodiy izlanishlari ahamiyatga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston konservatoriyasi, Senat, O‘zbek kiyimlari muzeyini bezashda rassomlar faol ishtirok etishdi. O‘zbekiston tasviriy san‘at galereyasi (2004), Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyining zamonaviy yangi binosi qurib bitkazilishi (2002), Samarqanddagi Registon majmuasida “Chorsu” kartinalar galereyasining tashkil etilishi san‘atning barcha sohalariga samarali ta’sir etdi, ijodiy izlanishlar doirasining kengayishiga turtki bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida kino sohada ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘z vaqtida kino san‘ati borasida bizda o‘ziga xos ijodiy maktab yaratilganini alohida qayd etish lozim. O‘tgan davrlarda yaratilgan “Tohir va Zuhra”, “O‘tkan kunlar”, “Sen etim emassan”, “Mahallada duv-duv gap” kabi mumtoz filmlarimiz borki, ularning qadr-qimmatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Birinchi Prezident Islom Karimov bu filmlarga baho berar ekan, “mana shunday tom ma’nodagi milliy asarlar nafaqat xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga, balki uning go‘zal qadriyatlarini butun dunyoga tanitishga ham katta hissa qo‘shib kelmoqda”, – deydi.

Mustaqillik yillarida kino san‘atida badiiy filmlar turli mavzu va qahramonlar bilan boyidi, kinoda ma’muriy tashkiliy ishlar qayta tashkil etilishi sodir bo‘ldi. 90-yillar oxiri – XXI asr boshlari filmlarida kinoning adabiyot, teatr bilan hamkorligining kuchayishi, haqiqiy hayot borligicha tasvirlanishi, mavzu, janrlar xilma-xilligi, o‘ziga xos ijod, yuqori tasviriy madaniyat, mualliflik filmlarining paydo bo‘lishi ko‘zga tashlanadi (“Otamdan qolgan dalalar” (rejisyor Sh.Abbosov), “Voiz”, “O‘rtoq Boykenjaev” (rejisyor Yu.Roziqov), “Buyuk Amir Temur” (rejisyor I.Ergashev), “Alpomish” (rejisyor H.K.Fayziev), “Yozning yolg‘iz yodgori”, “Kichkina tabib”, “Vatan”, “Qo‘rg‘oshin”, “O‘tov”, “Chashma” va boshqalar).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 16 martdagi farmoniga ko‘ra “O‘zbekkino” davlat aksionerlik kompaniyasi “O‘zbekkino” Milliy agentligiga aylantirildi.

Har yili yurtimizda Davlat va nodavlat kinostudiyalar tomonidan 100 ga yaqin filmlar yaratilmoqda. Masalan, 2013 yilda davlat buyurtmasi bilan 12 ta badiiy, “O‘zbekfilm” OAJda 7 ta multiplikatsion film ishlab chiqarilgan. Nodavlat kinostudiyalar tomonidan 40 dan ortiq filmlar suratga olingan. 2013 yil 1 noyabr holatiga respublikamizdagi mavjud 241 ta kinoteatr belgilangan talablar asosida faoliyat yuritmoqda.

E’tiborga molik yana bir jihat borki, u ham bo‘lsa Yolqin To‘ychiev, Erkin A’zam, Tohir Malik, Usmon Azim, Murodboy Nizanov, G‘ofir Shermuhammad, Abduqayum Yo‘ldosh kabi professional adiblarning kinossenariylar tayyorlashdagi jonbozlik ko‘rsatayotganliklaridir.

Birinchi Prezident Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida bugungi kino san‘atimizga tanqidiy ko‘z bilan qarab professional kino mutaxassislari, xususan, rejissyorlar, ssenaristlar tayyorlaydigan tom ma’nodagi

milliy maktab o'zimizda hanuzgacha shakllanmagani, yoshlarning tarbiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan zamonaviy qahramon obrazi kino ekranlarimizda hali yaratilmagani kabi kamchilik va nuqsonlarni hamda ularni hal etishda yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash lozimligini alohida tilga olgan edi.

5. Mustaqillik yillarida teatr, sirk, musiqa va qo'shiqchilik san'ati, muzey va sport taraqqiyotidagi o'zgarishlar.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek madaniy hayotda ham tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Bu avalo teatr san'ati rivojlanishida yaqqol sezila boshladi, yangi-yangi teatr dargohlari qurib ishga tushirildi. 1991 yilda Farg'onada va 1993 yilda Xivada davlat qo'g'irchoq teatrlari ish boshladi, 1994 yilda Qashqadaryo va Namangan viloyati teatrlari qoshida qo'g'irchoq guruhlari ochildi. Andijonda jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, u 1994 yilda Abbos Bakirov nomidagi Andijon yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri, A.Hidoyatov nomidagi drama teatri, "Ilhom" teatr studiyasi, Rus yosh tomoshabinlar teatri shu jihatdan ibratli ishlar qildilar. Navoiy nomidagi teatr balet truppasining Malayziya va Tailandga, A.Hidoyatov nomidagi teatrining Angliya, Shotlandiya va Germaniyaga, Rus bolalar teatrining Kohiraga safarlari shular jumlasidandir.

1998 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga muvofiq O'zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha san'ati an'alarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnik negizini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish, maxsus ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda takomillashtirish, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirish maqsadida "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida esa Teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi madaniy aloqalari kengayib bordi. Milliy teatr san'atimiz sohasidagi ilg'or yutuqlar chet ellarda namoyish qilib kelinmoqda.

Masalan, faqat 2005 yilda O'zbek Milliy akademik drama teatri san'atkorlari Turkiya, Rossiya mamlakatlarida, O'zbekiston Yoshlari teatri esa Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan Xalqaro festivallarda ishtirok etishdi.

O'zbekistonda etakchi teatrlardan biri bo'lgan Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatri jamoasi Qohira shahrida (2005) o'tkazilgan Xalqaro teatr san'ati festivalida "To'da" spektakli bilan ishtirok etdi. Spektakl mavzusi hozirgi davrning eng dolzarb muammosi – yoshlar orasida giyohvandlikka ruju qo'yish kabi mudhish halokatli holatlarni sahnada san'atkorlar mahorat bilan namoyish qila olishdi. Jahonning 50 dan ortiq mamlakat teatr jamoalari orasidan o'zbek teatr

san'atining umidli yosh ijrochilari mahorati yuksak baholandi. "Eng dolzarb muammoni ko'tarib chiqqanligi uchun" nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 37 ta dramatik, musiqali drama va komediya, opera va balet, qo'g'irchoq teatrlari ana shunday vazifalarni bajarmoqdalar. Davlat teatrlari asosan O'zbekiston madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan boshqariladi. Teatrlar uchun mutaxassis kadrlar M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti, madaniyat va san'at kollejlari tayyorlanadi. "Teatr" jurnali ta'sis etilgan (1998). Birinchi Prezident Islom Karimov mamlakatimizda teatr san'ati rivojiga yuksak baho berar ekan, bu boradagi ayrim nuqsonlarga e'tibor qaratadi. Jumladan, "teatr san'atimizda ham bugungi hayotimizni, zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan, tomoshabinni o'ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtai nazaridan badiiy yuksak asarlar" kamligini afsus bilan qayd etadi.

Davlatimiz rahbarining 2014 yil 22 yanvarda qabul qilingan "O'zbek Milliy akademik drama teatrining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qaroriga binoan O'zbek Milliy akademik drama teatrining yubileyi nishonlandi. Mustabid tuzum mafkurasining tazyiqlariga qaramasdan, bu teatr sahnasida gumanistik g'oyalar, yuksak ijodiy prinsiplarga sodiq qolgan Mannon Uyg'ur, Etim Bobojonov, Olim Xo'jaev, Abror Hidoyatov, Nabi Rahimov, Shukur Burhonov, Obid Jalilov, Sora Eshonto'raeva, Zaynab Sadrieva, Toshxo'ja Xo'jaev, Aleksandr Ginzburg, G'ani A'zamov kabi o'nlab atoqli ijodkorlarning nomlari minnatdorlik bilan esga olindi.

Bu mo'tabar sahnada yaratilgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi buyuk ajdodlarimizning barhayot siymolari ming-minglab tomoshabinlarga insoniylik, adolat va ezgulik, mehr-oqibat, olijanoblikdan saboq bergani, ularni go'zallik va nafosat olamiga oshno etib kelayotgani tahsinga loyiqdir.

Tarixiy ma'lumotlarga kura, O'zbekiston hududida sirk o'yinlari qadimdan mavjud bo'lgan va keng tarqalgan. Asrlar mobaynida shakllanib kelgan an'anaviy o'zbek sirki turlari rang-barangligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, dorbozlik, simbozlik, "besuyak", muallaqchilik, nayrangbozlik, yog'ochoyoq, yog'ochot, olov purkash, pichoq o'yini, lagan o'yini, chinni o'yini, ko'za o'yini, polvonlik, chig'irliq o'yinlari va boshqalar keng tarqalgan. Turli sirk o'yinlari, asosan, baland tortilgan dor tagidagi maydonda namoyish etilgan.

O'zbekiston hududida qadimdan sirk san'atining alohida turlariga oid (Afrosiyob, Parfiya, Xolchayon, Panjikent, Dalvarzintepa, Xorazmdan topilgan mil.avv. III – mil. II asrga oid) muallaqchi masxarabozlar, ot mingan chavandozlarning haykalchalari, turli niqobdagi kishilar tasviri va boshqalarning topilishi bizda sirk san'ati asrlar osha rivojlanib kelganini ko'rsatadi. Amir Temur davrida Samarqandda dorbozlar, muallaqchilar, polvonlar hamda o'rgatilgan ot va fillar ishtirokida tomoshalar namoyish etilgan.

Mustaqillikdan so'ng sirk hayotida ham yangi davr boshlandi. Unutilgan an'anaviy sirk san'atining turlarini tiklash va rivojlantirish, zamonaviy tomoshabin talabiga mos asarlar yaratish, yosh ijrochilarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy kamolot uchun sharoit yaratib berish va natijada milliy sirk san'atini jahon maydoniga olib

chiqish maqsad qilindi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Toshkent sirki haqiqiy ijodiy ustaxonasiga, izlanish va tajribalar maskaniga aylantirildi.

1992 yilda “O‘zbekdavlat sirk” respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san’atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta’mirlandi, unga O‘zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiev nomi berildi.

1992-2005 yillarda bu erda 100 dan ortiq rang-barang sirk o‘yinlari va 10 dan ortiq yirik shakldagi attraksionlar sahnalashtirildi, 20 dan ziyod teatrlashtirilgan sirk spektakllari tayyorlandi. Milliy uslubda sahnalashtirilgan, an’anaviy va zamonaviy sirk o‘yinlaridan iborat qiziqarli dasturlar 20 dan ortiq mamlakatda namoyish etildi va o‘zbek sirki xalqaro sirk maydonida o‘z o‘rnini egalladi. SHuningdek, o‘zbek sirki vakillari Fransiya, Monako, Germaniya, Belgiya, Gollandiya, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro sirk festival va ko‘rik-tanlovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etindi. Yangi dasturlarni tayyorlashda Obidjon va Erkin Toshkanboevlar, Hakim Zarifov, Bahrom Majidov, Karima Zarifoalar faollik kursatdilar. O‘zbek sirki dovrug‘ini olamga taratishda Toshkenboevlar, Zaripovlar, Xo‘jaevlar sulolalari vakillarining katta xizmati va mahorati benazirdir.

1996 yil Toshkentda estrada-sirk kolleji tashkil etildi. U Markaziy Osiyodagi yagona maxsus o‘quv yurtidir. “Sahnadagi sirk”da mustaqillik yillari 3 ta ko‘chma sirk – “Shapito”, “Zoosirk”, “Motosirk” va boshqa yangi guruhlar tashkil etildi.

1998 yilda Toshkent sirkida iste’dodli yoshlarga ko‘maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

Hozirgi kunda mamlakatning turli viloyatlarida 20 dan ortiq an’anaviy sirk guruhlari ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Yurtimizda qadimdan musiqa ilmi, musiqa san’ati ham rivojlanib kelgan. Buni Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham isbotlaydi.

O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida ma’naviy madaniyatning muhim jabhasi bo‘lgan musiqa san’ati ham jadal rivoj topa boshladi. Sho‘rolar davrida asosan mafkuraviy qurolga aylangan mazkur san’at turi erkinlik yo‘liga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 dekabrda “Respublikada musiqiy ta’lim, madaniyat va san’at o‘quv yurtlarining faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra ularga 6,5 mingta musiqa asboblari va turli xil texnik jihozlar ajratilgan. Respublika Prezidentining 1997 yil 8 fevraldagi “Milliy raqs va xoreografiya san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 21 fevraldagi Qarori “O‘zbeknavo” va “O‘zbekraqs” birlashmalarining moddiy texnik negizini mustahkamlashga yordam berdi.

Istiqlolnig dastlabki kunlaridanoq musiqa san’ati bo‘yicha qator ko‘rik-tanlovlar o‘tkazila boshlandi. Xususan, 1992 yili Toshkent shahrida tanbur, sato, qo‘shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining “Asrlarga tengdosh navolar” deb nomlangan respublika ko‘rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo‘g‘irchoq teatrlari jamoalarining ko‘rik-tanlovi, shuningdek, mashhur

san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janak SHomuratovlarning asarlari ijrochilarining "Boqiy ovozlari" deb nomlangan ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

Mamlakatimiz hukumati qo'shiqchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda 1995 yil dekabrda "O'zbekiston – Vatanim manim" mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi elon qilindi. Tanlov natijasida yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi, u xalq orasidan chiqqan ko'plab iste'dodli san'atkorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996 yil avgustda "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq bayrami haqida" maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg'usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq bayrami kuni, deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan katta qiziqishini e'tiborga olib, Madaniyat ishlari vazirligi huzurida "O'zbeknavo" gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek an'anaviy musiqa san'ati rivojiga e'tibor yanada kuchaydi. Xususan, shu davrda oilaviy ansambllar, folklor-etnografik ansambllar, to'y marosim qo'shiqlari, katta ashula, baxshi-shoirilar, maqom ijrochiligi bo'yicha ko'rik-tanlovlar bilan birga "Alla" (1991 yildan), "Sharq taronalari" (1997 yildan, Samarqand) Ma'murjon Uzoqov va Jo'raxon Sultonov nomidagi (1997 yildan, Marg'ilon), Xojiabdulaziz Abdurasulov nomidagi (1997 yildan, Samarqand), Komiljon Otaniyozov nomidagi (2001 yildan, Urganch), "Boysun bahori" (2003 yildan, Boysun) va boshqa yangi tashkil etilgan respublika va xalqaro musiqa festival va tanlovlari o'tkazildi. Ayni paytda an'anaviy musiqa ijrochiligini o'rganish barcha musiqa kollejlari hamda ko'pgina bolalar musiqa maktablarida joriy etildi.

O'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti va ijrochiligi sohasida keksa, etuk hamda yosh avlodga mansub o'nlab san'atkorlar – hofiz, sozanda va bastakorlar (T.Alimatov, G'.Hojiqulov, Q.Iskandarov, O.Xudoysheurov, A.Ismoilov, F.Umarov, O'.Rasulov, Q.Rahimov, Sh.Jo'raev, O.Xotamov, F.Mamadaliev) sermahsul ijod qilishdi.

Bugun milliy-an'anaviy qo'shiqchiligimiz bilan birga milliy estrada san'ati ham tobora rivojlanmoqda. O'lmas Saidjonov, Munojot Yo'lchieva, Nasiba Sattorova, Ismoil va Isroil Vahobovlar bilan bir qatorda Nasiba Abdullaeva, Farruh Zokirov va ularning yuzlab kasbdoshlari, jumladan, Ozodbek Nazarbekov, Gulsanam Mamazoitovlar sof milliy estradaning yorqin namoyandalari o'zbek qo'shiqchilik san'atini dunyoga olib chiqmoqdalar.

Maxsus musiqa ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, 300 dan ziyod 7 yillik bolalar musiqa maktablari, 5 o'rta maxsus musiqa maktab (internat) va litseylari, 14 musiqa (san'at) kollejlari va O'zbekiston davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi. Birinchi Prezident I. Karimov tashabbusi bilan 2008 yil 8 iyulda Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning

faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilinganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistondagi muhim tarixiy madaniy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan muzeylarning to'laqonli ishlashi uchun qator chora tadbirlar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 dekabrda qabul qilingan "Respublika muzeylarining faoliyatini yaxshilash choralari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, 1999 yil 5 dekabrda esa "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori, 2008 yil sentyabr oyida qabul qilingan "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi bu masalalarga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Hozirda birgina O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida 89 ta muzey faoliyat yuritayotgan bo'lib, shularning 15 tasi Toshkent shahrida, 29 tasi viloyat markazlarida, 29 tasi shaharlarda va 25 tasi tumanlarda joylashgan. 27 ta tarix muzeyi, 23 ta o'lkashunoslik muzeyi, 11 badiiy muzey va bitta tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi muzey, 7 ta adabiy yodgorlik, 14 ta memorial yodgorlik faoliyat ko'rsatib, o'lkashunoslik, tarixiy-yodgorlik, san'at, adabiyot, tabiat, sport yo'nalishidagi ushbu moziygozlarda 1 million 513 mingdan ortiq eksponat saqlanmoqda.

Shu bilan birga Samarqandda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Buxoroda Davlat muzey-qo'riqxonasi, Xivada "Ichon-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

1996 yilning 18 oktyabr kuni Sharq milliy me'morchiligining noyob va mo'jizaviy namunasi sifatida bunyod etilgan – Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Toshkentda 1996 yil 14 avgustda Olimpiya muzeyi tashkil etildi. Uni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti X.A.Samaranch mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. Karimov bilan birga tantanali ravishda ochib berdi.

2000 yilda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui tarkibida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi tashkil qilindi.

Prezidentning 1998 yil 12 yanvardagi Farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi. Unga binoan barcha turdagi muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi.

Abdulholiq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 685 yilligi munosabati bilan Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasida joylashgan "Bahouddin Naqshband tarixiy muzeyi" qayta tashkil etildi. Bu moziygoz tasavvuf tarixiga bag'ishlangan Respublikamizdagi yagona muzeydir. Ekspozitsiya ilmiy xronologiyasi VII asrdan hozirga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston kino san'ati muzeyi 2005 yil 22 fevralida ochildi. Keyingi yillarda yig'ila boshlagan kino tarixiga oid ashyolar muzey eksponatlaridan joy

oldi. O'zbekiston kino san'atida eksponatlar, fotosuratlar, montaj varaqalari va boshqa hujjatlar to'planib, 30 mingdan ortiq saqlash birligidan iborat katta xazinaga aylandi. Hozirgi kunda muzey jamg'armasida O'zbekiston kino san'ati tarixini muhrlagan 5000 dan ortiq surat va negativ, o'tgan asrning 20-50 yillarida suratga olingan 48 badiiy film saqlanmoqda. Shulardan 5 tasi YUNESKO "Oltin jamg'armasi" ro'yxatiga kiritilgan. Ular orasida "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy" kabi mashhur tasmlar mavjud. O'zbekiston kino san'ati muzeyining tashkil etilishi xalqimiz madaniy taraqqiyoti yo'lida qilingan muhim ishlardan biri bo'lib qoladi.

Jismoniy tarbiya kishilik jamiyati tarixining barcha bosqichlarida xalq madaniyatining tarkibiy va muhim qismi bo'lib kelgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik vazifa etib belgilandi. O'zbekiston sportimilliy madaniyatimizning uzviy qismi hisoblanib, u kengxalq ommasini yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashda va salomatligini mustahkamlashda muhim vositalardan biri bo'lib qoldi. Xalqaro maydonda tarixan qisqa davr ichida obro' orttirishga ulgurgan mustaqil O'zbekiston dunyoga nafaqat qadimiy madaniyat, buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoirva sarkardalar tuhfa etgan yurt, balki xalqaro sport olamida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan davlat sifatida ham tanildi. Hozir bemalol aytishimiz mumkinki, O'zbekiston sport sohasida yirik davlatga aylanib, boshqa mamlakatlarga ko'plab yillar kerak bo'lgan yo'lni tarixan qisqa muddat ichida bosib o'tdi.

O'zbekiston qadimdan milliy o'yinlarga boy. Ayniqsa, "Arg'imchoq", "Bekinmachoq", "Qilichbozlik", "Oq terakmi-ko'k terak", "Ololmaydi-yo, shuginani-yo", "Tortishmachoq", "Chillak" va boshqalar keng tarqalgan.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi ko'lga kiritilgach, ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992 yili 14 yanvarda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

O'zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993 yili 18 martda "O'zbekiston Respublikasi futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1996 yil 17 yanvarda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus Qaror qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (2006, 1 may) mamlakatda professional futbol klublari tashkil etishga yo'l ochdi.

Mamlakatda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Ushbu dasturga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi milliy ma'naviyatni tiklashga katta e'tibor berildi. Milliy o'yin va sport turlari bo'yicha har yili musobaqalar o'tkazish odat tusiga kirdi.

1996 yildan O'zbekistonda professional sport ham rasm bo'la boshladi. Ayniqsa, bokschilar yutug'i xalqimizni xursand etib kelmoqda. Artur Grigoryan,

Muhammadqodir Abdullaev va boshqalar bu sohada ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Rustam Qosimjonov shaxmat bo‘yicha jahon chempioni bo‘ldi (2004).

Mustaqillik sharofati bilan milliy sport turlarining qayta tiklanishiga va ularning sport turi sifatida xalqaro miqyosda e‘tirof etilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. 1998 yil 6 sentyabrda Toshkentda 28 davlat vakillari Kurash xalqaro asociatsiyasiga asos solishdi. 1999 yil 1-2 may kunlari Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilari ishtirokida kurash bo‘yicha Birinchi jahon chempionati o‘tkazildi.

Bolalar sportiga berilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik ayniqsa diqqatga sazovor. Mamlakat rahbarining 2002 yil 24 oktyabrdagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi va 2004 yil 29 avgustdagi “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari bolalar sportini rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

2010 yilda bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatimizda 6-15 yoshdagi 1,6 million nafar o‘quvchi sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullangan.

Agar 2005 yilda yurtimizda mutlaqo sog‘lom bolalar ko‘rsatkichi 52,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2010 yilda bu raqam 62,6 foizga etdi.

So‘nggi besh yilda sport bilan shug‘ullanadigan 10-14 yoshdagi bolalarning bo‘yi o‘rtacha 2,3, qiz bolalarning bo‘yi 2 santimetrga o‘sgani, vazni esa tegishli ravishda 2,6 va 2,9 kilogrammga oshganini ham shu boradagi ijobiy ko‘rsatkichlar sifatida qayd etish joiz.

2003-2010 yillarda O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1199 ta bolalar sporti ob‘ekti barpo etildi.

O‘zbekistonda o‘quvchi va talaba yoshlar o‘rtasida 3 bosqichli ommaviy sport musobaqalari o‘tkaziladi. 2000 yildan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Umid nihollari”, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari o‘rtasida “Barkamol avlod” hamda Oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida “Universiada” sport musobaqalarini o‘tkazish ta‘lim-tarbiya tizimiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi terma jamoalari sport turlari bo‘yicha bir qancha jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashib keldilar. “Qit’a olimpiadasi” sifatida e‘tirof etilgan Osiyo o‘yinlarida 1994 yildan buyon qatnashayotgan O‘zbekiston sportchilari muntazam ravishda kuchlilar qatoridan o‘rin olib kelmoqda. 1994 yil Xirosimada (Yaponiya) bo‘lib o‘tgan 12 Osiyo o‘yinlarida ilk bor ishtirok etgan sportchilarimiz yuksak natijalarga erishdi. O‘zbekistonlik futbolchilar ushbu nufuzli turnirda g‘alaba qozongani barcha sport ishqibozlarining haligacha yodida. Umuman olganda, sportchilarimiz Xirosimada Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib, jami 40 medalni qo‘lga kiritdi va umumjamoaga hisobida 42 davlat orasida beshinchi o‘rinni egalladi.

1998 yili Bangkokda (Tailand) o‘tkazilgan 13 Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilari jami 40 medalni qo‘lga kiritdi va 44 mamlakat orasida sakkizinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi.

2002 yili Pusanda o‘tgan 14 Osiyo o‘yinlarida O‘zbekistondan sportning 24 turi bo‘yicha 175 sportchi qatnashdi. Musobaqalarda hamyurtlarimiz qo‘lga

kiritgan 51 medalning 15 tasi oltin edi. Umumjamoa hisobida mamlakatimiz beshinchi o'rinni egalladi.

2006 yili Dohada (Qatar) o'tgan 15 yozgi Osiyo o'yinlarida sportning 31 turi bo'yicha 238 vakilimiz ishtirok etdi. Polvonlarimiz Osiyo o'yinlari dasturiga namoyish turniri sifatida birinchi marta kiritilgan kurash bellashuvlarida ham qatnashdi. Ular jami 39 medal, jumladan, 10 oltin medalga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida ettinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

2010 yil Guanchjouda bo'lib o'tgan 16 yozgi Osiyo o'yinlarida 200 nafardan ziyod sportchimiz 32 sport turi bo'yicha ishtirok etdi. Ular engil atletika, baydarka va kanoeda eshkak eshish, dzyudo, boks, erkin kurash, shaxmat, trampolin, sport va badiiy gimnastika kabi sport turlarida muvaffaqiyat qozondi. Mamlakatimiz sportchilari jami 56 medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida sakkizinchi o'rinni egalladi.

2014 yilda 17 yozgi Osiyo o'yinlarini o'tkazish huquqini mashhur port shahar – Incheon qo'lga kiritdi. Bu yerda Osiyo qit'asining 45 mamlakatidan 13 mingdan ziyod sportchi medallar uchun kurash olib bordi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ushbu musobaqalarda sportning 31 turida ishtirok etib, 44 medal, ya'ni 9 oltin, 14 kumush va 21 bronza medalni qo'lga kiritdi. Jamoaviy bahslar hisobga olinganda, mamlakatimiz sportchilari jami 61 medalga (12 oltin, 14 kumush va 35 bronza medal) sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining chorak asrlik faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz ko'pgina tarixiy yutuqlar ko'z oldimizda gavlanadi. Mamlakatimizda Milliy olimpiya qo'mitasi 1992 yil 21 yanvarda, ya'ni bundan roppa-rosa 26 yil muqaddam tashkil etilgan bo'lib, 1993 yil sentyabr oyida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasman tan olingan. So'ngra mamlakatimiz sport delegatsiyasi mustaqil O'zbekiston nomidan to'rt yillikning eng nufuzli musobaqalari Olimpiya hamda Osiyo o'yinlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. O'zbekiston delegatsiyasi mustaqil jamoa sifatida birinchi marta 1994-yilda Norvegiyaning Lillixammer shahrida o'tkazilgan XVII qishki Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan va ilk urinishdayoq ham yurtimiz Lina Cheryazova fristayl sport turi bo'yicha barcha raqiblarini ortda qoldirib, Olimpiya o'yinlarining oltin medaliga sazovor bo'lgan. Ushbu sovrin mustaqil O'zbekiston tarixidan Olimpiya o'yinlarining birinchi oltin medali sifatida joy olgan. Oradan ikki yil o'tib sportchilarimiz yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroklarini ham boshlab berishadi va 1996-yilda AQSHning Atlanta shahrida tashkil etilgan XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi endi ikkita medalga sazovor bo'ladi. Armen Bagdasarov dzyudo bo'yicha kumush, Karim To'laganov esa boks bo'yicha bronza medalini qo'lga kiritishadi. O'zbekistonning sport sohasidagi islohotlari va bu boradagi tajribasi jahonda e'tirof etilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga hamda Xalqaro olimpiya harakatiga qo'shgan ulkan hissasi uchun 1996yilda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining oliy mukofoti – Olimpiya Oltin ordeni bilan taqdirlanadi. O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 1996 yilda Toshkent shahrida "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi tashkil etilib, uning ochilish marosimida Xalqaro Olimpiya qo'mitasining Prezidenti Xuan Antonio Samaranch ishtirok etadi.

O'zbekistonlik sportchilar navbatdagi Olimpiya o'yinlarida ham muvaffaqiyatli odimlashni davom ettirishadi. 2000 yilda Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarida Andijon boks maktabi tarbiyalanuvchisi Muhammadqodir Abdullaev o'zbek yigitlari orasida birinchi bo'lib Olimpiya o'yinlari chempioni degan sharaflı nomga sazovor bo'ladi. Shuningdek, erkin kurash bo'yicha bellashuvlarda Artur Taymazov kumush, Sergey Mixaylov va Rustam Saidovlar esa boks bo'yicha musobaqalarda terma jamoamiz xisobiga bronza medallarini qo'shib qo'yishadi. O'zbekiston delegatsiyasi umumjamoa hisobida 199 ta davlat vakillari orasida 42-o'rinni egallaydi. 2004-yilda jahonning to'rt yillikdagi eng yirik sport festivali Olimpiya o'yinlari vatani sanalgan Gretsiyaning Afina shahrida tashkil etiladi. Bu safar mamlakatimiz sportchilari bir yo'la ikkita oltin medalga ega chiqishadi. Erkin kurashda Artur Taymazov, yunon-rum kurashida Aleksandr Doktorishvili Olimpiya o'yinlari chempioni unvoniga sazovor bo'lgan bo'lsalar, Magomed Ibragimov erkin kurashda kumush medalini qo'lga kiritadi. O'tkirbek Xaydarov va Bahodir Sultonovlar esa boks bo'yicha bronza medallari bilan taqdirlanishadi. Mamlakatimiz delegatsiyasi bu safar 202 ta davlat orasida 34-o'rinni band etadi. Hisob bo'yicha XXIX yozgi Olimpiya o'yinlari Xitoy poytaxti Pekin shahrida tashkil etiladi. Mazkur musobaqada o'zbekistonlik sportchilar tomonidan jami oltita medal qo'lga kiritiladi. Artur Taymazov o'z shaxsiy kolleksiyasiga Olimpiya o'yinlarining yana bir oltin medalini qo'shib qo'ygan bo'lsa, erkin kurashda Soslan Tigiev, dzyudoda esa Abdullo Tangriev kumush medali bilan taqdirlanishadi. O'z navbatida yana bir dzyudochimiz Rishod Sobirov bronza medaliga sazovor bo'ladi. Quvonarli jihati, aynan Pekin Olimpiadasiga kelib gimnastikachilarimiz ham dastlabki medallarni qo'lga kiritishadi. Chunki, shu paytga qadar asosan boks va sport kurashlari bo'yicha terma jamoamiz a'zolari Olimpiya o'yinlari medallariga ega chiqishgan bo'lishsa, bu safar Ekaterina Xilko trampolinda, Anton Fokin esa sport gimnastikasida bronza medaliga sazovor bo'lishadi. Delegatsiyamiz Pekin Olimpiadasini 202 davlat orasida 40-o'rinda yakunlaydi. Yubiley - XXX yozgi Olimpiya o'yinlariga Buyuk Britaniya poytaxti London shahri mezbonlik qiladi. Mazkur musobaqada terma jamoamiz delegatsiyasi biroz kamtarroq natija qayd etib, bor yo'g'i uchta medal bilan qaytadi. Artur Taymazov uchinchi marta jahonning tengsiz polvoni ekanligini isbotlab, Olimpiya o'yinlarining uchinchi oltin medalini qo'lga kiritadi va ushbu natijasi evaziga xaqli ravishda dunyoning buyuk polvonlari orasidan joy oladi. Dzyudochimiz Rishod Sobirov busafar ham bronza medali bilan cheklanadi. Bokschimiz Abbos Atoevga ham Olimpiya o'yinlarining bronza medali nasib etadi. O'zbekiston delegatsiyasi 204 davlat orasida umumjamoa hisobida 47-o'rinni egallaydi. Aytish kerakki, aynan London Olimpiadasidagi natijalar yurtimizda butun sport jamoatchiligi, olimpiya harakati ishtirokchilarini yangi g'alabalar sari chorladi. Chunki o'sha musobaqada delegatsiyamiz aslo o'ziga munosib bo'lmagan o'rinni egallagandi. Bo'lajak Olimpiya o'yinlariga munosib tayyorgarlik ko'rish yo'lida eng avvalo davlatimiz rahbarining "O'zbekiston sportchilarini 2016 yil Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da o'tkaziladigan XXXI yozgi Olimpiya va XV Paralimpiya o'yinlariga munosib tayyorlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, mamlakatimiz sportchilari

uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 2013 yil 25 fevralda e'lon qilingan mazkur qaror yakunda juda katta ahamiyat kasb etdi va "Rio-2016" Olimpiadasining o'zbek sporti tarixiga oltin harflar bilan bitilishiga asosiy turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Braziliyadagi XXXI yozgi Olimpiya hamda XV Paralimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar qayd etgan natijalar butun dunyoni hayratga soldi. Olimpiya o'yinlarida birinchi marta yurtimiz vakillari bir yo'la to'rtta oltin medalga sazovor bo'lishdi. Ilk bor O'zbekiston terma jamoasi tomonidan jami 13 ta medal qo'lga kiritildi. Birinchi marta og'ir atletikachimiz Ruslan Nurudinov Olimpiya o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritish bilan birgalikda o'zbek sportchilari orasida ilk marotaba Olimpiya o'yinlarining rekordini yangiladi. Shuningdek, birinchi marta boks bo'yicha terma jamoamiz umumjamoaa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Bokschilarimizdan Hasanboy Do'smatov, Shahobiddin Zoirov va Fazliddin G'oyibnazarov va aytib o'tganimizdek og'ir atletikachimiz Ruslan Nurudinov Olimpiya o'yinlari chempionligini tantana qilishdi. Yana ikki nafar bokschimiz Shahram G'iyosov va Bektemir Meliqo'ziev delegatsiyamiz hisobiga kumush medallarini qo'shib qo'yishdi. Charm qo'lqop ustalaridan shuningdek, Rustam To'laganov va Murodjon Ahmadaliev, dzyudochilarimiz Diyorbek O'rozboev va Rishod Sobirov, sport kurashlari vakillari Ixtiyor Navro'zov, Magomed Ibragimov va Elmurat Tasmuradovlar bronza medallari bilan taqdirlanishdi. O'zbekiston delegatsiyasi 207 davlat orasida 21-o'rinni egalladi. XV Paralimpiya o'yinlarida yurtimiz sportchilari tomonidan qayd etilgan natijalar esa bu hayratni ikki hissa oshirdi. O'ttiz ikkita sportchi bilan ishtirok etgan delegatsiyamiz yakunda o'ttiz bitta medalni qo'lga kiritishi chindan ham butun dunyo sport jamoatchiligini lol qoldira oldi. Albatta bu natijalarga o'z o'zidan erishilgani yo'q. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi o'tgan qisqa vaqt ichida Xalqaro olimpiya qo'mitasi, Osiyo olimpiya kengashi, Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi va qator xalqaro sport federatsiyalari hamda tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Poytaxtimizda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining yangi binosi qad rostladi. Bu yerda O'zbekiston sportchilarini tibbiy-biologik xizmat va sport psixologiyasi bilan ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan markaz tashkil etildi. Markazga eng zamonaviy tibbiy uskunalar o'rnatildi. Markaziy Osiyoda yagona sanalgan Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi sportchilarimizni nufuzli musobaqalarga puxta tayyorlash, ularning bor imkoniyat va salohiyatlarini ochib berishga ko'maklashish masalasida juda katta turtki bo'ldi. Buni so'ngginatijalar ham ko'rsatib turibdi. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining yangi binosiga tashrif buyurar ekan Xalqaro olimpiya qo'mitasi prezidenti Tomas Bax "O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasining binosi dunyoda tengsiz, bunday sport saroyi men bilgan Milliy olimpiya qo'mitalari binolari orasida eng muhtashami" deya ta'rif berdi.

2014 yil Braziliyada futbol bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida ham yurtimiz, FIFA referisi Ravshan Irmatov munosib ishtirok etib, jahon chempionatlarining final bosqichida eng ko'p – to'qqizta o'yinni boshqargan

hakam sifatida rekord oʻrnatdi. Prezidentimizning 2014 yil 25 iyuldagi Farmoniga muvofiq, Ravshan Irmatov “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlandi.

Ortda qolgan 26 yillik davr mobaynida yurtimizda sport taraqqiyoti va olimpiada gʻoyalarini ilgari surish borasida qilingan ulkan hajmdagi ishlar bugun mustaqil diyorimizni qudratli sport mamlakatiga aylantira oldi. Yuqorida keltirilgan barcha amaliy ishlar bevosita shaxsan Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻanievich Karimovning umumiy rahbarligi ostida, shuningdek amaldagi Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoev boshchiligida bir qator Vazirlik hamda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda Birinchi Prezident Islom Karimov taʼkidlagandek “bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, maʼrifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim”. Ayni kunlarda ham madaniy hayot ulkan surʼatlar bilan rivojlanishda davom etmoqda.

MAVZU: O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

1. O‘zbekiston tashqi siyosatining demokratik tamoyillari.
2. O‘zbekiston — BMT o‘zaro munosabatlarini rivojlanishi.
3. O‘zbekistonning Amerika mamlakatlari bilan hamkorligi.
4. O‘zbekiston — Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamkorligi.
5. O‘zbekiston va Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi.
6. O‘zbekiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti.

1. O‘zbekiston tashqi siyosatining demokratik tamoyillari

O‘zbekiston mustaqillik davriga kelib mustaqil ravishda tashqi siyosat yuritish huquqiga ega bo‘ldi. Sobiq sho‘rolar davrida O‘zbekistondagi tashqi ishlar vazirligi faqat nomigagina tuzilgan bo‘lib, u hech qanday tashqi siyosat va faoliyat olib borish huquqiga ega emas edi. Bu haqda Birinchi Prezident I. A. Karimov quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish — davlat faoliyatining yangi va amalda qo‘llanilmagan yo‘nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O‘zbekiston xalqaro maydonga to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo‘lib, o‘zining tashqi siyosiy davlat idoralari, etarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi. So‘nggi vaqtlargacha respublikada shunday kadrlar tayyorlaydigan bironta ham institut yo‘q edi.”¹

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, mazmuni, maqsad va vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi- dagi 17-moddada o‘z ifodasini topdi. Bu moddaga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”². Shuningdek, Konstitutsiyaning 93- moddasida mamlakat Prezidentining tashqi siyosat sohasidagi vakolatlari belgilab qo‘yilgan³.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o‘zining “O‘zbekistonning o‘z istiqlool va taraqqiyot yo‘li” va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish prinsiplarini nazariy va amaliy jihatlardan asoslab berdi. Istiqloolning ilk yillaridan boshlab tashqi aloqalar muassasalari tomonidan xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarning umum e‘tirof etilgan qoida va normalari asosida respublikaning diplomatik faoliyati turli yo‘nalishlarda olib borildi.

¹ Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlool va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. 24-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012. 6-bet.

³ O‘sha joyda. 23-bet.

Respublika tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo‘li asos qilib olindi. “O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama faol tashqi siyosatini amalga oshirish - davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g‘oyat muhim vositasidir”¹, deb ta’kidlaydi Islom Karimov.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining o‘z milliy tashqi siyosatining tamoyillari asosida amalga oshirgan faoliyati natijasida qisqa davr ichida deyarli barcha davlatlar O‘zbekistonni mustaqil mamlakat sifatida tan oldi, ularning ko‘pchiligi bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Birinchi Prezident I. A. Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki davridayoq — 1992-yilda O‘zbekiston tashqi siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari ishlab chiqildi:

Birinchi. O‘zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo‘lgani holda o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta’sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O‘zbekiston yana kimgadir bo‘ysunish uchun mustaqil bo‘lgani yo‘q.

Ikkinchi. Respublika odamlar va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘yib, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish uchun kurashadi. O‘zbekiston yadrosiz mintaqaga bo‘lib qoladi, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirish niyati yo‘q. Inson huquqlari to‘g‘risidagi, hujum qilmaslik haqidagi, nizoli masalalarni hal etishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish to‘g‘risidagi Xalqaro hujjatlarni tan oladi va ularga og‘ishmay rioya qiladi.

Uchinchi. Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari asosida quriladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida, butun tashqi siyosatda ham bizning shiorimiz — tenglar orasida teng bo‘lish, “katta og‘a”ning qosh-qovog‘iga qarab ish tutishdan uzil-kesil va abadul-abad xalos bo‘lishdir.

To‘rtinchi. Mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipini ro‘yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o‘rnatishga intiladi.

Beshinchi. O‘zining milliy-huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O‘zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi. Bizning mustaqil davlatimiz o‘z qiyofasini yo‘qotmay, jahon hamjamiyatiga kirar ekan, xalqaro talablarga rioya qilishga tayyordir.

Oltinchi. O‘zbekiston to‘la ishonch prinsiplari asosida ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish uchun, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish uchun harakat qiladi.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda yuqorida aytib o‘tilgan prinsiplarga qat’iy rioya qiladi, ularni boyitib va

¹ Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taqbiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. 24-bet.

kengaytirib borib, tashqi siyosiy hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yoʻnalishlarini qatʼiyat va izchillik bilan turmushga tatbiq etadi.¹

Mustaqillikning ikkinchi oʻn yilligiga kelib jahondagi globallashuv jarayonlari, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi, turli mintaqalarda roʻy berayotgan urushlar va tang holatlarni bartaraf qilishga doir ogʻir va mashaqqatli davrda ham Oʻzbekiston oʻzining tinchliksevar tashqi siyosatini demokratik qadriyatlar asosida rivojlantirib bordi. Bu davrda davlat Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy strategik maqsadlari va vazifalari Birinchi Prezident I. A. Karimovning turli nazariy qarashlari va maʼruzalarida yanada rivojlantirildi.

Mamlakat tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, Oʻzbekistonning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi obroʻsini oshirishga qaratildi.

Birinchi Prezident I. A. Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvardagi qoʻshma majlisida soʻzlagan nutqida tashqi siyosatning asosiy vazifalarini quyidagicha ifodalab berdi: “Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini taʼminlash, shu muqaddas-zaminimizda hukm surayotgan tʼinch-osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan masʼuliyatli va keng koʻlamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bogʻliqdir”.²

Umuman, bu davrga kelib, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning “Oʻzbek modeli” asosidagi islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida davlatimiz tashqi siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat holda belgilandi:

- birinchidan, yaqin va uzoq davlatlar bilan oʻzaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik munosabatlarini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga asta-sekin va har tomonlama integratsiyalashishida, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarida ochiq va konstruktiv xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ikki tomonlama va koʻp tomonlama diplomatiya mexanizmlaridan samarali foydalanish;

- ikkinchidan, Oʻzbekiston rahbariyatining mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb yoʻnalishlari xususidagi, jumladan, “Afgʻonistondagi vaziyatni tinch yoʻl bilan hal etish boʻyicha “6+3” muloqot guruhini tuzish, “Markaziy Osiyo — Fors qoʻltigʻi” transport-tranzit yoʻlini tuzish, mintaqadagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanish va boshqa xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;

- uchinchidan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, mintaqani barqaror xavfsizlik hududiga aylantirish bilan bogʻliq siyosiy-diplomatik va

¹ Karimov I. A. Oʻzbekistonning oʻz istiqloq va taqiyot yoʻli // Oʻzbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: Oʻzbekiston, 1996. 51-52-betlar.

² Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga koʻtarilish sari. T.18. – T.: Oʻzbekiston, 2010.137-bet.

xalqaro-huquqiy masalalarni hal etish. Uzoq va yaqin davlatlar bilan munosabatlarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa muammoli ziddiyatlarni o'z vaqtida oldini olish, mojaroli vaziyatlar va boshqa salbiy holatlarning avj olishiga yo'l qo'ymaslik uchun diplomatik choralar ko'rish;

- to'rtinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur demokratik islohotlarni, jamiyatni va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning dinamik jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun qulay tashqi siyosiy sharoitlarni yaratish. Jahondagi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni muntazam rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga to'g'ridan to'g'ri chet el sarmoyalarini va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish bilan bog'liq siyosiy-diplomatik va xalqaro-huquqiy masalalarni amalga oshirish;

- beshinchidan, jahon hamjamiyatida O'zbekiston tashqi va ichki siyosatining asosiy jihatlarini aks ettiradigan, uning xalqaro tashabbuslarining mazmun va mohiyatini ifodalovchi obektiv va ishonchli ma'lumotlarni tarqalishiga erishish.

Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2012-yil sentabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi"da O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilandi:

- dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga hamda umume'tirof etilgan xalqaro norma va prinsiplarga rioya etishga sodiqlik;

- mafku'raviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik;

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, chegaralar daxlsizligi, ichki ishlaiga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik.

O'zbekiston pragmatik, oqilona va maqsadga muvofiq siyosat yuritish tarafdori bo'lib, tashqi siyosat maqsad va vazifalari davlatning uzoq muddatli manfaatlariga, uning resurslari va salohiyatiga mos kelishi prinsiplariga sodiq qoladi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston chindan ham jahon hamjamiyatining eng siyosiy faol, xalqaro munosabatlarda o'zini asosli, qat'iy va o'zgarmas pozitsiyasiga ega bo'lgan davlat sifatida namoyon qildi. Bu O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi siyosiy mavqei va imijini belgilab beradigan muhim omil sifatida o'z kuch-qudratini ko'rsatdi.

Vaqt o'tgan sari umumdunyoviy siyosiy jarayonlar tobora faollashmoqda, yangidan -yangi muammolar davlatlararo, mintaqalararo va umumsayyoraviy miqyosda butunlay yangicha yondashuvlarni, siyosiy qarashlarni taqozo etmoqda. O'zbekiston ana shu jarayonlarda, xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatda o'zining zamonaviy qarashlari va muammolar echimini topishdagi o'ziga xos yondashuvlari bilan o'zining keng imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Bu haqdagi haqqoniy fikrlarni Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishdagi ma'ruzasida yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu ma'ruzada Prezident O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining hozirgi zamon talablari va zamonaviy sivilizatsiya ehtiyojlari nuqtai nazaridan aniq belgilab berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston davlatining ichki va tashqi siyosatida mustahkam izchillikning mavjudligi, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshlab bergan mustaqil

taraqqiyot yo‘li, ichki va tashqi siyosat davom etayotgani davlatimiz qudratining va siyosiy barqarorligining yorqin misolidir. Islom Karimov tamal toshini qo‘ygan va jahon mehvarida butun salohiyatiyu salobati va qudratini ko‘rsatayotgan O‘zbekiston davlatining tashqi siyosati zamonaviy talablar, bugungi ehtiyojlar va dunyoviy qarashlarning eng ilgor namunalari bilan boyitib borilmoqda. Demak, O‘zbekiston bugungi kunda o‘z Prezidenti Sh. M. Mirziyoev rahbarligida o‘tgan 25 yilda to‘plangan tarixiy tajribalarga tayangan holda, uni yanada boyitish, takomillashtirish, rivojlantirish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va adekvat javob choralari ko‘rib, ularni oqilona echishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Mamlakatimizning xalqaro munosabatlarini to‘laqonli sub’ekti sifatidagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, yurtimiz iqtisodiyotining barqaror va tez sur‘atlar bilan o‘sishi, uning ochiq, demokratik davlat qurish yo‘lida jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan munosib o‘rin egallashi bugungi kunda tashqi siyosat sohasidagi asosiy maqsaddir.

Prezident Sh. Mirziyoevning davlatlararo va mintaqaviy masalalarni hal qilishda yaqin qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi sa’y-harakatlari O‘zbekiston davlatining tashqi siyosatidagi muhim tamoyil sifatida ko‘zga tashlanayotgani ayniqsa e’tiborlidir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi, hech shubhasiz, O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi davrini boshlab beradi.

O‘zbekistonning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo‘lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta‘minladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 165 ta davlat tan oldi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahonning 142 davlati bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatdi. Toshkentda 43 ta mamlakatning elchixonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi (Vengriya, Belgiya, AQSH savdo palatasi), 10 ta xalqaro tashkilotning vakolatxonasi ishlab turibdi. Mamlakatimizda 7 ta faxriy konsullar ishlab kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalarining soni esa 30 tani tashkil etadi. Shuningdek, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. O‘zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a’zosi. Hozirda ulardan beshtasining vakolatxonasi respublikada faoliyat ko‘rsatmoqda.

2. O‘zbekiston — BMT: o‘zaro munosabatlarini rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyati doirasida munosib o‘rin olishida xalqaro nufuzli tashkilotlarga a’zo bo‘lishi va ular bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi muhim ahamiyat kasb etadi. 1992-yil 29-yanvarda BMTning Xavfsizlik Kengashi o‘zining 737-sonli Qarorida

O'zbekiston Respublikasini Bosh Assambleyaga BMTga qabul qilishni ko'rib chiqishni tavsiya etdi. 1992-yil 2-martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi yakdillik bilan ma'qullash asosida BMTga qabul qilindi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. 1993-yil 24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasining vakolatxonasi ish boshladi. "Bizning tasavvurimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti - barcha davlatlarning, mintaqalarning, butun jahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va echish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir. BMT – bu xalqlarning tinch-totuv yashashga bo'lgan ezgu irodasining buyuk ramzi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir"¹, – degan edi Birinchi Prezident Islom Karimov.

O'zbekiston BMTning to'laonli a'zosi sifatida bu tashkilotning turli anjumanlari va yig'ilishlarida faol ishtirok eta boshladi. Bu jarayonda O'zbekiston o'zining tinchliksevar siyosati bilan tanildi. O'zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarni hal etishga jahondagi barcha davlatlar rahbarlari e'tiborini jalb etishi mamlakat tashqi siyosatining tinchliksevar xarakterini yanada kengroq namoyish etdi. Chunonchi, 1993-yil 28-sentabrda Birinchi Prezident I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida bu yuksak tashkilot minbaridan turib so'zlagan nutqida bir qator konstruktiv takliflarni ilgari surdi:

- Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlovchi seminarini chaqirilishini;
- BMT Xavfsizlik Kengashi huzurida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish;
- Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilish;
- Markaziy Osiyo mintaqasida kimyoviy hamda, bakteriologik qurolni ta'qiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish;
- Yadroviy qurolni tarqatmaslik;
- Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish;
- Orol muammosi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish;
- Xavfsizlik Kengashi hozirgi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy, etnik-madaniy, diniy, ma'naviy jihatdan g'oyat xilma-xilligini bab-baravar tarzda aks ettirsin.

Albatta, bu ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilinib, ularni amalga oshirish jarayonlari davom etdi. O'zbekiston davlati rahbarining takliflari va tavsiyalari BMTning ko'plab qarorlarida o'z aksini topdi.

1995-yilning 24-oktabrida Nyu-Yorkda BMTning 50 yillik yubileyi munosabati bilan bo'lib o'tgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida Birinchi Prezident I. A. Karimov nutq so'zladi. U o'z nutqida Afg'onistonda uzoq davom etgan birodarkush urush afg'on xalqi boshiga mislsiz kulfatlar solganligiga anjuman ahli e'tiboriga havola etish asnosida urushni to'xtatishga doir quyidagi takliflarni ilgari surdi:

¹ I. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2. –T.: Ўзбекистон, 1996. 47-bet.

- Afg'onistondagi keskinlikni hal etish uchun avvalo tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish;

- BMT xavfsizlik Kengashi Afg'onistonga qurol olib kirishni kimligidan qat'iy nazar ta'qiqlab qo'yish;

- Afg'oniston urushlarning emas, balki tinchlik va barqarorlik obekti bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, mazkur yig'ilishda xalqaro maydondagi ixtiloflarni kuchayishi, urushlarni oldini olishni samarali tarzda hal etish, BMTning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirish maqsadlarida Birinchi Prezident I. A. Karimov BMT tuzilmalarini isloh qilish, uning faoliyati samaradorligini oshirishga doir quyidagi takliflarni ilgari surdi:

- birinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashi safini kengaytirish, unga misol uchun bugungi kunda jahon siyosatida muhim o'rin egallagan Germaniya va Yaponiya singari davlatlarni doimiy a'zo sifatida kiritish lozim;

- ikkinchidan, BMT qabul qilgan qarorlarni tezkorlik bilan amalga oshirish uchun BMT Bosh Kotibi vakolatlarini kuchaytirish lozim;

- uchinchidan, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish manfaatlarini ko'zlab, BMTning xalqaro mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini kuchaytirish zarurligi, bu tashkilotning o'ziga qarashli mintaqaviy tuzilmalarini yanada rivojlantirish zarurligi.

Yangi asr boshlariga kelib O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi yanada kuchaydi. Turli ziddiyatlar va urushlarga barham berishda O'zbekiston davlatining nuqtayi nazari e'tiborga olinib boshlandi. 2000-yil 8-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur "Mingyillik sammiti" muhim global da'vatlarga e'tiborni qaratish uchun 189 ta mamlakat rahbarlari ishtirokida o'z ishini boshladi. Ana shu yuksak sammit minbarida Birinchi Prezident I. A. Karimov nutq so'zlab, unda ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'mak berish, xalqaro tuzilmalar va donor davlatlarning moliyaviy mablag'larini jalb etish maqsadida BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi huzurida Orol va Orolbo'yi muammolari kengashini tuzishni taklif qildi.

2000-yil 8-sentabrda BMT tomonidan "Mingyillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiya XXI asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida sakkizta aniq maqsad va ularga erishishga doir vazifalarni ilgari surdi. "Mingyillik Deklaratsiyasi" jahondagi yetakchilarini kelajakka intilishga doir qarorlarini aks ettirib, u 2015-yilgacha bo'lgan davr uchun rivojlanishning yo'l xaritasini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi mamlakatdagi ijtimoiy holatni, aholi turmush tarzini va rivojlanish darajasining yuqoriligini hisobga olgan holda Mingyillik maqsadlarini quyidagicha shakllantirdi:

1-maqsad. Kam ta'minlanganlikni va qoniqarsiz oziqlanishni qisqartirish.

2-maqsad. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish.

3-maqsad. Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish hamda ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish.

4-maqsad. Bolalar o'limini qisqartirish.

5-maqsad. Onalar salomatligini yaxshilash.

6-maqсад. OIV/OITSga, sil kasalligiga va bezgakka qarshi kurash.

7-maqсад. Ekologik barqarorlikni ta'minlash.

8-maqсад. Rivojlanish maqsadida global hamkorlikka ko'proq urg'u qaratish.

O'zbekiston hukumati Mingyillik rivojlanish maqsadlarining muhimligini e'tirof etgan holda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini "Aholi farovonligini oshirish strategiyasi bo'yicha oraliq hujjat"ga moslashtirgan tarzda amalga oshirmoqda.

Mingyillik deklaratsiyasida qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi, bu jarayondagi muammolar va ularni hal etish masalalari 2010-yil 20-sentabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida muhokama qilindi. Sessiya mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishga doir qator qarorlar qabul qildi. BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida Birinchi Prezident I. A. Karimov nutq so'zladi. U o'zining nutqida quyidagi global muammolarga barham berishga doir masalalarni ko'tardi:

- 30 yildan buyon harbiy harakatlar davom etayotgan jafokash Afg'oniston muammosi va bu muammoni hal etishni harbiy yo'l bilan emas, balki uning boshqa muqobil yo'llarini topish;

- 2010-yilning iyunida Qirg'izistonda ro'y bergan fojiali voqealar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatni izdan chiqarishga jiddiy xavf solmoqda. Buni oldini olish uchun o'z vaqtida xolis va mustaqil xalqaro tekshiruvlarni o'tkazish, xalqaro hamjamiyatning bu boradagi qat'iy prinsipial pozitsiyasi Qirg'iziston janubida qirg'iz va kamsonli o'zbeklarning murosaga kelishi va totuvligini ta'minlash uchun yo'l ochib berishi mumkinligi;

- Markaziy Osiyoda ekologik muvozanatni buzilishiga olib kelayotgan Orol muammosi;

- O'zbekistonda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirilishining tahlili.

Birinchi Prezident I. A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida so'zlagan nutqi jahon hamjamiyatining e'tiborini yana birbor Markaziy Osiyodagi murakkab muammolarni hal etishga qaratdi. Shuningdek, O'zbekiston rahbari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatda Mingyillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish natijalariga doir muvafaqqiyatli ko'rsatkichlarni e'lon qildi.

O'zbekiston mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha 13 ta konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

O'zbekiston bilan BMT o'rtasida ekologik muhitni yaxshilash, Orol halokatini yumshatish, Orol bo'yi va uni atrofidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga doir hamkorliklar doimiy ravishda mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan Orol halokatini o'ta jiddiyligini e'tiborga olib, 2008-yil 12-martda Toshkent shahrida "Orol muammolari, uning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri va ularning oqibatlarini

yumshatish bo'yicha xalqaro hamkorlik choralari"ga bag'ishlangan xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Unda BMT vakillari faol ishtirok etdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli hududni tashkil etish bo'yicha ilgari surgan tashabbusi 2006 yilning sentyabr oyida Semipalatinsk shahrida mintaqa davlatlari tomonidan tegishli shartnomaning imzolanishi bilan yakun topdi.

Mazkur shartnoma asosida BMT Bosh Assambleyasining 61- va 63-sessiyalarida Tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchilik ovozi bilan "Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud" Rezolyusiyasi qabul qilindi. 2009 yilning mart oyidan boshlab esa ushbu shartnoma kuchga kirdi.

2014 yil 6 mayda Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Xavfsizlik kafolatlari to'g'risidagi Protokolning imzolanishi mintaqa davlatlarining umumjahon tinchlikni saqlash tamoyillariga sodiqligi va qodirligini namoyish qildi. Mazkur xalqaro hujjat Markaziy Osiyoda hech qanday yadroviy qurol qo'llamaslik, bunday qurol bilan mintaqa davlatlarini qo'rqitmaslikni kafolatlaydi. Shunday qilib, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan sayyoramizning shimoliy yarim sharida yadroviy quroldan xoli bo'lgan ilk hudud yaratildi.

2010-yilning aprelida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun shaxsan Orol bo'yi hududlariga tashrif buyurdi. U Orol muammosini hal qilishga ko'mak berishga tayyor ekanligini bildirib, ekologik halokat oqibatlarini tugatishga yordamlashish maqsadida ekspertlar salohiyati, moliyaviy va boshqa resurslari jo'natishga qaror qildi. Shundan kelib chiqib, BMT Bosh assambleyasi 63-sessiyasi muhim hujjatlaridan biri - bu "Orolni qutqarish xalqaro fondiga Bosh assambleyadagi kuzatuvchi maqomini berish" rezolyusiyasi bo'ldi. Bu rezolyusiyaning hammuallifi O'zbekiston davlati edi.

2015-yilning iyunida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun navbatdagi tashrifi O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi samarali muloqotni davom ettirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash masalalari, shuningdek, yadro quroli tarqalishiga qarshi kurashish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ekologiya muammolarini hal etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorizm va narkotrafik xavfiga qarshi kurashish hamda boshqa yo'nalishlar bo'yicha fikr almashish uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi.

BMTning bir qator tuzilmalari — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti, Jahon banki, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Bolalar jamg'armasi, Aholishunoslik jamg'armasi, Taraqqiyot dasturi, Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha boshqarmasi, OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi kabi tashkilotlarining vakolatxonalari Toshkentda faoliyat ko'rsatayotir. Ular bilan hamkorlikda 440 dan ziyod loyiha amalga oshirildi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 18-20 sentyabr kunlari Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'ldi. Prezidentning tashrifi davomida ko'plab uchrashuvlar tashkil etildi hamda O'zbekiston istiqboli uchun muhim ahamiyatga ega hujjatlar imzolandi.

Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida keng qamrovli nutq soʻzlar ekan, Oʻzbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdori ekanligini bildirdi. “Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz”, dedi.

Oʻzbekiston prezidenti Sh. Mirziyoev Oʻzbekiston bugungi kunda oʻzining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotganligini taʼkidladi. “Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan Oʻzbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qoʻshnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo — biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir”, dedi.

Shavkat Mirziyoev ushbu anjuman yakunida BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni taʼminlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi saʼy-harakatlarini qoʻllab-quvvatlashga doir maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifini kiritish moʻljallanganini bildirdi. Oʻzbekiston BMTning Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish toʻgʻrisidagi konvensiyalar loyihalarini qoʻllab-quvvatlaydi. Sh. Mirziyoev jahon jamoatchiligi eʼtiborini yana bir bor davrning eng oʻtkir ekologik muammolaridan biri — Orol halokatiga qaratdi. Prezident yuksak minbarda turib Orol fojeasi aks ettirilgan xaritani jamoatchilikka namoyish etdi hamda dengizning qurishi bilan bogʻliq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi saʼy-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etayotganligini taʼkidladi. “Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr koʻrgan aholiga amaliy yordam koʻrsatish boʻyicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur toʻliq amalga oshirilishi tarafdorimiz”, dedi.

Shavkat Mirziyoev Afgʻonistondagi vaziyat haqida ham oʻz fikrini bildirdi. “Aminmizki, Afgʻonistonda tinchlikka erishishning yagona yoʻli — markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar oʻrtasida oldindan hech qanday shart qoʻymasdan, toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afgʻonistonliklarning oʻzlari hal qiluvchi oʻrin tutadigan holda, Afgʻoniston hududida va BMT shafeligida oʻtishi lozim. Donishmand afgʻon xalqi oʻz taqdirini oʻzi mustaqil hal qilishga haqlidir”, dedi Oʻzbekiston rahbari.

Sh. Mirziyoev butun dunyoda dolzarb muammoga aylangan terrorizmga qarshi kurash borasida oʻz takliflarini bildirdi. “Bu borada koʻp hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularningoqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman”, dedi. Shavkat Mirziyoev odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligini alohida eʼtibor qaratdi va BMTda diniy bagʻrikenglik toʻgʻrisidagi rezolyusiyani qabul qilish taklifini kiritdi. “Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zoʻravonlik gʻoyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi koʻp tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”, dedi. Sh. Mirziyoev Oʻzbekiston yoshlarga oid siyosatni

shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etishini bildirdi. O'zbekiston Prezidenti shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildi. Bu hujjatning asosiy maqsadi — barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

Shavkat Mirziyoev AQSHga tashrifi davomida bosh kotibi Antoniu Guterrish, Bolgariya prezidenti Rumen Radev, Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvili, Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagard, Jahon banki prezidenti Jim Yong Kimlar bilan uchrashdi va samarali muzokaralar olib bordi.

Umuman, O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Mustaqillik davrida O'zbekiston davlati BMT bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ya oldi, balki BMT faoliyati va obro'sini yanada o'sishiga o'zining katta hissasini qo'shdi, dunyo hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egalladi.

3. O'zbekistonning Amerika mamlakatlari bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Amerika Qo'shma Shtatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992-yil 15—16-fevralda AQSH davlat kotibining O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurishi asnosida ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992-yil 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi. O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asosini ellikdan ziyod hujjat, jumladan, 2002 yilda imzolangan Strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiya tashkil qiladi.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning 1996-yil 23—28-iyunda AQSHga tashrifi, uning AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashuvi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga zamin hozirladi. 1996-yil 25-iyunda O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi.

2002-yil 11 —14-martda O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimov boshliq davlat delegatsiyasining AQSHga tashrifi yakunlari o'laroq "O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida o'zaro strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida deklaratsiya", ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo'jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

Mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biri AQSH bilan hamkorlik hisoblanadi. Har ikki tomon ko'plab xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha mushtarak manfaat va qiziqishlarga egadir. Jumladan, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar hamda global xavfsizlik tahdidlari — ya'ni, giyohvand moddalarning

noqonuniy aylanishi, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdek, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarida o'zaro faol hamkorlik ikki davlat munosabatlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

2015 yil 1 noyabr kuni Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida Birinchi Prezident Islom Karimov Amerika Qo'shma Shtatlari davlat kotibi Jon Kerrini qabul qildi. Uchrashuvda Afg'onistondagi vaziyat, xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar muntazam rivojlanmoqda. 2010-yil dekabrda AQSH Davlat kotibi X.Klintonning respublikaga tashrifi chog'ida imzolangan O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi fan va texnologiya sohasida hamkorlik shartnomasi ilmiy-texnikaviy yo'nalishdagi aloqalarni yanada yuqori bosqichga chiqqanligining belgisidir. 2014-yilning may oyida ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha o'zaro komissiyaning birinchi yig'ilishi Toshkent shahrida o'tkazildi.

Akademik va ta'lim sohasidagi hamkorlik O'zbekistonning AQSH bilan ikki tomonlama hamkorligining muhim qismi hisoblanadi. Tomonlar bir qator ta'lim yo'nalishlari, xususan "Fulbrayt" almashinuv dasturi, ingliz tilini o'qitish, Oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik va boshqa yo'nalishlarda aloqalar olib borishadi.

Amerika biznes doiralari bilan hamkorlikning yorqin misoli sifatida Asaka shahridagi avtomobilsozlik zavodining 25 foiz qimmatli qog'ozlariga egalik qilayotgan "General Motors" korporatsiyasini misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur yo'nalishda erishilgan asosiy yutuqlardan biri sifatida yengil avtomobillarning dvigatellarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "GM Powertrain — Uzbekistan" korxonasining ishga tushirilishini ta'kidlash zarur.

2017 yil sentyabr oyida Shavkat Mirziyoevning Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrifi doirasida Nyu-Yorkda O'zbekiston — AQSH biznes forumi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan Amerika — O'zbekiston savdo palatasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda AQSHning 100 dan ortiq etakchi kompaniyasi rahbarlari ishtirok etdi. "General Electric", "Honeywell", "ExxonMobil", "CNH Industrial", "John Deere", "Coca-Cola", "Boeing", "Caterpillar", "City Group", "Visa", "AGCO", "Gilead Sciences" kabi yirik korporatsiyalar shular jumlasidan. Forum sho'baridagi muzokaralarda ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhitni shakllantirish hamda sanoat, infratuzilma, turizm, fan va ta'lim sohalarida qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari qizg'in muhokama qilindi. Tadbir yakunida AQSH kompaniyalari bilan umumiy qiymati 2,6 milliard dollarga teng bo'lgan yirik hujjatlar to'plami imzolandi. Jumladan, "General Electric" va "Honeywell" korporatsiyalari bilan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida, "CNH Industrial", "John Deere" va "Caterpillar" kompaniyalari bilan mashinasozlik sohasida, "OSI Systems" va "Lutron" kompaniyalari bilan elektrotexnika sohasida, "Boeing" kompaniyasi bilan fuqaro aviatsiyasi sohasida istiqbolli qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, Toshkent shahrida

Vebsster universiteti filialini ochish to'g'risida kelishuv imzolandi. Bu AQSH oliy o'quv yurtining MDH mamlakatlaridagi birinchi to'laonli filiali bo'ladi.

Umuman olganda AQSHning O'zbekistonda faol ish yuritayotgan "General Motors", "The Coca-Cola Company", "Boeing", "Lockheed Martin", "Honeywell" kabi kompaniyalari o'z mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish barobarida, aholi uchun yangi ish o'rinlari ham yaratmoqda.

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston va Kanada o'rtasida hamkorlik rivojlanib bormoqda. Davlatlar o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 7-aprelda o'rnatildi. Toshkentda Kanadaning Faxriy Konsulligi faoliyat yuritmoqda. Tomonlar o'zaro keng qamrovli aloqalarni yanada rivojlantirishga intilmoqdalar. 2013—2014-yillarda 10 ga yaqin o'zaro delegatsiyalar almashinuvi amalga oshirildi. O'zbekiston — Kanada hamkorligining mustahkamlanishida parlamentlararo aloqalarning rivoji muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar davom etmoqda.

Shuningdek, hozirgi davrga kelib O'zbekistonning Amerika qit'asidagi mamlakatlar bilan o'zaro aloqalari ham tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu aloqalar o'zining ijobiy istiqbollariga egaligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

4. O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamkorligi

O'zbekistonning Yevropa mintaqasi bilan o'zaro rasmiy aloqalari 1992-yil 30-yanvarda Pragada Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) qo'mitasining majlisida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tarkibiga kiruvchi davlatlarni, jumladan O'zbekistonni YXHT ning teng huquqli a'zolari qilib qabul qilishi bilan boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integ-ratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1996-yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi "Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim", uning 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi.

"O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" parlament hamkorligi qo'mitasi 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Kelishuvga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, parlamentarizm sohasidagi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash maqsadida faoliyat olib boradi. Parlament hamkorligi qo'mitasi faoliyati orqali parlament deputatlari sherik mamlakatlarda o'tkazilayotgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tadbirlar haqida xabardor qilinmoqda, turli xalqaro va boshqa tadbirlarni o'tkazishga yordam ko'rsatilmoqda.

O'zbekiston va Yevroittifoq rahbarlarining 2011 yil yanvar oyida Bryusselda o'tgan oliy darajadagi uchrashuvi hamda uning yakunlari bo'yicha imzolangan hujjatlar o'zaro munosabatlarni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tardi. 2012-yildan boshlab Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi vakolatxonasi o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar aloqalari yildan yilga rivojlanib, chuqurlashib bormoqda.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Germaniya bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning Germaniyaga 1993-yil 28-aprelda boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchi Prezident I. A. Karimov GFR Federal Prezidenti Rixard fon Vayzenker va Federal kansler Helmut Kol bilan samimiy, o'zaro tenglik asosidagi suhbatlari va muzokaralari natijasida ikki davlat o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida, sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligiga doir bitimlar imzolandi.

Birinchi Prezident I. A. Karimovning 2001-yil 2-5-aprelda GFRga, GFR Federal kansleri Gerxard Shrederning 2002-yil 9-10 mayda O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston — Germaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

2014-yilning 14-15-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar Vaziri Abdulaziz Kamilov boshchiligidagi delegatsiya Germaniya Federativ Respublikasiga tashrif buyurdi. Ikki tomon o'rtasidagi muntazam siyosiy maslahatlashuvlar doirasida Federal tashqi ishlar vaziri Frank-Valter Shtaynmayer va GFRning boshqa rasmiy shaxslari bilan uchrashuv va muzokaralar o'tkazildi. Hamkorlikning hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari hamda dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolarni muhokama etildi.

Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi muhim savdo sheriklaridan biridir. O'zaro hamkorlikning iqtisodiy imkoniyatlari katta istiqbolga ega. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan Germaniya kompaniyalari o'z sohalarida yuqori samaradorlikka erishmoqda. "MAN", "CLAAS", "Lemken", "Knauf", nashriyot-matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan "Geydelber" kabi kompaniyalar faoliyatiga yuqori baho berish mumkin.

Germaniya O'zbekiston bilan jamiyatni demokratlashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi islohotlarni amalga oshirishda hamkorlik qilmoqda. Konrad Adenauer va Fridrix Ebert nomidagi jamg'armalar faoliyati bunga misol bo'la oladi.

Toshkentda faoliyat yuritayotgan Gyote institutining muhim maqsadlaridan biri madaniyat va ta'lim sohalaridagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan "O'zbekiston — Germaniya", Germaniyadagi "Germaniya — O'zbekiston" do'stlik jamiyatlari, Toshkent shahridagi "Vidergeburt" nemis madaniyat markazi xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1993-yil 28—30-oktabrda O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Birinchi

Prezident I. A. Karimov Fransiya Prezidenti Fransua Mitteran o'rtasida samarali muzokaralar bo'lib o'tdi. 1994-yil 25—27-aprelda Fransiya Prezidenti Fransua Mitteranning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. O'zbekiston va Fransiya tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida, ikki mamlakat o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar va havo transporti sohasida hamkorlikka doir deklaratsiyalar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2013 yil 2 mart kuni Oqsaroyda Fransiya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Loran Fabiusni qabul qildi. Fransiya tashqi ishlar vazirining mamlakatimizga tashrifi O'zbekiston – Fransiya munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega dolzarb muammolar bo'yicha izchil rivojlanib borayotgan muloqotning mantiqiy davomidir.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar kengayib bormoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarida hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekiston xalqaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bo'lgan Buyuk Britaniya bilan ham hamkorlik qilmoqda.

1993-yil 22—25-noyabrda O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. A. Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy amaliy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha Elizaveta II, Bosh vazir J. Meyjor bilan samimiy, ochiq o'zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida shartnoma, sarmoyadorni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim, havo yo'llarini ochish to'g'risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. "Toshkent—London" havo yo'lida samolyot qatnovining yo'lga qo'yilishi aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1996-yilning boshlarida O'zbekistonda "Britaniya Kengashi" vakolatxonasining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

2016 yil 16 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tashqi ishlari vaziri o'rinbosari Alan Dunkanni qabul qildi. O'zbekiston Buyuk Britaniyani jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan davlat bilan siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni izchil davom ettirish, xalqaro maydonda, jumladan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

Bugungi kunda o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarni izchil rivojlantirish hamda ikki mamlakat ishbilarmonlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan Savdo va sanoat bo'yicha O'zbekiston-Buyuk Britaniya kengashi majlislari muntazam o'tkazib kelinayotir. O'zbekistonda britaniyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tuzilgan 437 korxona, Buyuk Britaniyaning 86 firma va kompaniyasi vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda britaniyalik ko'plab sarmoyadorlar uzoq yillardan buyon muvaffaqiyatli biznes yuritib kelmoqda. 2013 yilda Navoiy viloyatida "Nationwide Technologies" kompaniyasi tomonidan mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavod ishga tushirildi va tayyor mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi. Tog'-kon sanoatiga ixtisoslashgan "Rio Tinto" kompaniyasi Namangan viloyatida geologiya-qidiruv ishlarini olib bormoqda.

O'zbekistonning Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi va kengayib bormoqda. Shveytsariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat — Shveytsariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi Kengashi bilan O'zbekiston o'rtasida sheriklik va hamkorlik bitimi imzolandi. Bitim tufayli O'zbekiston Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 27 davlatlar bilan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, investitsiya, moliya, bojxona, ilm-fah, madaniyat, tibbiyot, telekommunikatsiya, transport va boshqa sohalarida sheriklik va hamkorlik munosabatlarini o'rnatdi.

5. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrdagi MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrdagi mazkur Bitimga Protokol asosida tashkil qilingan. O'zbekiston Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

MDH Ijroiya Qo'mitasi Hamdo'stlikning ijro etuvchi, ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda joylashgan. O'tgan davr mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish, hamda xavfsizlikni ta'minlash va gumanitar aloqalarni mustahkamlash ni ta'minlaydigan keng ko'lamli huquqiy asos va zaruriy mexanizmlar yaratildi.

O'zbekiston MDHni ko'p rejali munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mexanizm va bevosita muloqotlar olib borish, davlatlararo muzokaralar tashkil qilish, jumladan MDH formatida davlat rahbarlari va tegishli idoralar boshliqlari darajasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish maydoni hamda ko'p tomonlama hamkorlik shart-sharoitlarini yaratishda manfaatdor bo'lgan suveren davlatlarning birlashmasi sifatida baholaydi.

O'zbekiston MDH a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston – Rossiya munosabatlari bunga yorqin dalildir. O'zbekiston va Rossiya xalqaro maydonda bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ikki mamlakatning tashqi siyosat, tashqi savdo, mudofaa mahkamalari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatlarimiz BMT, SHHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Rossiya O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biri. O'zbekiston Rossiyaga tabiiy gaz, transport vositalari, qora va rangli metallar, trikotaj, paxta tolasi, meva-sabzavotlar, turli xizmatlar eksport qiladi. Rossiya mamlakatimizga transport vositalari, kimyo va qog'oz sanoati tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari etkazib beradi.

O'zbekistonda rossiyalik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda tuzilgan 961 qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda Rossiyaning 64 firma va kompaniyasi vakolatxonasi ochilgan. Rossiya Federatsiyasi hududida o'zbekistonlik hamkorlar bilan 569 tadbirkorlik sub'ekti tashkil etilgan bo'lib, ular samarali faoliyat olib bormoqda.

2017 yilda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik mustahkam huquqiy asosga ega. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar 2004 yil 16 iyunda imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005 yil 14 noyabrda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma doirasida izchil rivojlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 2017 yil 4-5 aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'lishi o'zaro munosabatlarni yanada mustaxkamlanishiga xizmat qildi.

Tashrif asnosida erishilgan kelishuvlar, imzolangan 16 milliard dollarlik 50 dan ortiq hujjat O'zbekiston va Rossiya taraqqiyotiga, ikki mamlakat xalqlarining farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi qayd etildi.

O'zbekistonning MDH davlatlari doirasida olib borayotgan o'zaro diplomatik munosabatlarida Markaziy Osiyo mintaqasi muhim o'rin tutadi. Chunki, bu mintaqadagi davlatlar O'zbekistonning bevosita qo'shnilari sanaladi. Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq mustaqil O'zbekiston rahbariyati qo'shni O'rta Osiyo mamlakatlari bilan davlatlararo aloqalarni o'rnatishga kirishdi. Negaki, bular yaqin qo'shni mamlakatlar bo'lib, O'zbekistonning ruhi, tili, dini, urf-odatlar va an'analari ularga yaqindir. Birinchi Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqil O'rta Osiyo respublikalari bilan do'stona, qardoshlik munosabatlarini chuqurlashtirish va yanada rivojlantirish, ilmiy va madaniy hamkorlikni kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining g'oyat muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi".

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlikni saqlash, barqarorlikka erishish va yadro qurolidan xoli bo'lishiga qaratilgan tashqi siyosat olib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish nafaqat o'zaro hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari, ayni vaqtda butun Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va ravnaqini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tgan yigirma olti yil davomida davlatlarimiz hamkorligining mustahkam shartnomaviy-huquqiy bazasi yaratildi. Turli sohalarga oid 100 dan ortiq shartnomalar, xususan, Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma (1998 yil), Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma (2013 yil) shular jumlasidandir.

Mustaqillik davrida O'zbekiston — Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni izchil rivojlantirish mintaqada barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda, shuningdek xalqaro darajada taraqqiyotning yangi yo'nalishlari uchun zamin yaratmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston BMT, MDH, SHHT kabi ko'p tomonlama tuzilmalar doirasida bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlab va hamkorlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 22-23 mart kunlari Qozog'iston Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi alohida ahamiyat kasb etdi. Ikki tomonlama muzokaralar natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo'shnihilikni mustahkamlash to'g'risida qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.

Tomonlar tashrif davomida imzolangan 2017 — 2019 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasini izchil amalga oshirish iqtisodiyotning turli sohalarida hamjihatlikni mustahkamlashga va o'zaro tovar aylanmasini 2020 yilgacha 5 milliard AQSH dollariga ko'tarishga turtki bergan holda, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishini qayd etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev 2017 yil 16-17 sentyabr kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Bu tashrif doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoev va Nursulton Nazarboevning uchrashuv hamda muzokaralari o'zaro hamkorlik salohiyatidan samarali foydalanish jarayonida birgalikda yuqori marralarni zabt etish uchun mamlakatlarimiz intilishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Bugungi kunda respublikamizda qozog'istonlik investorlar ishtirokida asos solingan qariyb 230 ta korxona samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 40 ga yaqini to'liq xorij kapitali asosida tuzilgan. 2016 yil yakunlariga ko'ra, davlatlarimiz o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etgan.

O'zbekiston va Turkmaniston azaldan tarixiy va ma'naviy ildizlarining umumiyligi, madaniyati, an'analari, urf-odatlar, qardoshlik rishtalari, tili va mentalitetining yaqinligi o'zaro bog'lab turuvchi yaqin qo'shni bo'lib, bugungi kunda ikki tomonlama munosabatlarini ko'p asrlik do'stlik, o'zaro hurmat va ishonch, ikki qardosh xalqlar tomonidan shakllantirilgan umumiy manfaatlar va erishilgan yutuqlar asosida amalga oshirib kelmoqda. Har ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar rivojining yuqori sur'atlariga misol tariqasida hamkorlikning turli darajalarida siyosiy muloqotlar olib borilishi, tomonlarning savdo-iqtisodiy yo'nalishdagi sheriklikni rivojlantirishga intilishlari hamda madaniy-gumanitar sohadagi mustahkam aloqalarni keltirib o'tish mumkin.

1991—2010-yillarda har ikki davlat o'rtasida 10 ta oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi — 6 marta Turkmaniston Prezidenti O'zbekistonga keldi, 4 marta O'zbekiston Prezidenti Turkmanistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflar chog'ida qator sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning asosi bo'lgan shartnoma va huquqiy baza yaratildi.

Mamlakatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan so'ng do'stona va samarali hamkorlikning ulkan tajribasiga erishildiki, buning asosi keng ko'lamli hamkorlikning faol yo'nalishlariga mo'ljallangan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 150 dan ortiq xalqaro shartnomalardan iborat salmoqli huquqiy-shartnomaviy hujjatlarda o'z aksini topdi. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar borasida so'z ketganda, ularning jadal sur'atlarda rivojlanayotganini qayd etish lozim. Xususan, O'zbekiston Turkmanistonga kimyo sanoati mahsulotlari, qurilish mollari, qishloq xo'jaligi texnikasi, metallardan tayyorlangan ashyolar, ma'danli o'g'itlar, asbob-uskuna va transport vositalarini eksport qiladi. O'z navbatida Turkmanistondan bizga neft mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar, xizmat ko'rsatish, noorganik kimyoviy vositalar keltiriladi.

Transport sohasi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakatlarimizning o'zaro integratsiyalashgan avtomobil va temir yo'llari uchinchi davlatlar uchun ham tranzit vazifasini o'tamoqda. Shu jihatdan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusining amaliy ifodasi bo'lgan O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon xalqaro transport-kommunikatsiya koridorini barpo etish bo'yicha 2011 yili imzolangan bitim geostrategik ahamiyatga egadir.

O'zbekiston ham, Turkmaniston ham uglevodorod resurslariga boy. Ularni eksport qilish o'zaro muvofiq harakat qilishni talab etadi. Ana shunday yaqin hamkorlik mamlakatlarimiz uchun energetika yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish va jahon bozorlariga chiqish borasida keng imkoniyatlar yaratmoqda. 2009 yilda ishga tushgan Turkmaniston — O'zbekiston — Qozog'iston — Xitoy gaz quvuri buning yorqin misolidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan o'zining ilk xorijiy mamlakatga tashrifini 2017 yil mart oyida Turkmanistondan boshladi. Prezidentimizning mazkur davlat tashrifi O'zbekiston tashqi siyosatda yaxshi qo'shnihilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratayotganini yaqqol tasdiqladi.

Oliy darajadagi tashriflar muntazamlilik kasb etgani davlatlararo munosabatlar yuksak darajada ekanidan dalolatdir. O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlarining bu galgi uchrashuvi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asos solgan o'zaro manfaatli va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

O'zbekiston — Turkmaniston aloqalari 2007 yilda imzolangan Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi davlatlararo shartnoma asosida izchil taraqqiy etmoqda.

O'zbekiston — Qirg'iziston o'zaro diplomatik aloqalari 1993- yil 16-fevralda o'rnatilgan. Har ikki mamlakat xalqaro terrorizm, fundamentalizm, separatizm, narkotrafikka qarshi kurashda yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Hozirgi davrda har ikki mamlakat o'rtasida o'zaro hamkorlikka doir 200 ga yaqin hujjat imzolandi.

2014-yil aprelda o'tkazilgan O'zbekiston — Qirg'iziston "Sharq — Antiterror — 2014" qo'shma antiterror qo'mondonlik-shtab harbiy mashqlari muhim ahamiyat kasb etdi. Harbiy mashqlar Shanxay hamkorlik tashkilotining 2014-yil

20-martda tasdiqlagan dasturi asosida o'tkazildi. Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Tojikiston vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashdi.

Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atambaev 2016 yil 24 dekabr kuni amaliy tashrif bilan Samarqandga keldi. Xalklarimiz tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlari mushtarak ekanligi, an'ana va urf-odatlarini o'xshashligi siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan har ikki davlat o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish va ishonchga asos bo'lishi ta'kidlandi.

2017 yil sentyabr va oktyabr oylarida Shavkat Mirziyoev va Almazbek Atambaev Bishkek va Toshkentda uchrashib bir qator masalalarda samarali muzokaralar olib bordilar. Natijada, O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida Qo'shma bayonot va O'zbekiston — Qirg'iziston davlat chegarasi to'g'risida shartnomani imzoladilar. Andijon va O'sh, Toshkent va Bishkek shaharlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik to'g'risida, ikki davlat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risida, Soliq qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida, Mintaqalararo hamkorlik to'g'risida hukumatlararo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, Oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitimlar, Chegaradosh mintaqalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha 2017 — 2019 yillarga mo'ljallangan qo'shma tadbirlar rejasi, Parlamentlararo hamkorlik to'g'risidagi memorandum va boshqa muhim hujjatlar imzolandi.

Umuman, O'zbekiston — Qirg'iziston o'zaro munosabatlar ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlardagi hamkorlik asosida rivojlanib bormoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekiston — Tojikiston diplomatik aloqalari rivojlanib kelmoqda. O'zbekistonning Tojikiston davlatiga nisbatan ekologik masalalar — Tojik alumin zavodini atrof-muhit ekologiyasini halokatga olib kelganligi, Tojikistondagi Rog'un GESning loyihasi qirq yil ilgari eskirgan loyiha, konstruktorlik va texnologik xulosalari asosida qurilayotganligi, uni qurilishi Orol halokati tufayli ekologik muvozanatni izdan chiqish yoqasida turgan mintaqaga katta ofat etkazishi mumkinligiga doir e'tirozlariga ijobiy aks-sado berilmayotgan o'zaro diplomatik munosabatlarda o'z izini qoldirmoqda.

Lekin, shunga qaramay, har ikki tomonning o'zaro aloqalari ikki tomonlama va xalqaro tashkilotlar faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2011—2013-yillarda har ikki tomon ichki ishlar vazirlarining xalqaro tashkilotlar anjumanlaridagi uchrashuvlari kuzatilmoqda. 2014-yil iyulda har ikki davlat tashqi ishlar vazirlari Dushanbeda SHHT a'zo davlatlari tashqi ishlar vazirlari yig'ilishi munosabati bilan uchrashdi. Unda transport, energetika, madaniyat, chegara hududlaridagi hamkorlik sohalarida siyosiy muzokalarni faollashtirishga kelishildi. Shuningdek, har ikki tomon tashqi ishlar vazirlari SHHTni rivojlantirish, ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 70 yilligini nishonlashga doir qo'shma qarorlar qabul qilish, mintaqaviy va xalqaro muammolarga doir o'zaro fikrlar almashdi.

6. O'zbekiston va Shanxay hamkorlik tashkiloti.

Bugungi kunga kelib Shanxay hamkorlik tashkiloti tashkil topganiga 16 yil bo'ldi. 2001 yil 15 iyun kuni Xitoyning Shanxay shahrida tuzilgan Shanxay

hamkorlik tashkiloti mustahkam pozitsiyasi, samarali yondashuvlari va muayyan maqsadlariga ega nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi. SHHT tashkil topgandan buyon O'zbekiston, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston tashkilotning a'zolari hisoblanadi. Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Mo'g'uliston, Belarus SHHT faoliyatida kuzatuvchi sifatida qatnashsa, muloqot bo'yicha sheriklar safida Turkiya, Shri-Lanka, Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal ishtirok etadi.

Xalqaro va mintaqaviy vaziyatda jiddiy o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda u ko'p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmi ekanligini yaqqol namoyon etdi.

O'tgan yillar davomida tashkilotning salmoqli shartnomaviy-huquqiy poydevori yaratildi Binobarin, tizimli organlar barqaror faoliyat ko'rsatib, a'zo davlatlar o'rtasida turli yo'nalishlardagi aloqalarni izchil kengaytirish hamda chuqurlashtirishni ta'minlayapti.

Shanxay hamkorlik tashkilotining asoschi davlatlaridan biri sifatida O'zbekiston ochiq va konstruktiv muloqot minbari bo'lgan mazkur tashkilotga o'zining tashqi siyosiy strategiyasida alohida ahamiyat berib, uning ishida faol qatnashmoqda. Mamlakatimiz SHHTga terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik moddalari va qurol-yarog'larning noqonuniy aylanishi, uyushgan jinoyatchilik hamda ommaviy qirg'in qurollarining tarqatilishiga qarshi kurash, o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirish, madaniy-gumanitar sheriklik jabhalaridagi hamkorlikning muhim vositasi sifatida qaraydi.

O'z navbatida, mazkur tuzilma doirasida xavfsizlik sohasidagi o'zaro aloqalar samaradorligini alohida qayd etish joiz. Buning uchun tashkilotga a'zo davlatlarning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha hamkorligi, turli darajadagi muntazam yig'ilishlar o'tkazilishini tartibga soluvchi tamoyillar yaratilgan hamda salmoqli huquqiy poydevor shakllantirilgan. Xususan, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov taklifi bilan 2004 yilda mamlakatlar Xavfsizlik kengashi kotiblari uchrashuvi mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash masalalari hal etilishida tashkilotning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ikki organi — Pekin shahrida joylashgan Kotibiyat va Toshkent shahrida joylashgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi samarali faoliyat yuritib kelmoqda. SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining 2003 yil may oyidagi Qaroriga asosan, SHHT MATT Ijroiya qo'mitasi Toshkent shahrida joylashishi belgilandi va ushbu tuzilma 2004 yilning 17 iyunidan poytaxtimizda o'z faoliyatini boshladi. SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining asosiy maqsadi terrorizm, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi kurashda tashkilotga a'zo davlatlar hamkorligini muvofiqlashtirishga ko'maklashishdir.

Respublikamiz o'tgan davr mobaynida SHHT a'zosi bo'lgan mamlakatlar bilan birgalikda jahon va mintaqa ahamiyatiga molik muammolar hal etilishida tashkilot salohiyatini, o'zaro hamkorlik muvofiqlashuvini yanada kuchaytirish, tashkilotning xalqaro maydondagi rolini oshirish yuzasidan keng qamrovli ishlarni ro'yobga chiqardi.

Davlatimizning ana shunday sa'y-harakatlari tufayli borgan sari ko'p davlatlar SHHTga alohida qiziqish, u bilan sheriklik aloqalarini o'rnatish yuzasidan istak-

xohish bildirishayapti. Aytaylik, 2015 yil sentyabrda Kambodja Qirolligiga SHHTning muloqot bo'yicha sherigi maqomini berish to'g'risidagi memorandum imzolandi. 2016 yil 14 mart kuni ana shunday maqom Ozarbayjonga berildi.¹

2016 yil 23-24 iyun kunlari Toshkent shaxrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasining SHHTga a'zo davlat maqomini olish yo'lidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandumlar imzolangani Toshkent sammitining muhim voqealaridan bo'ldi.²

Hindiston va Pokistonning SHHTning teng huquqli a'zosi maqomiga ega bo'lishining ahamiyati shundaki, yadroviy davlatlar hisoblangan Xitoy va Rossiya qatoriga yana ikkita yadroviy mamlakat SHHTning a'zosi bo'lib qo'shiladi. Tasavvur qiling: bugun SHHTga daxldor mamlakatlarda dunyoning qirq sakkiz foiz aholisi istiqomat qiladi. To'rtta yadroviy davlat. Ularning ikkitasi BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosidir.³

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasi SHHTga a'zo davlat sifatida tashkilotning yanada ravnaq topishi, uning me'yoriy-huquqiy asosi mustahkamlanishi hamda ushbu tizimning nufuzi dunyo bo'yicha bundan-da yuksalishiga katta hissa qo'shayotir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnihilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

¹ <http://xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/7087-zbekiston-sh-t-tinchlik-bar-arorlik-tara-ijot-va-farovonlik-j-lidagi-amkorlik>

² Халқ сўзи, 2016 йил, 25 июнь.

³ Халқ сўзи, 2016 йил, 28 июнь.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2011.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.
4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 1989.
5. Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992.
6. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: 1996.
7. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. 4- jild. – T.: O'zbekiston, 1996.
10. Каримов И. А. Узбекистан: национальная независимость, экономика, политика, идеология. Т. 1. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
11. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997.
12. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
13. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: 1998.
14. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: 1999.
15. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
16. Каримов И. А. Наша высшая цель – независимость и процветание Родины, свобода и благополучие народа. Т. 8. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000.
17. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: 2001.
18. Karimov I. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. – T.: 2002.
19. Karimov I. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11- jild. – T.: O'zbekiston, 2003.
20. Karimov I. Milliy armiyamiz — mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. — T.: “O'zbekiston”, 2003.
21. Karimov I. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. – T.: O'zbekiston, 2004.
22. Karimov I. O'zbek xalqi hech kimga, hech qachon qaram bo'lmaydi. 13-jild. – T.: 2005.
23. Karimov I. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O'zbekiston, 2007.

24. Karimov I. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. – T.: O'zbekiston, 2008.
25. Karimov I. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. – T.: O'zbekiston, 2009.
26. Karimov I. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. 18-jild. – T.: O'zbekiston, 2010.
27. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
28. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
29. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: 2009.
30. Karimov I. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. – T.: O'zbekiston, 2010.
31. Karimov I. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T.: O'zbekiston, 2010.
32. Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi Ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr.
33. Karimov I. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.18. – T.: O'zbekiston, 2010.
34. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
35. Islom Karimov. "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. O'zbekiston ovozi, 2014-yil, 7-iyun.
36. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2015.
37. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/-tub-tarkibiy-zgarishlarni-amalg-17-01-2015>
38. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng

- muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi. Fargʻona haqiqati, 2016 yil 20 yanvar.
39. Mirziyoev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: Oʻzbekiston, 2016.
40. Mirziyoev. Sh. M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib va intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. – T: Oʻzbekiston, 2017.
41. Mirziyoev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: Oʻzbekiston, 2017.
42. Mirziyoev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: Oʻzbekiston, 2017.

Darslik va oʻquv qoʻllanmalar:

1. Asanov G, Nabixonov M, Safarov I. Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jugʻrofiyasi. Pedagogika oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun oʻquv qoʻllanma. Toshkent: Oʻqituvchi, 1994.
2. Akromov Z, Musaev P. Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jugʻrofiyasi: Maktablarning 9-sinfi uchun darslik. Toshkent.: Oʻqituvchi, 1993.
3. Ona tili – Davlat tili: (Oʻquv qoʻllanma-majmua) Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuniga oid hujjatlar / Tuzuvchilar: N.Jumaxoʻja, R.Jomonov. – T.: “Adolat”, 2004.
4. Joʻraev N. va boshq. Oʻzbekiston tarixi: Milliy istiqlol davri: 11-sinf oʻquvchilari uchun darslik/ N. Joʻraev, T. Fayzullaev, Q. Usmonov: Masʼul muharrir: A. A. Azizxoʻjaev. – T.: “Sharq”, 1998.
5. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini oʻrganish boʻyicha ilmiy-uslubiy risola [Matn]/Oʻzbekiston Respublikasi oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: “Maʼnaviyat” nashriyoti, 2017.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Levitin L. Islom Karimov – yangi Oʻzbekiston prezidenti. T.: “Oʻzbekiston”, 1996.
2. Bozorov O. 1989 yildagi Fargʻona fojiasi: uning sabab va oqibatlari. Toshkent: Fan, 2010.
3. Azizxoʻjaev A. Chin oʻzbek ishi. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011.
4. Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. Tuzuvchi Toʻxlijev N. T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1998.
5. Shamsutdinov R. va boshqalar. Vatan tarixi (Uchinchi kitob); –T.: “Sharq”, 2010.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: M.Jo'raev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jaev (rais) va boshq./. – T.: “Sharq”, 2000.
7. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar / So'zboshi: I.G'afurov. – T.: “Sharq”, 2001.
8. Mustaqil O'zbekiston tarixi/ N. Jo'raev, T. Fayzullaev; tahrir hay'ati A. Sagdullaev, N. Komilov, N. Abduazizova va boshq.; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi. – To'ldiridgan, qayta nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2009.
9. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi /Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida/. – T.: “O'zbekiston”, 1992.

MUNDARIJA

- 1. O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIKKA ERISHISH OSTONASIDA**
- 2. MUSTAQIL DAVLATCHILIK ASOSLARINI YARATISH VA MUSTAXKAMLASH YO‘LIDA**
- 3. MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOXOTLAR. BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA LIBERALLASHTIRILISHI**
- 4. YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH**
- 5. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI**

**O. Begmatov, B. Abdullaev, A. Yusupov,
A. Meliboev, J. Xolmatov**

O'ZBEKISTON DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH YO'LIDA

Muharrir *N. Qosimova*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Musahhah *S. Abdunabiyeva*
Sahifalovchi *A. Muhammadiyev*

Nashriyot litsenziyasi AI №247. 02.10.2013.
Bosishga 23.06.2018. ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.
“Times New Roman” ganitulasi. Ofset bosma usulda
bosildi. Shartli bosma tobog'i 11,5. Nashr tobog'i 11,0.
Adadi 100 nusxa. 69-sonli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy